

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 1 (7)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институтини
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abduraimova Manzura Baxodir qizi BUXORO AMIRLIGIDA TOG' - KON SANOATI: IQTISODIY QARAMLIKDAN SIYOSIY QARAMLIK SARI	5
2. Abduraxmonova Kamola Ravshanjon qizi TABOBAT TARIXI VA DAVOLASH USULLARINING O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	16
3. Бахранов Шерзод Таштурсунович О СТАНОВЛЕНИИ КОКАНДА ЦЕНТРОМ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX В.В.)	29
4. Дарменов Рустем Турарбекович О КУЛЬТЕ ЖЕНСКОГО БОЖЕСТВА У РАННИХ КОЧЕВНИКОВ ПРИАРАЛЬЯ	47
5. Доспанов Октябрь Турганбаевич., Сафаев Мансур Махмудович НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ К ИЗУЧЕНИЮ КАРАКАЛПАКСКОГО КОВРОВОГО ИСКУССТВА	62
6. Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич ШИМОЛИЙ ДАШТ ХУДУДИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЧОРВАДОР АҲОЛИСИНИНГ ЎРТА ОСИЁГА МИГРАЦИЯСИ ТАРИХИДАН	73
7. Каримова Далифрўз Обиджоновна ЎЗБЕК АРХЕОЛОГ ОЛИМИ АҲМАДАЛИ АСҚАРОВИЖОДИДА БРОНЗА ДАВРИ ЎТРОҚ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ	86
8. Курязова Лайло Раҳмоновна ЎЗБЕКИСТОНДА ОДАМ САВДОСИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ БОРАСИДАГИ ҲУЖЖАТЛАРНИНГ РАТИФИКАЦИЯ ҚИЛИНИШИ ТАРИХИДАН	96
9. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O'ZBEKISTONDA 1925-1940 YILLARDA SANOAT ISHCHILARI TARKIBINI SHAKLLANTIRISH VA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA)	111
10. Мусаева Сахиба Халил ТРАДИЦИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ И РОЛЬ ЭТНИЧЕСКИХ МЕНЬШИНСТВ В СОХРАНЕНИИ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА	120
11. Саидова Шахноза Шахназаровна ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ ЭКОПОЛИТИКИ	130
12. Sirojov Bahodir Nishon ugli THE ESSENCE SHAYBANI KHAN'S MONETARY REFORMS AND THEIR IMPACT ON SOCIO-ECONOMIC LIFE	146

13. Турсунов Равшан Нормуратович И.И. ГЕЁЕРНИНГ “ТУРКИСТОН” АСАРИДА XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX БОШИДА САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР	152
14. Ulug’bekov Oybek Otabek o’g’li ASYLUM-SEEKER CHILDREN’S MIGRATION FROM EAST TO WEST: THE MEANING OF CARE FOR UNACCOMPAINED MINORS	160
15. Ulashova Sevinch Ulash qizi MANBALARDA DUVAXON VA QAYDUXON FAOLIYATIGA DOIR MA’LUMOTLAR	176
16. Шокиров Тохиржон Суннат уғли РОЛЬ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И СЕВЕРНОЙ АФРИКИ В СТАНОВЛЕНИИ НОВОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ В РАМКАХ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС – ОДИН ПУТЬ»	191

Abduraimova M. B.

Tayanch doktorant

Navoiy davlat universiteti

abduraimovamanzura@yandex.com

BUXORO AMIRLIGIDA TOG‘ - KON SANOATI: IQTISODIY QARAMLIKDAN SIYOSIY QARAMLIK SARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro amirligi tog‘-kon ishlarining yuritilishi, rus kon mutaxassislarining jalb qilinishi va o‘lka miqyosidagi izlanishlari, tadqiqotlari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, amirlikda tog‘-kon ishlarining borishida rus mutaxassislarining natijalari keltirib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda, mazkur hududda olib borilgan oltin qidiruv ishlarining asoratlari, oqibatlari siyosiy qaramlikni keltirib chiqarganligi ta‘riflangan.

Kalit so‘zlar: oltin sanoati, yangi Nizom, zamonaviy texnologiyalar, qidiruv va razvedka ishlari, siyosiy qaramlik.

KIRISH

Buxoro amirligida tog‘-kon sanoati tarixi, rivojlanishi va iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatish bo‘lib, ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi:

Buxoro amirligining tog‘-kon sanoati tarixi to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi manbalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida konchilik sanoatining paydo bo‘lishi hamda rivojlanishiga oid ilmiy xulosalarni bayon etish;

Buxoro amirligi hududida joylashgan konlar va ularning tasnifini geografik, geologik imkoniyatlarini hamda tog‘-kon sanoati masalalariga oid geologik tadqiqotlar va ekspeditsiyalarning borishi haqida ma‘lumot berishdan iborat.

Ushbu masalani ochib berishda ko‘plab yangi ma‘lumotlar, arxiv hujjatlari o‘rganilib. ularning tahlili asosida Buxoro amirligida tog‘-kon sanoatining rivojlanish tarixi va asoslarini ko‘rsatishga harakat qilindi. Xususan, Buxoro amirligi tog‘-kon sanoati tarixiga bag‘ishlangan Rossiya mustamlakasi davriga oid quyidagi tarixiy manbalar, adabiyotlar va arxiv hujjatlari o‘rganildi:

Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mang‘itiya” nomli asari mang‘itlar sulolasining tarixiga bag‘ishlangan muhim tarixiy asardir. Asarda mang‘itlar sulolasining kelib chiqishi va hukmronligi, siyosiy hayoti aks ettirilgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan bo‘lgan munosabatlar tarixini o‘rganishda ham katta qimmatga ega[1, B.182]. Muhammad Ali Balijuvoniyning “Tarixi Nofei” nomli asarida esa urf-odatlar, diniy masalalar va ijtimoiy hayot

haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Asar Buxoro amirligining siyosiy tarixiga ko'proq e'tibor berilgan[2, B.124].

Ahmad Donishning "Navodir ul vaqoe" nomli asarida Buxoro amirligi tog'-kon sanoati va iqtisodiy hayoti to'g'risida ma'lumot bergan. Ushbu asarda o'z zamonasining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarini tahlil qilgan, shuningdek, tog'-kon sanoatining ahvolini tanqidiy baholagan[3, B.100].

O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA) fondlarida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar majmuasi tadqiqotning muhim manbaviy bazasi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi MDAning I-1-fond "Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi" hujjatlari, I-3-fond "Turkiston general-gubernatorligi qoshidagi siyosiy agentlik" hujjatlari, I-5-fond "Zarafshon okrugi boshlig'i devonxonasi" hujjatlari, I-41-fond "Turkiston harbiy okrugi" hujjatlari, I-126-fond "Buxoro amirligi qo'shbegi arxivi" kabi hujjatlari asosida o'rganildi.

O'zbekiston MAning I-1-Fondidagi 111-ro'yxatida qayd etilgan yozishmalarda muhandislar A.M.Goryanov va F.Y.Enakieva shirkatining kon sanoati ustavi (1900-yil), shuningdek Turkiston o'lkasi xaritasini tuzish zarurati va undagi foydali qazilma konlari ko'rsatkichlari haqida, Tog'-kon sanoati tomonidan noto'g'ri harakatlar to'g'risidagi shikoyatlar (7-yanvar 1907-yil, 21-sentabr 1911-yil), 219-ro'yxatida Juravko Pokorskiyning kon ishlari faoliyati hisoboti, 487-ro'yxatda Buxoro oltin qazib olish korxonasi nizomini tasdiqlash to'g'risida (12-mart 1904-yil), 356-ro'yxatda esa Buxorodagi oltin moddasi bo'lgan yerni muhandis Juravko Pokorskiyga noto'g'ri ajratgani haqida shikoyati (21-sentabr 1902-yil), 352-ro'yxatda Buxoroda oltin qazib olish talabi haqida kon ishlariga doir ma'lumotlar yoritib beriladi.

Ushbu mavzuni tadqiq qilishda tarixiy va qiyosiy-tahlil, xolililik va obektivlik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan holatda asosan, XIX asr oxiri va XX asr boshlari Buxoro amirligida tog'-kon sanoatining rivojlanish jarayonlari o'rganildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Respublikamizda ham bugungi kunda tog'-kon sanoati, yer osti va yer usti qazilma boyliklarini tadqiq etish sohasida ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa mamlakatimiz hududida XVIII-XX asr boshlarida olib borilgan tog'-kon sanoati ishlarini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish va natijalarini amaliyotga joriy etish vazifalari muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni hamda 2021-yil 24-iyundagi "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5159-son Qarorlarida belgilangan vazifalar

ijrosini ta'minlashda ham muxim ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni maqsad qiladi. Bu esa o'z navbatida tog'-kon sanoatida ma'danlarni qazib olish va undan foydalanishni tashkil etishning tarixiy tajribalaridan unumli foydalanish, shuningdek iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida tadqiqot natijalarining ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq jarayonlarni belgilaydi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar mamlakatimiz tarixchi, geograf va geolog olimlarining ham ilm-fanni rivojlantirishda o'z oldiga qo'ygan muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

XIX asrda Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari faollashgan davrda, iqtisodiy jihatdan rivojlanishni ta'minlash uchun tog'-kon sanoatiga ham e'tibor qaratgan. Amirlikning konchilik va qazib olish faoliyatini rivojlantirish maqsadida rus mutaxassislarining jalb qilinishi sezilarli hodisa bo'ldi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan strategik manfaatlari va iqtisodiy qiziqishlari tufayli, Buxoro amirligi va boshqa hududlarda mineral resurslarni qazib olishga katta ahamiyat beriladi. Manbalarda ta'kidlanishicha, Buxorodagi tog'-kon sanoati Rossiyaning Zirabuloq shartnomasidan so'ng protektoratga aylantirilgan davrda ham uncha sezilarlik ishlar bajarilmaganligi ko'rsatiladi. Xolbuki, amirlikda quyma oltin, mis, temir konlari bo'lgan, ya'ni, oltingugurt, simob, ko'mir, neft, marmar, alebastr kabi foydali qazilmalar mavjud bo'lgan. Oltin zarralarining katta miqdordagi qismi Sharqiy Buxoroning Balijuvon, Darvoza, Qorategin bekliklarida, shuningdek, Yangi Buxoroning yaqinida mavjud bo'lgan [4, B.124].

O'rganilayotgan davrda amirlik hayotining turli sohalarida ma'danlarni ishlab chiqarish va undan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar turk, rus va Yevropa tillaridagi turli xil tarixiy, geografik asarlarda va esdaliklarda qayd etib o'tilgan. Turli xil manbalardan aniqlangan faktlarni, shuningdek ilmiy, badiiy adabiyotlar, arxiv materiallari, davriy nashrlar, qo'llanmalar va esdaliklarda topilgan ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish bilan ushbu muammoning muhim masalalarini yoritish mumkin. Oltin ma'danini ishlab chiqarishni rus tadbirkorlari monopoliyasiga aylantirish maqsadida Turkiston general gubernatori baron Vrevskiy 1896-yil 24-fevralida "Buxoro xonligida oltin sanoati to'g'risida"gi Nizomni qabul qiladi. Ushbu qarorga ko'ra, Rossiya fuqarolariga oltin izlash, tadqiq qilish va amlokдор bo'lish, bo'sh yotgan yerlardan oltin qazib olishga ruxsat beriladi. Buxoro amirligida zamonaviy texnologiyalar va mutaxassislikka ega mahalliy kadrlar yetarli bo'lmagani sababli, amirlik Rossiyadan mutaxassislar yordamiga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi, Britaniya hukumatining Afg'onistonda, shuningdek, Xurosonda hukmronlik o'rnatishi asosan tojiklar

yashaydigan qismida, oltin olish va unga ishlov berish zargarlik sohasi 3 yo'nalishda shakllandi:

1-dan statistik usulda amalga oshirildi;

2-dan rus rasmiy doiralari, tadbirkor, muhandislar manfaatidan kelib chiqqan holda o'rganildi;

3-dan, tarixchi, etnograf, geologlar, shuningdek, o'lkashunoslik ixlosmandlarining qiziqishidan kelib chiqqan holda o'rganildi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi, Buxoro va Xiva oltin va kumush ustalari tomonidan ishlangan konlarning joylashuvi to'g'risida statistik ma'lumotlarni to'plashda rus amaldorlari, zobitlar, o'lkashunoslar, ilm ixlosmandlari faol qatnashdi. Xullas, davlat maslahatchisi Mir Solih Bekchurin 1866-yil Xo'jand qamalida so'ng darhol hududga borib, shunday ma'lumotlar beradi: "turli xil rudalar joylashgan joylarda qilingan kashfiyotlarni hisobga olib, bu yurt tabiatan boyliklarga boy. Bu yerda temir, oltin, kumush, firuza va ko'mir bor", deb ta'kidlab o'tgan.

1867-1875-yillarda Xo'jand okrugi boshlig'i, polkovnik A.A.Qo'shoqovich Xo'jand va O'ratepaning konlari, oltinlariga ishora qilib, oltin va kumush qayta ishlash bilan bog'liq bozorlar, do'konlar, ustaxonalar to'g'risida statistik ma'lumotlar beradi. Polkovnik A.A.Qo'shoqov tashabbusi bilan tashkil qilingan 1870-yilda Turkiston o'lkasidagi yarmarkasida Xo'jand uyezdidan oltin va kumush bezak namunalari namoyish etiladi. N.A. Mayev "1886-yil Turkiston yarmarkasi" maqolasida Xo'jand pavilyonining namoyish etilgan mahsulotlarini tasvirlaydi. Shuningdek, oltin konlari joylashgan hududlar haqida I.P.Minayev, A.F.Kostenkolar ham o'zlarining kitoblarida ma'lumot berib o'tadi.

D.I.Logofet va A.P.Shishov O'rta Osiyodagi oltin qazib olish sanoati haqida ma'lumot beradi. Rossiya protektorati davrida buxoroliklar konchilikdan asta-sekin voz kechadi, rudalarning umumiy miqdori aholi ehtiyojini qondira olmaydi va raqobatga dosh berolmaydi.

Shunday qilib, XVIII-XX asr boshlarida rus va Yevropa olimlari tomonidan oltin qazib olishga doir muhim ma'lumotlarni tavsiflab o'tdi. Tadqiqotchilarning ana shunday yondashuvi tufayli O'rta Osiyoda oltin qazib olish va qayta ishlash tarixining tub masalalarini o'rganish uchun tarixshunoslik asoslari yaratildi. Rossiyalik olim-tadqiqotchilarning ishlarida ruda va qum oltin konlarining joylashuv geografiyasi aniqlangan. Oltin konlarida ishning tashkil etilishi tasvirlangan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligida oltin qazish sanoati ham ancha taraqqiy etdi. Rus kapitali kirib kelgunga qadar, Sharqiy Buxoro-Qorategin, Darvoz bekliliklarida, Yax-Suv, Vaxsh, Panj daryolarining yuqori oqimlarida oltin qazib olinardi. Qorategin va Darvoz bekliliklarida istiqomat qiluvchi dehqonlar dala

ishlarini tugatganlaridan so'ng, oltin qumlarini yuvishga o'tlanishar edi. Ushbu mavsum ikki oydan uch oyga qadar cho'zilar, tozalangan oltin amir g'aznasiga jo'natilar edi.

Ayniqsa, amirlikdagi xomashyo boyliklari, tabiiy yer osti va yer usti boyliklari ustidan o'z nazoratini o'rnatgan chor Rossiyasi, hatto amirlikdagi oltin ishlab chiqarish va uni qidirish ishlarini yuritish ustidan nazoratni ham o'z qo'liga kiritadi [10, B.2]. Jumladan, "Buxoro xonligida oltin sanoati to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi vaziyatni ildam harakatga keltiradi.

Oltin ishlab chiqarishni rus tadbirkorlari monopoliyaga aylantirish maqsadida Turkiston general gubernatori baron Vrevskiy 1896-yil 24-fevralda "Buxoro xonligida oltin sanoati to'g'risida" Nizom chiqaradi. Ushbu Nizomga ko'ra, Rossiya fuqarolariga oltin izlash, tadqiq qilish va amlokdor bo'lish, bo'sh yerlardan oltin qazib olishga ruxsat berildi. Bu yerni ekspluatatsiya qilish uchun konsessioner maxsus yer solig'ini to'lashi kerak bo'lib, Buxoro amirligi xazinasiga 2 rubl miqdoridagi soliq to'lagan. Agar yer xususiy mulk bo'lsa, u holda konsessioner egasi bilan kelishib olishi va faqat egasining ruxsati bilan qidiruv ishlarini boshlashi mumkin. Buxoro amirligida oltin qazib olish xorijliklar va rus firmalari, shirkatlariga u yoki bu ko'rinishda xorijiy kapital bilan bog'liq bo'lgan holda taqiqlangan edi. Jismoniy shaxs tomonidan oltin qazib olishni monopoliyaga aylantirmaslik uchun qaror qabul qilindi. Nizomga ko'ra, bir kishi uchun uzunligi 1 verstdan eni 2 verstdan ko'p bo'lmagan yer uchastkasi ajratishga ruxsat berildi. Buxoro hukumati konsessionerning ishini nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan.

Baron Vrevskiy Buxoroda xususiy oltin qazib olish bo'yicha rus fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni tasdiqlagach, Buxoro mulkining sharqiy, tog'li qismidagi oltinga boy hududlarni tog' muhandisi, davlat maslahatchisi Mixaylov tomonidan o'tkazilgan batafsil o'rganish natijasi oltin qazib olish to'g'risidagi Rossiya xartiyasiga namuna bo'ladi. Oltin bor yerlarni kichik uchastkalarga aylantirish ilgari o'zlashtirishga yaroqsiz deb hisoblangan, ammo takomillashtirilgan o'zlashtirish usullari tufayli ko'p yoki kamroq foyda keltirishi mumkin bo'lgan bunday yerlarni o'zlashtirish imkoniyati qiyin bo'lgan. Shu sababdan qishloq xo'jaligi va davlat mulki vazirligi vazirlar qo'mitasidan alohida oltin qazib oluvchilar va oltin qazib oluvchi birlashmalarga ma'lum yillar davomida ozmi-ko'pmi ahamiyatli bo'lmagan hududlarda geologiya qidiruv ishlarini olib borish uchun mutlaq huquq berish uchun ruxsat oladi. Masalan, 1898-yil 13-mart N52731-son qaror asosida Gryaznov kompaniyasi Tobolsk, Berezovskiy tumanida 3 ta muhim daryo havzasida 6 latga oltin qazib olishga ruxsat oladi [3. B.198].

Buxoroning oltinga boy hududlariga to'xtaladigan bo'lsak, juda katta boyliklar borligi va izlanishlar olib borish kerakligini ko'rsatadi. Buxoroning Baljuvon

bekligida rus fuqarolari tomonidan oltinni ekspluatatsiya qilish 1895-yildan boshlangan va e'tiborga loyiq natijalar bermagan. Buning asosiy sababi, masala bilan yaqindan tanish bo'lgan barcha kishilarning fikriga ko'ra, tuproq yuzasining chuqurlashishida tuproq eng ko'p metallga boy bo'lib, ustki oltin saqllovchi qatlamlar qadimdan mahalliy aholi tomonidan hunarmandchilikda ishlab chiqilgan, pastki qatlamlari esa, teginilmagan va boy, keyin ularni ekspluatatsiya qilish faqat yer osti suvlarini drenaj kanallari yoki nasoslar orqali yoki oltin moddasini ommaviy yuvishdan iborat bo'lgan qimmat tayyorgarlik ishlari yordamida olish mumkin. Aytilganlar hisobga olinsa, yer osti suvlari bilan ishlashning yuqoridagi usullaridan biri – yer osti yoki yer usti kanallarini qazish, nasos, drenajlar tayyorlash; yoqilg'i imkoniyati cheklangan hududda yagona harakatga keltiruvchi kuch bu elektr energiyasidir. Katta quvvatga ega gidrotexnik inshootlarni talab qiladi. Bunday ish kichik tadbirkorning kuchi bilan amalga oshmaydi, buning uchun katta xarajat talab qiladi [10, B.199.].

Bu murakkab biznesga birinchi bo'lib o'z kapitalini kiritgan odamlarning mehnatidan dastlab ma'lum vaqt foyda olishi qiyin. Shubhasiz, bunday katta xarajatlarni faqat dastlabki, ko'pincha xavfli ishlar uchun yetarli miqdorda yer maydoni ajratilgan taqdirdagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda bu qidiruv ishlarini bir joydan ikkinchi joyga erkin o'tkazish uni muvaffaqiyatli qoplash imkonini beradi. 12 yil muddatga Buxoro hududida xususan a)Yax-Suv,Saripul shahri tepa qismi; b)Baxiya daryosi va Obi-Kulimbaning irmoqlarida izlanish olib borish ruxsati beriladi [10, B.199.].

Qarorda shuningdek, rus konsessioneri tomonidan qazib olingan barcha oltinlar Buxoroga topshirilishi kerakligi, buning uchun Sankt-Peterburg fond birjasida mavjud bo'lgan kundagi kurs bo'yicha kredit qog'ozlari bilan to'lashi kerakligi ko'rsatilgan. Chor hukumat tomonidan ma'qullangan bu farmonlar Buxoro amirligi uchun Buxoroning oltin konli yerlariga imtiyozlar berishda bosh tamoyil bo'lib xizmat qildi. Xarakterli jihati shuki, farmonlar Buxoro amiri tomonidan emas, balki Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi vakili tomonidan chiqarilgan, garchi bu farmonlar Buxoro amirligida oltin qazib olish masalalariga tegishli bo'lsada. Bundan ko'rinadiki, Buxoro amiri o'z mamlakatining tabiiy boyliklarini tasarruf etish huquqidan rasman mahrum etilganini ko'rsatadi. Bu esa rus chorizmining Buxoroga nisbatan mustamlakachilik siyosatining bir ko'rinishi ekanligini isbotlaydi.

Tog'-kon ishlariga rus mutaxassislarining jalb qilinishi ikki tomonlama manfaatga ega bo'lgan. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi mintaqasidagi iqtisodiy va siyosiy ta'sirini kengaytirishga intilgan, ikkinchi tomondan esa, Buxoro amirligi tog'-kon sanoatini rivojlantirish orqali o'z iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilgan. Buxoro amiri rus texnikalari va mutaxassislarini jalb qilish orqali

tog'-kon sanoatini tashkil qilishga harakat qildi. Bu jarayon Buxoro amirligining iqtisodiy mustaqilligini oshirish uchun qilingan qadamlar qatoriga kiradi. Rus mutaxassislarining Buxoroga kelishi konchilikda yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarishni samarali yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydi. Tog'-kon ishlarida ishtirok etgan rus mutaxassislari haqida aniq individual shaxslarning ismlari tarixiy manbalarda kam uchraydi. Biroq, XIX asr oxiri- XX asr boshida Rossiya imperiyasidan yuborilgan yuborilgan qator olimlar, muhandislar, geologlar o'lka hududida bir qancha izlanishlar olib boradi. Jumladan, Oltin konlarida ish olib borish uchun quyidagi shaxslar: baron Trofim Aleksandrovich Raush-fon-Trautenberg Darvoz, Ko'lob, Balijuvon bekliliklarida,[3, B.1] knyaz Anatoliy Aleksandrovich Kurakin Darvoz, Ko'lob, Balijuvon bekliliklarida [3, B.15], maslahatchi Aleksey Vladimirovich Yevreinov Darvoz, Ko'lob, Balijuvon bekliliklarida [3.B.9] ish olib borish uchun ruxsat so'raydi. Bundan tashqari, muhandis Sergey Pavlovich Maksimov Sherobod bekligida Shikirlik-Ostana manbasidan neft qazib olish uchun ijozat so'raydi va bu Tog'-sanoati Nizomining 285-moddasiga asosan 30 rubl to'lashini ta'kidlaydi[4, B.1]. Muhandis, mexanik Isaak Moisevich Podurovskiy toshko'mir qazib olishni Suluktada (Turkiston tizimasining shimoliy etaklarida, 9 km Tojikistonda, 38 km Qirg'izistonda joylashgan, hozirda Qirg'izistonning Botken viloyati) boshlash uchun ruxsat so'ragan[5. B.25]. Geologiya qo'mitasi davlat maslahatchisi Andrey Dmitrevich Arxangelskiy Buxoroda neft va oltingugurtni tekshirdi [5, B. 36]. G.Popovga 3 ta beklilikda tosh tuzi(asosan natriy xloriddan tashkil topgan cho'kindi mineral) ni qidirish va o'rganish huquqi berilib, faqat ikki yil muddatga ijaraga beriladi[6, B.43].

Haqiqatda protektorat davrida ko'plab rus tadbirkorlari Buxoroning yer osti boyliklarini o'zlashtirish uchun Buxoro hukumatidan konsessiya hujjatlari olgan. Birgina 1896-1917-yillarda Buxoro amiri tomonidan ruslarga oltin qazib olish uchun 36 ta konsessiya hujjati berilgan. Oltin qazib olishga imtiyoz hujjatini olgan rus tadbirkorlaridan muhandis Juravko-Pokorskiy Sharqiy Buxorodagi Oqsuv va uning irmog'i Safed daryo vodiylaridan ishni boshlaydi.

Oltin qazib olish bilan G.Sirass 1901-1909-yillarda Darvoza va Balijuvon bekliliklarida shug'ullangan. Shuningdek, oltin qazib olish bilan rus generali Pokotilo ham shug'ullangan. Chor hukumatidan ruxsatnoma olgan Pokotilo 10 yil davomida yersiz dehqonlardan tashkil topgan ishchilardan foydalangan va 32 pud oltinni Buxoro hukumatiga topshirgan. Bu soha bilan N.N.Lev ashev va Moisenkolar ham Darvoza bekligida oltin qazib olish bilan shug'ullangan.

Yana bir arxiv hujjatida keltirilishicha, Aleksandr Timofeyevich Talalayev Qurg'ontepa bekligida neft va neft mahsulotlarini ishlab chiqish huquqini olish bo'yicha murojaat qiladi. Murojaat qabul qiluvchi esa shunday o'z fikrini bildiradi:

“Men uchun notanish ekanligi, u tanlagan hududda neft borligini tasdiqlovchi hech qanday puxta o’rganishlar o’tkazilmaganini hisobga olib, hozircha ushbu arizani qushbegiga bildirish bilan cheklanaman” [7, B.8].

Buxoro siyosiy agentligi rahbari Millerning ruxsati bilan nemis geologi Kraftning Buxoroda oltin qazib olish haqidagi maqolasi tarjima etiladi va nashr etiladi, ya’ni “Zeitschrift fur praktische geologie” jurnalida chop etiladi [8, B.35].

Chegarachilar kapitanining rafiqasi Aleksandra Nilovna Bogushevskaya Darvoz bekligining Shikaysk amlokдорligida mis rudasi, toshko’mir borligini, Lodjir bekligida asbest (tog’ zig’iri) topilganligi haqida ariza bilan murojaat qiladi va bu tog’ jinslarini o’rganishni boshlaydi. U ikki yil davomida Darvoz bekligida Hazrat-i-Sha tog’ida mis rudasini o’zlashtirib, uni eritmoqchi bo’lgan. 1896-yil “Oltin qazib olish to’g’risida”gi qarorning 19-bandida belgilangan mas’uliyatni o’z zimmasiga olgan holda 30 rubl to’laydi. O’rganmoqchi bo’lgan maydon hududi 4² verst bo’lishi kerakligi ta’kidlangan [9, B.1]. Lodjir tog’idagi asbest uchun Buxoro hukumatiga 2 marotaba 5 tiyin, Hazrat-i-sha tog’idagi tosh tuzi uchun yiliga ajratilgan maydonning 1/10 qismi uchun 2 rubldan to’laydi [9, B.5].

Nikolay Nikolayevich Levashev 1896-yil 24-fevral oltin konlarini o’zlashtirish to’g’risidagi qarorning 5-6-bandlaridaga asosan 30 rubl to’lagan holda Darvoz, Garm bekliliklarida oltin qazishga ruxsat berish bo’yicha iltimos bilan murojaat qiladi. Ushbu ruxsatnomani rafiqasiga Olga Sergeyevna Levashevaga topshirishni so’raydi [10, B.106].

1901-yilning aprel oyida N.N.Levashev Nikolay Kuznetsov, zahiradagi oddiy askar Yakov Gorelov, rus askari Ismoil Buriulin hamrohligidagi guruh bilan oltin qidirish uchun Patta-Hisor, Saroy, Ko’lob orqali Chorjo’yni tark etadi. Ko’lob va Balijuvon bekliliklaridan alohida yordam ko’rsatilishi haqida yozma murojaat qilgan [10, B.40].

1902-yil iyun oyida N.N.Nikolayev 9 kishi hamrohligida va Marsh Shtayger rafiqasi bilan birgalikda oltin konlarini o’zlashtirish uchun Baljuvon, Ko’lobga jo’nab ketadi. Ular Patta-Hisor orqali Balijuvon va Ko’lobga keladi. Buxoro qushbegisiga Levashev va uning hamrohlariga yo’lda ham, yetib kelganda ham yordam ko’rsatish to’g’risida mahalliy hokimiyatlarga buyruq bilan Siyosiy agentlikka ochiq xat yuborishini so’raydi. Shuningdek, Balijuvon va Ko’lobda oziq-ovqat sotib olishda, binolarni va ishchilarni yollash, transport vositalarini yetkazib berishini ham so’raydi [10, B.284].

N.N.Moisenko ham Oltin konlarini o’zlashtirish to’g’risidagi qarorga asosan 2 yilga Buxoro siyosiy agentligidan ruxsat oladi, ya’ni Darvoza va Garm bekliliklarida kon ishlarini olib borish bo’yicha murojaat qiladi [10, B.113].

Ma’lumotlardan aniqlanishicha, oltin qazib olish bo’yicha eng ko’p ma’lumotlar Sharqiy Buxoroga tegishli bo’lib, ya’ni Ko’lob, Baljuvon bekliliklari,

Darvoz, Qorategin hududlari hisoblanadi. Mahalliy aholi Yaxsuv (Safeddaryo), Shug'nov, Talbar, Ravnov daryosi va uning irmoqlari bo'yida, Sangvor qishlog'i yaqinidagi Xingu daryosi bo'yida, Sitakda oltin qazib olgan. Darvozda esa Arzing daryosi vodiysida, Vancha va Yazgulem daryolarining yuqori oqimida olib borilgan. Qorateginda Sarimsali trakti ayniqsa oltinga boy bo'lib, u yerda og'irligi 400 grammdan ortiq bo'lgan nuggetlar topilgan.

Shuningdek, oltin Vaxsh daryosining turli qismlarida, masalan, Tutkaul qishlog'i, Qo'rg'ontepa hududi, Vaxshning yuqori oqimi (qaysiki Surhob deb nomlanadi)da ham olingan, Bundan tashqari, Nurek, Langar, Sangtuda, Lag'mon, Jiliko'l yaqinidan ham oltin olingan. Bu joylarning barchasida oltin qazib olish buloq suvlari to'xtagandan so'ng, konchilarning fikriga ko'ra, tog'lardan olib kelingan oltin bilan yangilanganda amalga oshirilgan.

Mahalliy aholining aytishicha, Hisor daryosidan ham oltin olingan. Zarafshon daryosining hamma joyida ham oltin qazish ishlari amalga oshirilmaganini, faqat Zarafshon daryosi muzligidan tahminan 15 km pastda joylashgan Hazrat-Xo'ja Muso Ali mozoridan boshlanganini aniqlash mumkin.

Bu mutaxassislar o'z tadqiqotlari va tavsiyalari orqali Buxoro amirligida tog'-kon sanoatining asoslarini yaratishga xizmat qilgan bo'lsa, Rossiya uchun mintaqadagi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratdi. Barcha huquqiy masalalar, jumladan, sanoatchilar va Buxoro hukumati o'rtasidagi tortishuvlar, kelishmovchiliklar va nizoli masalalar maxsus sudlar (treteyskiy sud) tomonidan ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan (Nizomning 39-bandi). Ushbu sud a'zolarining biri Buxoro hukumati vakili, biri oltin ishlab chiqaruvchi sanoatchi vakili bo'lib, ular Siyosiy agentlik tomonidan tayinlangan rais boshchiligida ishni ko'rib chiqishlari lozim bo'lgan. Mana shu tariqa Buxoro amirligi hududi ruslar tomonidan egallanib, u tobe davlatga aylantirilib, barcha siyosiy huquqlardan mahrum qilib qo'yilgandan so'ng, rus hukumati amirlikni iqtisodiy qaramga aylantirish siyosatini amalga oshira borib, uzoq yillar davomida orzu qilib kelgan oltinga ega bo'lishdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, amirlikda rus mutaxassislarining jalb qilinishi Buxoroda yangi konlarni ochish, tog'-kon sanoatini qayta tashkil qilish, qazib olish jarayonlarini samarali boshqarishda sezilarli yutuqlarga olib keldi. Jumladan, Buxoro amirligi tomonidan Rossiyaga topshirilgan konchilik hisobotlari va tadqiqotlar asosida konchilik faoliyati uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, texnika va bilimlar olib kelindi. Natijada, ba'zi hududlarda qazib olish ishlari yo'lga qo'yildi va bu amirlik iqtisodiyoti uchun yangi daromad manbai bo'ldi. Shuningdek, oltin qazib olish sanoati XX asr boshlarida ancha muvaffaqiyatli

darajada rivojlanganini ko'rsatadi. "Buxoroda oltin qazib olish tog'risida"gi Nizomga asosan rus tadqiqotchilarining imkoniyatlari oshdi va o'lka hududiga tashrif buyurib, tog'-kon va geologik ishlarning borishida soha mutaxassislarining jalb qilinishi keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Garchi ko'plab natijalarga erishilgan bo'lsada, tog'-kon sanoatidagi hamkorlik siyosiy jihatdan amirlikni Rossiyaga bog'lash mexanizmlaridan biriga aylangan. Umuman olganda, iqtisodiy salohiyat oshishi, siyosiy mustaqilikka zarar yetkazgan. Mazkur tadqiqot jarayonida manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, Buxoro amirligi hududi geologik jihatdan yer osti va yer usti mineral boyliklariga, rudalariga boy ekanligi ma'lum qiladi. Manbalar tahlili asosida geografik jihatdan joylashuvi amirlikning rudalarga sarmahsul ekanligini tasdiqlaydi. Ya'ni, Buxoro amirligining markaziy, sharqiy va janubiy nuqtalari ayniqsa ma'danlarga boy ekanligi ta'kidlanadi. Buxoro amirligining markaziy qismi sug'orish tizimi bilan ajralib turishi mintaqani mineral boyliklarga boyitadi. Markaziy Buxoroning orografik va gidrografik joylashuvi, loyqa suvlar bilan to'yinganligi amirlik hududini mineral rudalar ko'p bo'lishiga ta'sir etadi. Shuningdek, turli-tuman ma'danlar taqsimoti bo'yicha Sharqiy Buxoro ustuvorlik qiladi. Boysun, Denov, Qo'bodiyon, Qo'rg'ontepa, Ko'lob, Balijuvon, Hisor, Sarijo'y, Sherobod bekliklari Sharqiy Buxoroda joylashgan bo'lib, bu hududlar ayniqsa kon ma'danlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birgalikda Buxoroning janubiy qismi tabiiy boyliklari ko'p ekanligi rus tadqiqotchilari, sarmoyadorlarining temiryo'l qurishga undaganida seziladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulazim Sami. Tarixi salatini mangitiya. / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М. Епифановой. Москва:Изд-во восточной литературы, 1962.-С.182.
2. Muhammad Ali Balijuvoniy. Tarixi nofeiy.Т.: "Академия",2001.124-б.
3. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое./форс-тожикчадан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси.Т.: "Фан",1964.-100б.
4. Тухтаметов Т.Г. Россия и Бухарийский эмират в начале XX века.Душанбе:Ирфон,1977.-с.124
5. Логофет Д,И. Страна бесправия.Спб.1909.-с.-239.
6. О'з МА А.І-41,1-ro'yxat,431-ish,25-varaq;36-varaq
7. О'з МА.І-41,1-ro'yxat,473-ish,43-varaq
8. О'з МА.І-1,13-ro'yxat,352-ish, 8-varaq
9. О'з МА.І-41,1-ro'yxat,87-ish,35-varaq
10. О'з МА.І-41,1-ro'yxat,336-ish,1-varaq;5-6-varaq
11. О'з МА.І-3,1-ro'yxat,219-ish,106-varaq;40-varaq;284-varaq;113-varaq.

Abduraimova M. B.

basic doctoral student

Navoi State university

abduraimovamanzura@yandex.com

MINING INDUSTRY IN BUKHARA EMIRATE: FROM ECONOMIC DEPENDENCE TO POLITICAL DEPENDENCE

ABSTRACT

This article provides information on mining operations in the Bukhara Emirate, the involvement of Russian mining experts, and country-wide research and development. Also, the results of Russian experts on the progress of mining works in the emirate were cited. At the same time, it was described that the complications and consequences of gold prospecting in this area caused political dependence.

Key words: gold industry, new Regulation, modern technologies, prospecting and intelligence work, political dependence.

Абдураимова М. Б.

Базовый докторант

Навоийский государственный университет

abduraimovamanzura@yandex.com

ГОРНАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ОТ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗАВИСИМОСТИ К ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье дана информация о горнодобывающих работах в Бухарском эмирате, привлечении российских специалистов по горному делу, а также о научно-исследовательских работах по всей стране. Также были приведены результаты российских специалистов о ходе горнодобывающих работ в эмирате. В то же время было описано, что осложнения и последствия золотодобычи в этой области вызывали политическую зависимость.

Ключевые слова: золотодобывающая промышленность, новое Положение, современные технологии, поисково-разведывательная работа, политическая зависимость.

Abduraxmonova K. R.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedra o'qituvchisi
O'zbekiston Milliy universitet
abduraxmonova_k@nuu.uz

TABOBAT TARIXI VA DAVOLASH USULLARINING O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tabobat tarixining davriy bosqichlari, xorijiy tadqiqotlar, diniy-mistik va ilmiy materialistik nazariya tahlil qilingan. Shuningdek, xalq madaniyatining o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblangan davolash an'analari moddiy va yozma manbalar, etnografik dala tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tabobat, tabib, davolash, empirik bilimlar, etimologiya, mistik nazariya, epidemiya.

KIRISH

Ilm-fan taraqqiy etgan hozirgi davrimizda tibbiyot rivoji ham tezlashib ketdi. Uzoq tarixga ega tabobat ilmi avloddan-avlodga o'tib, sayqallanib, jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, bizgacha yetib keldi. "Tabobat" aholi kundalik hayotida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jamiyatning barcha toifalariga tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat. Tabobat so'zining asosi arabcha "*tabba*" so'zi bo'lib, u "*davolash*", "*salomatlikni asrash*" va "*dori-darmon bilan bog'liq amaliyot*" ma'nolarini bildirib, tabobat shaklida qo'llaniladi [1. B. 14.]. Aynan shu o'zakdan tibbun-tib "*davo*", tibbatun-tabobat "*davolash*" so'zlari kelib chiqqan. Tabobat bashariyat madaniyatining muhim bo'lagi jamiyat rivoji bilan yonma-yon taraqqiy etadi [2. B. 76.] hamda jamiyatning sog'liqni saqlashga oid tajribalari asosida bilim, malaka va ko'nikmaning hosil bo'lishida ishtirok etadi [3. B. 5.]. Insonlar o'zini, tabiatni, hayvonot olamini, o'simliklar dunyosini tadqiq qilishi natijasida empirik bilimlar shakllandi, keyinchalik esa mana shu bilimlar jamiyat qo'lida to'plana boshladi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tabobatning vujudga kelishida kishilarning ehtiyojlari, kundalik mashg'ulotlari natijasida erishgan bilimlari muhim hisoblanadi. Tibbiyot otasi Gippokrat tibbiyot va salomatlik psixologiyasini nazariy jihatdan yoritgan va kasallik etiologiyasi (kasallik sababi), uni diagnostikasi (aniqlash) masalalarini, davolash tizimini ishlab

chiqqan bo'lsa, Ibn Sino nazariy va amaliyni uyg'un holatda olib borgan buyuk alloma va tabib [4] hisoblanadi.

Tabobat tarixi tarixiy jihatdan quyidagi davrlarga bo'linadi: ibtidoiy davr tibbiyot tarixi (miloddan avvalgi II ming yillikdan IV asrlar); qadimgi davr tibbiyot tarixi (eramizdan avvalgi IV-V asrlar); o'rta asrlardagi tibbiyot tarixi (miloddan avvalgi V- XV asrlar); yangi davr tibbiyot tarixi (milodiy XVI-XIX asrlar); hozirgi davr tibbiyot tarixi (XX-XXI asr) [5. B. 315.].

Tabobat tarixiga oid asarlar o'rta asrlarda Sharq mamlakatlarda Abu Xusan al-Bayxaqiy, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abi Usaybia, Abu Bakr Ibn al-Xalikon, Abu Ali ibn Sino, Sharafuddin Iloqiy, Ismoil Jurjoniy kabi olim va tabiblar tomonidan yaratilgan. Tabobat tarixiga oid manbalarga ko'ra, Qadimgi Misr tabobatining davolash tarixi 1) tarixchilar (Manefon, Gerodot), antik davr yozuvchilar asarlari (Diodorus, Polibiyus, Strabon, Plutarx); 2) arxeologik tadqiqotlar; 3) Misr mumiyolarini o'rganish (kompyuter tomografiyasi usulidan foydalangan holda); 4) yozuvlar, tasvirlar (qabrlar, piramidalar, sarkofaglar); 5) papirus varoqlarining matnlari bosqichlariga bo'linadi. Qadimgi Xitoy tabobati tarixi bo'lsa eng qadimgi tibbiy matnlar, "Xuan-diney-Szin" ("sariq imperatorning tabobat haqidagi risolasi") yoki "Nep Szin" (miloddan avvalgi V–I asrlar)da ifodalangan.

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan M.A. Barg [6. B. 52.], P.M. Bitsilli, M. Blok, C. Bolingbrok, B.A. Gubman [7. B. 132.], A.Y. Gurevich, I.G. Droyzen, I. D. Kovalchenko [8. B. 42.], A. Dj. Toynbi, L. Fevr, E. Frimen [9. B. 65.], A.D. Ksenopol, K. Yaspers va boshqalarning [10] asarlarida Tabobat tarixi fan sifatida rivojlanishi shartli ravishda uchta davrga ajratilgan [11. B. 13.]. Birinchi davr tabobatga oid ma'lumotlarni yig'ish hamda to'plash bo'lib, bu eng davomli davr hisoblanadi. Mazkur jarayon Gippokrat davridan boshlanib hozirgi vaqtgacha yakunlanmagan. Asosiy maqsad shifokorlik bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va barcha iqtisodiy yo'nalishlarda keng ma'noda tibbiy yordamni ko'rsatish bilan bog'liq edi. Ikkinchi davr to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish bo'lsa, uchinchi davr tabobat ilmini amalda qo'llanilishidir. Shuningdek, antropolog E. Frimen asariga tayangan holda biz tabobat tizimini tarixiy voqea va hodisalarga baho berish va ularni tahlil qilish natijasida o'rganish mumkin. Sog'liqni saqlash tizimi tarixini tadqiq etishda matematika va miqdoriy usullardan foydalanib o'rganish, ya'ni sohaga ajratilgan mablag', davolash o'rinlari va tibbiy kadrlar sonining turli hududlarga nisbatan ko'p yoki kamligini aniqlash I.D. Kovalchenkoning ilmiy asarlarida keng tahlil qilingan. Fransuz tadqiqotchisi Melaniya Lepinskining "Ayol tibbiyot hodimlari tarixi" mavzusidagi dissertatsiyasida butun dunyodagi tabobatda ayollarning o'rnini ko'rsatib bergan. Amerikalik antropolog Klayton J. Roberts tibbiy amaliyotda sog'liqni saqlash, davolash texnologiyalari va nizolarni hal

qilishning madaniy jihatlarini o'rgangan. Artur Kleyzman kasallik, davolash va psixoterapiyaning madaniy jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Tabobatning paydo bo'lishi xususida etnolog, folklor, tarixchi olimlarning ilmiy izlanishlar, tadqiqotlari asosida ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchisi: diniy-mistik nazariya; Ikkinchisi: ilmiy materialistik nazariya. *Diniy-mistik nazariya* tarafdorlari tabobatning paydo bo'lishini ilk ibtidoiy dinlarning vujudga kelishi bilan bog'laydilar. Diniy-mistik qarash vakillari tabobat ibodatxonada paydo bo'lganligi tufayli tabiblik bilan faqat koinlar shug'ullangan, degan g'oyani ilgari suradi [12. B. 25.]. Shomonlar, koinlar va ibodatxona hodimlari aholi salomatligini saqlash, kasallikni oldini olish bilan mashg'ul bo'lgan deb ta'kidlaydilar [13. B. 22.]. Ibodatxona koinlari diniy marosimlarni bajarish bilan bir qatorda, kasalliklarni ham davolashgan. Mazkur qarash empirik tabobat va tibbiyot sohalarida mistik tabobat belgilari saqlanib qolgan [14. B. 40.] degan qarashni yuzaga keltirgan. Tabobat hududdagi diniy qarashlar bilan aralash holatda vujudga kelgan. Misol uchun, Hind, Tibet tabobati buddaviylik diniga, Xitoy tabobati esa Dao va konfutsiy falsafiy qarashlariga tayanadi [15. B. 226.]. Ibtidoiy madaniyat tadqiqotchilari hisoblanmish L. Morgan, E. Taylor, R. Soletski tadqiqotlarida xalq tabobatining shakllanishini Yer yuzida insoniyatning paydo bo'lishiga borib taqalishiga urg'u beriladi. Ilmiy materialistik nazariya tarafdorlari tabobat insonlarning amaliy faoliyati va hayotiy zarurati natijasida paydo bo'lganini izohlaydi. Tibbiyot qachon paydo bo'lganini aniqlash, isbotlash qiyin vazifa hisoblansada, diniy-mistik nazariya tarafdorlari tibbiyotni paydo bo'lishiga urg'u berishadi. Fan doktori Jumanazarov Xurshid Sirojiddinovichning tadqiqotlarida tabobatga ta'sir qiluvchi omillar, tarkibiy tuzilish va ish uslubidagi farqli tomonlaridan kelib chiqib, tabobat an'alarini ikki guruhga bo'lganini ko'ramiz. Unga ko'ra tabobat ikkiga: mistik tabobat hamda empirik tabobatga bo'linadi [16. B. 562.]. Mistik tabobatning funksiyasi insonlarning diniy qarashlari asosida shakllangan bo'lsa, empirik tabobat esa atrof-muhitni kuzatish hamda davomiy tabiat bilan munosabatga kirishish natijasida paydo bo'lgan deyish mumkin. Ko'plab afsona va dinlarda odamning vujudga kelishi, salomatligi va u bilan bog'liq azob-uqubatlari, kasallik va o'lim xususida ma'lumotlar keltirilgan. Arxeologik va tarixiy manbalarni o'rganish natijasida odamzod ibtidoiy davrda tabobatdan xabardor bo'lganligini, tabobatda silash, uqalash, sovuq kompres va bug'li hammom foydalanilgani keltiriladi. Ibtidoiy kishilar tabiiy davolash vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, maxsus tayyorlangan tarkibiy qaynatma, surtiladigan, kukun va suyultirilgan dorilardan ham keng foydalangan [17. B. 112.]. Tarix fanlari doktori (DSc) G.E. Muminovning [18. B. 5.] tadqiqotlarida kasallikni davolash diagnostika texnologiyalari, davolashda yangi texnologiyalarni tatbiq etish, ichki kasalliklar patologiyasi, reproduktiv salomatlik,

yangi vaksina tatbig'i, umr ko'rish yoshini uzaytirish, texnologiyalaridan unumli foydalanish tizimini shakllantirish, sanitariya masalalari xususida fikr-mulohazalarni ko'rishimiz mumkin.

Tibbiyot tizimida kechgan jarayonlarni ijtimoiy yondashuv tamoyillariga amal qilgan holda bayon etishda ijtimoiy tabaqalar manfaati masalasiga ham e'tibor qaratish lozim.

Ibtidoiy jamiyat davrida eng qadimgi odamlar asosan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi turmush tarzida yashagan. Asosiy mashg'uloti termachilik, ovchilik, baliq ovlash tashkil qilgan. Bir-birlariga g'amxo'rlik qilish, g'orlarda yashab olovni kashf qilish, gigiyena qoidalariga rioya qilish boshlangan. Evolyutsiya jarayoni davomida odamlarda ijtimoiy belgilar–mehnat faoliyati, fikrlash, til, ijtimoiy munosabatlar paydo bo'ldi. Turli xil qurollarning paydo bo'lishi natijasida jarohatlar soni ko'paydi, o'lim ko'rsatkichi oshib bordi. Agar g'or devorlaridagi sur'atlarga e'tibor berilsa, unda ovchilik va turli xil harbiy janglar odamlarga jarohatlar yetkazgani ko'rinib turibdi. Mazkur manbalardan birinchi tibbiy yordamning ibtidoiy usullarini bilish mumkin. Sivilizatsiya va davlat shakllanishidan avval (matriarxat davrida) ayollar uyni qo'riqchilari hisoblanib birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, o'simliklarni yig'ish, o'simliklarning zaharli va dorivor xususiyatlarini o'rgangan. Qaysi o'simliklarni dorivor sifatida foydalanish mumkinligi, qaysi biri zaharli ekanligi haqidagi bilimlar avloddan-avlodga o'tib bordi. Tibbiyotning kelib chiqishi jarayonini o'rganish shuni ko'rsatdiki, “birinchi tabib” avvalo organizmning o'zi bo'lib, organizmning o'zi birinchi bo'lib kasallikka qarshi kurashadi. Agar organizmga tashqaridan biror o'tkir buyum bilan kesib olsa, uning atrofida qon tanachalari to'planib, tig'dan o'tgan mikroblarni yo'q qila boshlaydi. Buning natijasida organizm bu mikroblardan xalos bo'ladi. Organizmning kasalliklarga qarshi kurashining bu xususiyati haqida Abu Ali ibn Sino “Inson tanasi hamma vaqt kasallikdan forig' bo'lishga intiladi”, deb yozgan edi. Gippokrat esa “Tabiat davolaydi, tabib unga yordam beradi” — degan edi. Gippokrat “tabiat” deganda organizmning o'z tabiatini, uning kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatini ko'zda tutgan edi. Natijada har xil muolaja usullarini izlab topish va ularni qo'llash zaruriyati kelib chiqqan.

Avestoning “Vendidat” qismida shunday ma'lumotlar keltiriladi: “birinchi bo'lib Trita ismli zot tabiblik bilan shug'ullangan va u odamlarni kasallik va o'limdan saqlagan. Tritaga Axuramazda kasallarni davolash uchun samodan 10 ming turdagi dori yuborgan. Trita shuningdek, Xaoma deb ataluvchi mast qiluvchi ichimlikni kashf etgan, Xaoma esa hayot va salomatlik manbai deb atalgan. Kitobda Trayeton ismli tabib haqida ham ma'lumot keltirilgan va islomgacha uni tabiblik “ilohi” deb atagan”.

Mesopotamiyani davolash tarixi arxeologik tadqiqotlar, gil lavhalar, tosh, metalga mixxat yozuvi bilan yozilgan matnlar, shifokorlarning muhrlari, qonunlar to'plamlari, farmakopeya, mifologiya, Gerodot, Strabon, Flavius va boshqalarning asarlarida keltirilgan ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Mesopotamiyadagi tibbiy bilimlar og'zaki ravishda yetkazilgan, keyinchalik mixxat yozuvlarida shifokorlar uchun qo'llanma sifatida qayd etilgan. Sog'liqni saqlash insonni himoya qilgan xudolar yoki ruhlarning homiyligi natijasi deb hisoblangan. Shumner tabiblari tug'ilish ma'budasi Nintu va vabo, urush xudosi Erraga sig'inishgan. Epidemiyalar haqidagi eng qadimgi adabiy dalillar Shumner-Akkad mifologiyasida keltirilgan. Ashurbanapal qo'lyozmalar omborida 40 ta plakatdan iborat sehlr va marosimlar to'plami topilgan. Insoniyat tarixidagi eng qadimgi farmakopeya (1889) Shumner Nippur (Bag'dod yaqinida) arxeologik qazishmalari natijasida topilgan. 15 ta retsept mavjud bo'lgan Shumner tabibining mixxat yozuvidagi matn Shumner tilida miloddan avvalgi III ming yillikning oxirida yozilgan. Shumner shifokorlari o'simlik (archa, qarag'ay, olxo'ri, nok, anjir) va mineral kelib chiqishi (neft, tabiiy asfalt qatroni), hayvonot dunyosi mahsulotlari (sut, toshbaqa qobig'i, jun)dan foydalanganlar. Kasallik fasllar, iqlim, qolib ketgan oziq-ovqat, ichishga yaroqsiz suv kabi nisbatlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Qadimgi Hindiston shifokorlarining inson tanasining tuzilishi haqidagi bilimlari qadimgi dunyoda eng to'liq deb hisoblanadi va anatomiya va jarrohlikning shakllanishida muhim bosqichga aylandi. "Ayurveda"da qadimgi hind tabiblar quyidagilarni ajratib ko'rsatishgan: 300 suyak, 107 bo'g'im, 500 mushak, 40 asosiy tomir, 24 asab, 9 sezgi organlari. Tabobat to'g'risidagi ma'lumotlar "Rig-Veda" va "Atxarvaveda"da ham saqlanib qolgan. "Rig-Veda"da: moxov, qon ketish, sehlrli shifo marosimlari haqida qiziqarli matnlar keltirilgan. "Ayur-Veda"da tabib Sushruta 700 xil dorivor giyohlarni tasvirlagani bayon qilingan. Hindiston har doim shifobaxsh o'tlar, tutatqilar bilan mashhur bo'lgan, qimmatbaho dorivor o'simliklar Himolaydan olib kelingan. Mushk, sandal daraxti, aloye import mahsulotga aylandi. Kasalliklarning oldini olish Hindistonni davolashning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Anor po'stlog'ining gijjalarga qarshi, kanakunjut moyining surgiga, dengiz piyozining yurakka foydali ekanligini bundan 1500 yil avval ham hindlar bilishgan. Bu mahsulotlar bugungi kunda ham kasallikni davolashda qo'llanilmoqda. Tibet tibbiyotida "Jud-Shi", "Shifobaxsh dori-darmonlarning mohiyati" kitobi manba bo'lib xizmat qiladi.

На сегодняшний день вопросы трансформации ковроделии каракалпаков не были предметом глубокого исследования среди ученых и не рассматривались как специальные темы в широком контексте. В результате этому уделялось очень мало внимания, и лишь в некоторых материалах в качестве сравнения упоминались небольшие детали, а также кратко описывалась орнаментация как произведение искусства. Так, в восьмой главе IV своего обобщающего труда «Искусство Средней Азии» исследователь Б.В. Веймарн, описывая и раскрывая обзор характерных черт изобразительного искусства всех народов Средней Азии, кроме каракалпаков, упоминает следующее: «Очень мало мы знаем о художественном творчестве каракалпаков. Собранные в наших музеях произведения каракалпакского искусства имеют некоторую общность с орнаментальным искусством других кочевых и полукочевых народов Средней Азии, но в то же время обладают своими интересными и специфическими чертами» [4, с.139-140].

Однако, исследователь Э.Гюль отмечает, что генетические близкие к узбекским племенным группам народов, среди которых и каракалпаки, и в их «традициях ковроткачество занимало важное место». И далее отмечает, что «ковры узбеков подчас близки к каракалпакским» [6, с.7].

Это естественный фактор, который приводит к затруднениям в определении различий некоторых форм орнаментального декора и их прочих атрибуции. Это не случайно, так как известно, что каракалпакские племена и их традиции были широко распространены в Средней Азии.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В фондах отдела этнографии Каракалпакского Государственного музея искусств им.И.В.Савицкого хранятся многочисленные виды ковровых изделия, собранные в различные годы этнографическими отрядами музея, а также переданными этнографическим отрядом Хорезмской археолого-этнографической экспедиции и лабораторией прикладного искусства Института истории, языка и литературы Каракалпакского филиала АН Узбекистана в 1968 году в количестве 3216 предметов (Акт №27 от 15.08.1968).

Среди них коврики *есик-кас*, для украшения верхней части двери юрты изнутри, небольшие постилочные коврики, многочисленные хозяйственные сумки – *каршины* (сумка для одежды), торбы *коржин*, тканые полосы: *ак баскур*, *ак кур*, *кызыл баскур*, *кызыл-кур*, *жамбау*, *дизбе* – служившие в первую очередь для внутреннего и внешнего крепления и декорации юрты.

Обзор ковровых изделий в фондах показал, что в целом каракалпакские ковры предназначались преимущественно для украшения юрт, и следует отметить, что исторически юрта считалась основным типом жилища народов Южного Приаралья.

Композиции каракалпакских ворсовых ковров можно условно разделить на две основные категории: сеточные и медальонные. Медальонные ковры имеют связь с туркменской традицией: как и у туркмен, каракалпакский медальон отличается характерной диагональной расцветкой и, вероятно, также выполнял функции племенного «герба». Однако в отличие от туркменских, каракалпакские медальоны упрощены в дизайне и превращены в абстрактные символы, что привело к утрате их племенных особенностей. Обычно в таких случаях можно предполагать, что процесс формирования новых элементов был завершен, и в композициях используются только лишь традиционные мотивы.

Основные элементы ковровых изделий, анализ декоративных элементов, географическое распределение, классификация по видам, художественное оформление и назначениям ранее неоднократно были подробно отмечены исследователями [8,с.361-389;6,с.109-110; 7,с. 78).

Однако среди них наиболее ярко выраженной и подробно классифицированной является работа А. Алламуратова [1], в которой наряду с другими произведениями декоративно-прикладного искусства, отражены ковровые изделия. Это исследование основано на многолетнем опыте ученого, который работал в составе Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, а также в лаборатории прикладного искусства Института истории, языка и литературы Каракалпакского филиала АН РУз и в фондах народно-прикладного искусства Каракалпакского Государственного музея искусств имени И.В. Савицкого.

Говоря об отождествлении орнаментальных медальонов различных форм, (восьмиугольников, ромбов, крестов), несмотря на значительное сходство с изделиями других народов, прежде всего узбеков и туркмен, они обладают весьма оригинальными декоративно-художественными особенностями. Это особенно проявляется в узорах «каршын-нагыс» и «шуйит нагыс», где зооморфизм выражается очень оригинально и в сочетании с цветовым

решением. Все это предопределяет этническую характеристику народов Южного Приаралья.

Практически известно, что в хозяйственной жизни кочевников Арало-Каспийского междуречья важное место по степени использования и распространения занимали войлочные изделия кошмы – *кийиз*.

С. М. Дудин отмечает выделение узорчатых кошмов киргизами и узбеками, среди которых он считает лучшими изделия, выполненные в орнаментальном стиле и яркости, производимые в западной части Восточного Туркестана (7, с. 78).

Среди многочисленного просмотренного нами произведений народно-прикладного искусства хранящихся в этнографических фондах Государственного музея истории и культуры Республики Каракалпакстан, в качестве образца для описания, нами выбраны имеющиеся два вида оригинальных декорированных кошмы (КП-4114, разм.100х8, акт № 19 от 17.09.1979 и КП-5032/1, разм.1,5х1, акт № 14 от 22.08.1983 г), валянные из шерсти с частичным использованием хлопчатых нитей. В качестве орнаментальных линии были использованы рогообразные завитки и волнообразные окаймляющие линии. В одном из которых рогообразные завитки выделены в трех центральных медальонах красными цветом. В цветовой гамме преобладают красные, желтые, зеленые цвета на белом и коричневом фонах.

Практически в каждом орнаменте, каракалпаки видели прекрасное начало, магическую, религиозные, мистические представления и веру в сверхъестественные силы (богов, духов) [4, с. 2-5]. Порою каждый род или племя несли свою, характерную для них символику в виде орнамента. Тем самым, сохраняя свои древнейшие корни, даже в современной интерпретации он несет уникальную информацию о многовековых традициях, является важнейшим источником по изучению этногенеза и этнической истории, отражает исторический опыт народа и его мировоззрение.

Не случайно мы заговорили об орнаментальном искусстве каракалпакского народа. В качестве видов оно отражается практически во всех видах и формах народного прикладного искусства как ткачество, резьба, хозяйственные принадлежности, в строительстве и убранстве жилища, и конечно же особое место занимает в ковроткачестве.

Ковры и ковровые изделия являются одной из важнейших частей каракалпакского искусства. Традиция их изготовления уходит своими корнями в глубину прошедших веков. Эта группа текстильной продукции также выполняла утилитарную, декоративную и, благодаря содержанию своих орнаментов, магико-охранительную роль. В 1940-1960 годы изучая

древнюю культуру местных скотоводческих племен учеными впервые была составлена сравнительная таблица орнаментов и видов не только украшений, но и проведено сравнение орнаментов женской национальной одежды и изделия из войлока и ковров [11, с.14].

Сравнительный анализ по выявлению идентичности растительных и геометрических мотивов настенных росписей Топрак-калы (I в. до н.э. – IV в. н.э.) с узорами каракалпакских кошм, отмечается учеными как символы повторения древних традиции в современное народное искусство каракалпаков.

Говоря о материале, общеизвестно, что хозяйстве у каракалпаков шерсть всегда была в изобилии, это было связано с ведением образа жизни. И поэтому в ковроткачестве шерсть использовалась как одна из преобладающих материалов в бытовых условиях. Ткались ворсовые, гладкотканые ковры и ковровые изделия для орнаментов, которых больше использовались шелковые нити. Кроме того, каракалпаки применяли смешанную технику плетения.

К числу гладкотканых ковров относятся паласы *алаша*, которые сшивались из заранее сотканных узких узорных панелей. При производстве последних использовался горизонтальный станок *ормек*.

Технология изготовления паласов очень древняя, сохранившаяся и поныне, но, в отличие от ковров, изготавливаемых мастерицами в прошлом, современные не отличаются разнообразием узоров. Чаще всего декор состоит из продольных полос зеленого, черного, красного, серого, синего, желтого и белого цветов.

В декоре гладкотканых ковровых изделий доминировали зооморфные и геометрические элементы. Часто встречались ромбы с рогообразными завитками (например, в *кызыл курах*), обычно двухцветной гаммы.

Ворсовые ковровые изделия, неперенные атрибуты убранства каракалпакской юрты, – это разнообразные емкости для домашнего скарба, занавеси и небольшие постилочные коврики – *Каришын*, *Коржын*, *керги*, *есик-кас*, *ак баскур*.

Характер декора каракалпакских ковров, где доминируют медальоны-*гели* с диагональной расцветкой, свидетельствует о связи каракалпакского ковроделия с огузско-туркменской традицией.

Расцветка ковровых изделий строится на чередовании одинаковых по цвету элементов. Если они выстраиваются по прямой линии, композиция приобретает более статичный вид, расположение этих же деталей по диагонали придает орнаментальному строю ковра известную динамичность. Доминирующим цветом является красный (бордовый), который, впрочем,

является преобладающим и у других народов Средней Азии. Этот цвет, очевидно, имел характер оберега, поскольку соотносился с цветом огня.

Среди коврового изделия каракалпаков широко популярны и кошмы. Войлоковаляние, как вид домашнего рукоделия, имеет давние традиции и широкое распространение у скотоводческих народов. У каракалпаков орнаментированные войлочные изделия также являлись незаменимой частью быта. Трудно представить себе убранство юрты – казахской, кыргызской, туркменской, узбекской или каракалпакской – без этой группы изделий. Войлочные *кошмы* без узора в Каракалпакстане получили название *кийиз*, с узором – *текемет* (так же, как и у казахов).

Мотивы *текеметов*, как правило, отличаются своей архаичностью. Среди них: завитки в виде волн, вихревые розетки, иные солярные знаки, многолепестковые розетки. С.П. Толстов выявил в свое время идентичность растительных и геометрических мотивов настенных росписей Топрак-калы (I в. до н.э. – IV в. н.э.) с узорами каракалпакских *кошим*.

Каракалпакские войлочные кошмы без узора называются «кийиз»; узорные, как и у казахов – «текимет»; кроме кошем, служащих подстилкой, делаются так же войлочные потники для лошадей — «терлик». Техника орнаментации кошем — «вваливание узора»; ни войлочная инкрустация, ни аппликация, столь характерные для казахского прикладного искусства, у каракалпаков не распространены.

Технические приемы валянья узорных кошем описаны во многих работах, и мы на них останавливаться не будем. Отметим лишь некоторые особенности каракалпакских *текиметов*, отличающие их от казахских и сближающие с туркменскими.

Главная из них — орнамент каймы: как на *текиметах*, так и на войлочных потниках, этот орнамент изображает завитки в виде волн, с чередующейся расцветкой. Орнамент волны очень древний, в Хорезме он встречается на археологических памятниках античного времени. Так, при раскопках дворца Топрак-кала в одной из комнат западной башни были найдены изображенные на панели волны с плавающими в них рыбами [12, с.48]. Историческую преемственность этого мотива в произведениях современного прикладного искусства народов Хорезма отмечает С.П. Толстов [11, с.13-15]. Центральная часть текимета чаще всего делится на два ряда прямоугольников, в которые вваливается крупный декоративный узор с мягкими очертаниями — схематизированные цветы, розетки, завитки. Валянье узорных текиметов у каракалпаков распространено повсеместно; наиболее сходны с ним и по орнаменту туркменские кошмы; об этом говорят и сами мастерицы. В казахских как известно, всегда преобладает мотив рогов

и на центральном поле, и в кайме. Киргизские же изделия этого типа ближе к казахским по характеру своего орнамента.

Создание войлочного ковра начинается с выкладывания клочков уже окрашенной в разные цвета шерсти по контурам будущего узора. В первую очередь, мастерица «прорисовывает» прямоугольную кайму и «отбивает» ее от центрального поля кошмы разделительной линией. Затем таким же образом выкладывает остальной узор (как правило, это монументальные медальоны), заполняя свободные от рисунка места клочками шерсти необходимого цвета. Контуры отдельных элементов иногда выделяются темной по цвету шерстью, которая визуально отделяет один цвет от другого. Поверх цветного слоя выкладывается плотный слой неокрашенной шерсти, который будет изнанкой будущего ковра. Заготовка плотно сворачивается в рулон, после чего начинается длительный процесс валяния (сваливания).

В готовом виде узор четко читается на сером, белом или коричневом фоне основы. Пространство по краям остается неорнаментированным. Использование клочков шерсти в качестве основного «изобразительного» материала придает очертаниям узоров нечеткость, живописную вибрацию, что и является отличительной чертой войлочного дизайна. Художественные достоинства в значительной степени зависят также от качества выделки, используемых материалов и красителей.

Для создания цветовой гаммы используется окрашенная шерсть нескольких – от трех до пяти – цветов. В разных сочетаниях используются красный, малиновый, розовый, желтый, оранжевый, зеленый, а также естественные цвета неокрашенной шерсти, что сообщает колориту ковра контрастность и нарядность.

Используя элементы орнамента в ковроткачестве, в большей степени они обладали важной для носителей культуры символической нагрузкой, была связана с племенными тотемами древних племен, культовыми и религиозными представлениями.

Исследователи предполагают, что, по всей вероятности, у каждого из каракалпакских племен существовали свои отличительные знаки «тамги», которые могли переходить и в другие элементы ведения декорации народного прикладного искусства каракалпаков.

Главными племенными группами онторт уру были: ктай, кыпчак, кенегес, мангыт. Конграт включал в себя два больших родовых объединения — шуллик и жаунгыр (кар. *шуллик* – *жауынгыр*)

Родовые и племенные объединения возглавлялись феодальной верхушкой – биями и военачальниками (батырами) [10, с.22].

Особенно распространены у каракалпаков узоры, типичные для огузских племени встречающиеся в изобилии на керамических изделиях из развалин огузских городов в низовьях Сырдарьи и у берегов Арала.

Многие отмеченные выше черты сходства каракалпакского народного узора (как и других форм культуры) с казахскими говорят об этническом родстве этих народов, скорее всего связанном с более поздним историческим этапом формирования каракалпакской народности - XI—XII вв., когда в Приаралье нахлынули жившие у берегов Иртыша кыпчакские племена. Кыпчаки, как известно, стали одной из главных составных частей будущего казахского народа, формировавшегося на соседней с каракалпаками территории степей «Дешти-Кышпак». В дальнейшем ходе исторических событий судьбы предков каракалпакского и казахского народов, а затем и судьбы самих этих народов имели много общего, их хозяйственные, политические и культурные связи не прекращались.

Чрезвычайно интересны упомянутые выше результаты сопоставления каракалпакского узора с южносибирским, в частности с алтайским.

Сравнивая сходство коврового искусства каракалпаков с народным искусством народов Южной Сибири - тюркоязычные народы: алтайцы, хакасы, тувинцы, составляя коренное население этого края, рисунками из окрашенной непряженой шерсти украшали кошмы и войлочные *чепраки*. Аппликация и простегивание узоров были основными способами украшения изделий [5], изготавливающие традиционные изделия из войлока — войлочные узорные ковры, *сырмаки*. В каракалпакской диалектологии можно встретить словосочетание – *сырыу* (русс. *стеганное, плетенное*). Что подтверждает схожесть или преемственность связей культуры речи.

Алтайское декоративное оформление зачастую имело сакральную функцию и было воплощением комплекса мифоритуального знания, характерного для данного этноса. Изучение этнического комплекса позволяет также выявить древнейшие формы художественной выразительности, т. е. «архетипические формы искусства, в том числе искусства архаического» [13, с. 40]. Совершенно идентичная форм выражения характерна и для каракалпакского декоративного искусства.

В становлении искусства и культуры эстетическая функция не может быть выделена отдельно, без соотнесения с мифоритуальной или сакральной. На орнаменте и декоре практически повсеместно изображаются божества, духи или сцены событий, связанных с существованием божеств. В орнаменте зримо реализовывался мировой мифологический порядок. Таким образом, декор или иное украшение можно соотнести с мышлением в рамках мифологической картины мира [9, с.142-143].

Следует учитывать, что в культуре Алтая на начало XX в. «все предметы, связанные с отправлением ритуалов и культовых действий, орнаментовались и декорировались особенно тщательно и в соответствии с принятым в данной местности каноном» [3, с. 10–20].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, несомненно, важную роль в формировании духовной и материальной культуры, исследователи видят в этническом окружении, межкультурных взаимодействиях, в том числе и с каракалпаками. Так, в культуре южных алтайцев прослеживается влияние тюрков, кыпчаков, монголов, китайцев, много схожего можно отметить с наследием казахов, киргизов, тувинцев и других тюркоязычных народов [13, с.139].

В последние годы среди тюркоязычных народов наблюдается особый интерес к историческому наследию, связанному с происхождением и тесными этнокультурными контактами. При глубоком изучении и синтезе материалов этнического происхождения, включая предметы материальной культуры, перед нами стоят новые задачи по определению направлений в синтезе древней и средневековой культуры, а также выявлению причинно-следственных связей между народами Сибири и Центральной Азии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алламурастов А. Каракалпакское декоративно-прикладное искусство. Вопросы художественного своеобразия. Архивные материалы Центральной Азии. Том VI. / – Самарканд: МИЦАИ, 2019. – 220 с.
2. Анохин, А. В. Материалы по шаманству у алтайцев, собранные во время путешествий по Алтаю в 1910–1912 гг. по поручению Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии (Представлено в заседании Ист.- филол. отд. Акад. наук 16 янв. 1913 г.) / А. В. Анохин; с предисл. С. Е. Малова. – Ленинград: Рос. акад. наук, 1924. – (Сборник Музея антропологии и этнографии при Российской академии наук; Т. 4, Вып. 2).
3. Богословская И.В. Каракалпакский орнамент: образ и смысл. – Алматы: МИЦАИ, 2019. – 220 с.
4. Вайнштейн С. И. История народного искусства Тувы. —М.: Наука, 1974
5. Веймарн Б.Б. Искусство Средней Азии. М.-Л. 1940, стр. 139—140
6. Гюль Э. Ковры Узбекистана. История, эстетика, семантика. Ташкент, 2019 - 256 с.
7. Дудин С.М. Ковровые изделия Средней Азии. Сб. МАЭ. Ленинград. 1928.

8. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. Москва–Ленинград, 1950.
9. Зуев, И. Н. Особенности традиционного костюмного комплекса народов Алтая: мифоритуальный аспект / И. Н. Зуев, О. Р. Пермьяков // Вестник культуры и искусств. – 2017. – № 2 (50). – С. 138–145.
10. Нурмухамедов М.К. и др. Каракалпаки. (Краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). Ташкент, «Фан», 1971. 120 с.
11. Толстов С.П. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиция АН СССР (1945 – 1948). Москва, 1952.
12. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М., 1948, рис. 48 а.
13. Элиаде, М. Священное и мирское / М. Элиаде; пер. с фр., предисл. и коммент. Н. К. Грабовского. – Москва: Изд-во МГУ, 2013. – 144 с.

Dospanov O.T.

PhD in history

Karakalpak State Museum of Art named after Igor Savitsky

oktyabrd@gmail.com

Safaev M.M

Junior Researcher

State Museum of History of Uzbekistan

SOME INFORMATION ON THE STUDY OF KARAKALPAK CARPET ART

ABSTRACT

The article examines the carpet art of the Karakalpak people, whose historical past is closely linked to nomadic culture. In this context, carpet weaving occupies a special place in folk art as a traditional artistic craft. Many Central Asian peoples attached significant importance to this direction, considering it not only in everyday life, but also as an important element that shapes unique art and reflects their inner philosophy and worldview. In this regard, special attention is paid to the extensive ethnocultural ties of the Turkic world. Carpet weaving with its characteristic decoration is an integral part of both historical processes and early traditions, transmitted in a geographical context from ancient nomadic cultures.

Key words: carpets, felt, museum, Karakalpaks, Turkic people, tekemet, ornament.

Dospanov O.T.

Tarix fanlari nomzodi

Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi

oktyabrd@gmail.com

Safayev M.M

kichik ilmiy xodimi

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

QORAQALPOQ GILAMCHILIK SAN'ATINI O'RGANISHGA DOIR AYRIM MA'LUMOTLAR

ANNOTATSIYA

Maqolada qoraqalpoq xalqining tarixiy o'tmishi ko'chmanchi madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan gilamchilik san'ati ko'rib chiqiladi. Bu kontekstdan kelib chiqib, gilamdo'zlik xalq amaliy san'atida an'anaviy badiiy hunarmandchilik sifatida alohida o'rin egallaydi. O'rta Osiyoning ko'plab xalqlari ushbu yo'nalishga katta ahamiyat bergan bo'lib, uni nafaqat kundalik hayotda, balki o'ziga xos san'atni shakllantiruvchi va ichki falsafa hamda dunyoqarashni aks ettiruvchi muhim unsur sifatida ko'rganlar. Shu nuqtai nazardan, turkiy dunyoning keng etnomadaniy aloqalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'ziga xos bezaklarga ega gilamdo'zlik, tarixiy jarayonlar hamda qadimiy ko'chmanchi madaniyatlardan geografik jihatdan avloddan-avlodga o'tib kelgan an'analarning ajralmas qismidir.

Kalit so'zlar: gilam, kigiz, muzey, qoraqalpoq, turkiy xalqlar, naqsh.

Ибрагимов Р. З.

PhD., илмий ходим

Миллий археология маркази

ibragimovraxmon15@gmail.com

ШИМОЛИЙ ДАШТ ҲУДУДИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЧОРВАДОР АҲОЛИСИНИНГ ЎРТА ОСИЁГА МИГРАЦИЯСИ ТАРИХИДАН

АННОТАЦИЯ

Маълумки, бронза даврида Евросиёнинг шимолий дашт ҳудудида иқлим куруқлашиб борган. Натижада қурғоқчил иқлим шароитида шароитида Андроново маданиятининг кўчманчи чорвадор аҳолиси минтақанинг жанубий ерларига кўчиб ўтишга мажбур бўлган. Мақолада Ўрта Осиё ерларида аниқланган бронза даври Андроново маданиятига оид археологик ёдгорликлар, хусусан, маконлар, қабр иншоотлари ва тасодифий топилмалар умумлаштирилиб, улар асосида миграция йўналишлари ва босқичлари масаласини ҳар томонлама таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Евросиё, Ўрта Осиё, миграция, бронза даври, Андроново маданияти, кўчманчи чорвадорлар.

КИРИШ

Неолит даврида илиқ иқлимли Атлантик оптимум даврида Евросиё даштларида иқтисоднинг ихтисослашган ўзлаштирувчи хўжалик шаклини юритган маданиятлар вужудга келган. Бу жамоаларнинг бронза даври кейинги тараққиёт босқичида ишлаб хўжарик шаклига ўтган. Шимолий Қора денгиз ерларидан Олтойгача бўлган кенг ҳудудда иқтисодининг асосини чорвачилик ташкил этган жамоалар тарқалади. Бронза даврида бу ерларда иссиқ иқлимли Атлантик даври тугаб, қуруғқчилик бошланган. Қуруғқчилик совуқ ҳарорат билан бирга кечган. Совуқ иқлимли қуруғқчилик чорва моллари учун озуқа захирасининг тортилиб бориши ва кўчманчи чорвачилик хўжалиги аҳамиятининг ўсишига олиб келган. Кўчманчи чорвачилик хўжалиги мавқеининг ўсиши мил. авв. II минг йилликнинг бошларида йилқичиликнинг ривожланишига олиб келган. Кўчманчи чорвачилик ривожланиши бепоеън даштларда йилкилардан улов сифатида фойдаланиш олиб олиб келган.

Иқлимнинг куруқлашиб бориши оқибатида чорва моллари учун озуқа захирасининг камайиб кетиши ва бошқа томондан эса аҳоли сонининг кўпайиб бориши Волга ва Урал бўйларида Олтойгача тарқалган Сруб-

Андроново маданиятига хос аҳоли иссиқ иқлимли жойлар кўчишга мажбур бўлган. Айрим тадқиқтчилар олимлар чорвадор аҳоли кўчишининг асосий сабаби сифатида ернинг устки қатламидаги металл захирасининг тугаши билан изоҳлайдилар[1. – Б. 101, 2. – Б. 62-72]. С.М. Ситников металл инқироzi тўғрисидаги мазкур қарашларни инкор этиб, унинг ҳеч бўлмаганда Об ва Иртиш дарёлари оралиғи ҳудудида Саргари-Алексеев босқичида содир бўлмаганлиги ҳақидаги фикрини манзилгоҳлардан топилган металл буюмлар тури ва сони кўпайиши билан изоҳлаган[3. – Б. 104]. Чорвадорлар жамоасининг оммавий ва давомли кўчиши сабаби фақат иқлим ўзгаришлари ва метал захираси билан боғлиқ бўлиб қолмасдан аҳоли сонининг кескин кўпайиши оқибатида яйлов ва чорва моллари учун озуқа захирасининг камайиши ҳам туртки бўлганлиги, табиий.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Тарихдан маълумки, мил. авв. XVII асрда Миср подшолиги гиксослар томонидан босиб олинган. Уларнинг моддий маданияти намуналари бронза даври Сруб ва Андроново маданияти ёдгорликлари билан бир хил бўлганлиги сабабли тадқиқодчи олимлар уларнинг Волга-Урал бўйи ерларидан борганлиги тўғрисидаги фикрни билдирган[4. – Б. 60, 445]. Археологик маълумотлар кўра Андроново маданияти аҳолисининг бир гуруҳи Ўрта Осиёга ва бу ердан ўтиб Ҳиндистон[5. – Б. 50] ҳудудига, бошқа бир гуруҳи эса жануби-шарқий йўналиш бўйича Хитой[6. –Б. 16-29] ҳудудига тарқалган. Уларнинг кўчган даври ва йўналишлари тўғрисида етарли ва аниқ маълумотлар мавжуд эмас. Ўрта Осиёнинг турли ерларида ўзида миграция билан боғлиқ муҳим маълумотларни акс эттирган кўплаб археологик ёдгорликлар мавжуд.

Бронза даври чорвадор аҳолига тегишли моддий маданият ёдгорликларни ўрганиш XIX асрнинг охирида бошланган. Ўтган давр мобайнида Ўрта Осиёнинг тарихий-маданий ўлкаларнинг ҳар биридан ўнлаб, ҳатто бир неча ўнлаб чорвадор аҳоли манзиллари, дафн иншоотлари ва тасодикий топилмалардан ташкил топган археологик ёдгорликлар ўрганилган. Уларнинг нисбий санаси ва тарихий-маданий мансублиги масалалари Қозоғистон ва Сибир ҳудудлари материаллари билан қиёсий таҳлил қилиш асосида таҳлил қилинган. Уларнинг Андроново ва Қорсуқ маданиятларига мансублиги қайд этилиб, мил. авв. II минг йилликнинг охириги чораги – I минг йилликнинг бошлари билан саналанган.

Амударёнинг қуйи оқими ҳудудида сўнгги бронза даври ёдгорликларини М.А. Итина Тозабоғёб маданияти Волга-Урал бўйи ҳудудида фаолият юритган Сруб ва Андроново маданиятлари аҳолисининг миграцияси

натижасида вужудга келганлигини таъкидлайди[7. – Б. 104-108]. Жанубий Тожикистоннинг сўнгги бронза даври Илк Тулхар қабр ёдгорликларини. А.М. Мандельштам Бишкент маданияти мил. авв. II минг йилликнинг иккинчи ярмида Ҳиндистон худудида пайдо бўлган қабилаларнинг маълум бир гуруҳига оид, деб ҳисоблаган. Тадқиқотчи бу ерда тузилиш ва дафн удуми бўйича аниқлаган тўрт хил қабрларни турли даврларда кўчиб келган чорвадор аҳолига тегишли эканлигини қайд этган. Кремация одатига эга бўлган қабрлар мил. авв. XIV– XIII асрлар, чуқурликдаги ўра қабрлар мил. авв. XIII–XI асрлар, тош яшиқдаги танаси бўлакларга бўлиб дафн қилинган қабрлар мил. авв. X–IX асрлар ва катакомба қабрлар эса мил. авв. IX–VIII асрлар билан даврлаштирилган[8. – Б. 92–93, 99]. Бу ердаги қабрлар тузилиши жиҳатдан алоҳида этник гуруҳларга тегишли бўлиши мумкин. Кремация ва мархум танасини бўлаклаб дафн қилиш удумларини алоҳида этник қавм мансуб, деб қараш нотўғри хулоса ҳисобланади.

Е.Е. Кузьмина ўзининг охириги илмий ишларида Евросиёнинг шимолий дашт худуди чорвадор аҳолисининг Ўрта Осиёнинг жанубига кўчишини уч босқичда содир бўлганлиги тўғрисидаги фикрни илгари сурган. Биринчи Синташта – Петров босқичи, иккинчи Сруб ва Андронов босқичи. Мазкур босқич ушбу маданиятларнинг тараққий этган даврда содир бўлиб, Олакўл, Федоров ва уларнинг аралашган шаклдаги ёдгорликларида акс этганлиги қайд этган. Учинчи босқич Сруб ва Андронов маданиятлари тараққиётининг охирида содир бўлганлигини келтирилган[5. – Б. 50]. Мазкур ҳолатда барча босқичлари мил. авв. II минг йиллик давомида содир бўлган. Тадқиқотчи ўз ёндашувида асосий эътиборни ёдгорликлардан топилган сопол ва металл буюмларнинг ташқи белгилари ҳамда уларнинг қиёсий таҳлига қаратган. XXI асрнинг охирида ўрганилган айрим ёдгорликларнинг материаллардан фойдаланмаган.

А. Асқаров шимолий дашт аҳолиси жанубга кўчишининг иккита босқичи, яъни Еттисув худуди орқали мил. авв. XIV асрнинг охири - XIII аср ва Жанубий Қозоғистон орқали содир бўлганлигини келтирган. Унинг фикрига кўра мархумларни оёқ-қўллари букилган, яъни ғужанак ҳолатда дафн қилиш одати дастлабки кўчиб келган аҳолининг археологик белгиси ҳисобланади. Бундай дафн одати Андронов маданиятининг алакул босқичи учун хос хусусият ҳисобланган. Кейинги босқичда кўчиб келган аҳолининг археологик аломати жасадни қабрга қуйишдан ташқари кремация, яъни майитларни оловда қуйдириб, кулини дафн қилиш удумидан иборат бўлган [9. – Б. 146]. Кремация Андронов маданияти аҳолиси учун хос хусусият ҳисобланган[10. – Б. 54-65].

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш зарурки, Евросиёнинг шимолий дашт худудларига хос моддий маданият ёдгорликлари Ўрта Осиёнинг бронзадан олдинги даврга оид археологик мажмуаларда ҳам кузатилган. Зарафшоннинг юқори оқимида жойлашган Саразм манзилгоҳининг қуйи қатламидан А. Исаков уй-жой иморатлар билан биргаликда атрофи тошдан айлантириб терилган дафн иншооти аниқланган[11. – Б. 65-66]. Атрофига айлантириб тош териш одати Жанубий Сибирда кейинги даврда фаолият юритган Афанасьев маданияти ёдгорликларида учрайди. Шунингдек, манзилгоҳнинг иккинчи (Саразм II) босқичига оид маданий қатламидан дашт бронзасига оид сопол буюм топилган[11. – Б. 31]. Тадқиқотчи дафн иншоотининг келиб чиқиши ва сопол буюмнинг маданий мансублиги масаласига эътибор бермаган. Улар жойлашган маданий қатламлар радиокарбон текшириш натижалари бўйича мил. авв. IV минг йиллик иккинчи ярми билан даврлаштирилган[11. – Б. 176]. Тадқиқотчи тадқиқот даврида сопол буюмнинг шимолий дашт худудига хослигини англаб етсада, унинг генезиси масаласига эътибор бермаган.

Н.А Аванесова Зарафшон дарёси бўйида жойлашган Жуков қишлоғида атрофи дарё тошлари билан териб чиқилган иншоотни (диаметри 5 м) казиб ўрганган. Иншоотнинг ичкарасида жойлашган ўчоқни оташпастрларнинг муқаддас сиғиниш жой сифатида қайд этган. Бу ердан топилган Афанасьев ва Ямний маданиятлари кулолчилик маҳсулотларига ўхшаган сопол буюмлар ва муқаддас сиғиниш жойнинг қурилиши усулини тоғли Олтий ва Тува худудидаги археологик мажмуалар билан ўхшашлигини келтирган[12. – Б. 12-32]. Лекин шимолий дашт худудининг энеолит даври маданий таъсири ёки миграцияси тўғрисидаги маълумот Ўрта Осиёнинг бошқа ерларида археологик жиҳатдан кузатилмайди.

Зарафшон воҳасининг сўнгги бронза даврига оид Тўқай, Сиёб, Жом, Зардча Халифа, Сазоғон ва Тусунсой ёдгорликларидан топилган моддий ашёларда Ўрта Осиёнинг маҳаллий ўтроқ деҳқончилик маданияти билан биргаликда Евросиёнинг шимолий дашт худуди Синташта-Петров мажмуаси учун хос аломатлар кузатилган[13. – Б. 28-60]. Улардан ташқари Андронов маданиятининг Олакўл ва Федоров босқичларига оид бир нечта археологик ёдгорликлар ҳам ўрганилган[12. – Б. 12-32]. Мазкур археологик маълумотлар Зарафшон воҳасида содир бўлган тахминан учта миграция тўғрисида фикр юритишга хизмат қилади.

XXI асрда археологик тадқиқот ишлари кўламининг кенгайиши натижасида Шимоли-ғарбий Уструшона худудида бронза даврига оид ёдгорликларни ўрганиш ишлари жонланади. Бу ердан Аччи, Бахмалсой, Желли ғули қабрлар ўрганилган[14. – Б. 75-78, 15. – Б. 94-99]. Желли ғулли

қишлоғи яқинидаги қабрнинг ички томонига тош плита териб чиқилган. Желли ғули қабр иншоотини ўрганган Ф.Э. Тошбоев Олтой ўлкасида Афанасьев маданияти билан бир даврда фаолият юритган Қорақўл маданиятига оид тош қути қабрларга ўхшашлигини таъкидлаган. Андронов маданиятининг Олақўл ва Федоров босқичларига хос хусусиятларга эга бўлган ушбу маданиятга оид топилмаларнинг радиокарбон таҳлил натижалари мил. авв. XIII-XII асрлар билан даврлаштирилиб, тадқиқотчи моддий топилмаларининг Зарафшон воҳаси намуналари билан ўхшашлигини қайд этган[14. – Б. 75-78, 16. – Б. 5-10]. Ушбу ёдгорликлар жанубга кўчган чорвадорларнинг Жиззах воҳасида маълум муддат тўхтаб ўтганлигини кўрсатади.

Ўрта Осиё халқлари тарихида, хусусан этногенезида муҳим ўринга эга бўлган бронза даври чорвадор аҳолисининг жанубга кўчиши, босқичлари ва уларнинг йўналишлари масаласини ҳар томонлама чуқурроқ ўрганиш учун барча турдаги археологик артефактларни чуқур илмий таҳлил қилиш ва ёдгорликлардан олинган радиокарбон текширин натижалари асосида ўрганиш талаб этилади. Айниқса, дафн иншоотлари ва улардан топилган моддий ашёлар муҳим ўрин тутати. Бу борада қабрларнинг тузилиши, дафн удумлари, сопол буюмлар, зеб-зийнат буюмлари: билакузук, сирға ва бошқалар топилмаларнинг миграция босқичлари ва йўналишларини аниқлашдаги аҳамияти юқори саналади.

Андронов маданияти аҳолиси орасида марҳумларнинг жасадини кўмиш билан бирга куйдириб, кулини кўмиш, яъни кремация одати кенг тарқалган. Кремация дафн удуми Андронов маданиятининг Алакул босқичи аҳолиси орасида қисман учраган бўлса, Федоров босқичида бу удум бўйича дафн қилинган қабрлар сони кўпайган[17. – Б. 284-292]. Бу дафн удуми Жанубий Урал орти ерларида, Шимолий ва Марказий Қозоғистонда, шунингдек, Ғарбий Сибир ҳудудлари аҳолиси орасида кенг тарқалган. Жанубий Қозоғистон ҳудудидаги ўрганилган бронза даври Таутари қабрида марҳумларнинг кўпчилиги кремация одати билан дафн қилинган. Қабрлардан чиққан материаллар мил. авв. XIV-XIII асрлар билан саналанган[18. – Б. 289]. Н.А. Аванесованинг фикрига кўра кремация Андронов (Федоров) маданияти аҳолисининг жанубга кўчишининг асосий археологик аломати ҳисобланади[19. – Б. 18-20, 239-241].

Чотқол дарёсининг ўнг соҳилида жойлашган Обирахмат қишлоғида М.Э. Воронец ва Т. Мирғиёзовлар 1945 йилда устига тош терилган тўртта қабр-кўрғони ўрганган. Барча қабрларда майитлар кремация одати бўйича дафн қилинган[20. – Б. 20]. А. Асқаров Жарқўтон манзилгоҳининг 5-тепалигида кузатилган кремация одати Сополли маданиятининг мулали босқичи, яъни

мил. авв. XIV асрнинг охири – XIII аср билан белгилаган[9. – Б. 142-149]. Бўстонсой (Бўстон VI) худудида ўрганилган икки юздан ортиқ қабрларининг тахминан 10% қисмида мархумлар кремация одати бўйича дафн қилинган[19. – Б. 18-20]. Кремация одати Кофирнаҳр воҳасидаги Бишкент маданиятига оид Илк Тулхар қабристонида ҳам аниқланган[8. – Б. 53-55]. А.М. Мандельштам кремация қабрларни мил. авв. XIV – XIII асрлар билан даврлаштириб, чорвадор аҳоли миграциясининг дастлабки босқичига оидлиги юқорида қайд этилган эди. Умуман кремация дафн удумига сақланган Таутари, Искандар қишлоғи, Жарқўтон, Бўстон VI ва Илк Тулхар қабрлар шимолдан жануб томон бир йўналишда жойлашган бўлиб, улар битта этник гуруҳга, яъни Ҳиндистон ерларига кўчиб борган чорвадор аҳолига тегишли бўлганлиги ҳақиқатга яқин хулоса ҳисобланади.

Евросиёнинг бронза даври чорвадор аҳолиси жанубга миграцияси билан боғлиқ масалаларни ўрганишнинг бошқа бир муҳим моддий зеб-зийнат буюмлар, хусусан, билакузуклар ва кўнғирокчали сирғалар ҳисобланади. Билакузук намуналари Самарқанд (Чакка) [1. – Б. 19-21.], Тошкент воҳаси (Искандар қишлоғи, Эртошсой)[21. – Б. 43-73, 22.–Б. 12], Фарғона водийси (Ўзган) [23. – Б. 64], Жиззах (Бахмалсой) [15. – Б. 94-99], Жанубий Тожикистон (Қумсой ва Туён) [23. – Б. 77-85] худудларидан топилган. Искандар қишлоғи ва Ўзган) топилган конуссимон шаклли билакузак мил. авв. XII-XI асрлар билан саналаган[23]. Шимолий дашт чорвадорлар жамоасига тегишли ёдгорликлардан топилган барча турдаги металл буюмларни Н.А. Аванесова тадрижий жиҳатдан таснифлаб чиқган. Унда билакузукларни худудий ва хронологик жиҳатдан бир нечта шакллари ажабланиб кўрсатган. Тадқиқотчининг тавсифи бўйича Чакка қабри билакузуклари спиралсимон шохли бўлиб, Андронов маданиятининг Алакул босқичи намуналари билан бир хил[1]. Чакка қабристони мил. авв. XIV-XIII асрлар билан саналанган[25. –Б. 20]. Тошкент воҳаси ва Фарғона водийси ёдгорликларидан топилган билакузуклар конуссимон шохли бўлиб, мил. авв. XII-XI асрлар билан даврлаштирилган[21]. Конусимон шохли билакузук соҳиблар Тошкент воҳаси орқали Фарғона водийсига ўтганлигидан далолат бериб, чорвадор аҳоли миграциясининг бошқа бир йўналишни кўрсатади. Мазкур йўналишда кўчган халқлар эҳтимол Шарқий Туркистон худудига ўтган.

Шимолий дашт чорвадор аҳолисининг кўчиши содир бўлган даврда Ўрта Осиёнинг жанубий ўлкаларида археологик аломатига кўра қўлда ясалган сопол буюмларнинг сиртига геометрик нақш чизиш анъанасига эга бўлган бошқа бир халқларнинг кўчиши содир бўлган. Бу жараён Ўрта Осиёнинг жанубий қисмида, яъни Туркманистонда мил. авв. XIV асрда, минтақанинг

шимолий вилоятларида мил. авв. XII асрда содир бўлган. Бу бевосита Авесто ва Ригведанинг энг қадимги наскларининг тузилган даврига тўғри келади[26. – Б. 36-41].

Сирдарёнинг қуйи оқими ерларида жойлашган Шимолий Тагискен қабр-қўрғонлари кўчманчи чорвадор аҳолининг мил. авв. II минг йиллик охирида содир бўлган бошқа бир миграцияси йўналиши тўғрисида маълумот беради[27. – Б. 109-115]. Бу ерда жойлашган макбаралардан топилган моддий ашёлар, хусусан, камон пайконлари, сопол буюмларнинг шакли ва уларнинг сиртига чизилган нақшлар Марказий Қозоғистон ҳудудидаги Бегази-Дандибай ва Жанубий Сибир ва Олтой ўлкаси ерларида фаолият юритган Карасук маданиятлари намуналари билан ўхшашлиги аниқланган[28. – Б. 88]. Моддий манбалар ҳам бу даврда кўчиб келган чорвадор аҳолининг Осиёнинг шарқий ҳудудларидан кириб келган тўғрисидаги маълумотларни тасдиқлайди.

Юқорида қайд этилганидек, Мўғилистон ва Шарқий Туркистон ерларида яшаган кўчманчи чорвадор аҳоли сонининг ўсиб бориши ва мунтазам курғоқчиликнинг содир бўлиши оқибатида чорва моллари учун озуқа захираси тортилиб, бу ерда яшаган халқлар мил. авв. II минг йилликнинг охири ва мил. авв. I минг йилликнинг бошларида Евросиёнинг бепоён даштлари бўйлаб кўчиб юриши олиб келган. Чорвадор аҳолининг бир қисми ўтроқ деҳқончилик ҳудудларини босиб олиб, ўтроқлашган ва маҳаллий аҳоли билан аралашиб кетган.

Хитойшунос олим А.Хўжаевнинг Хитой манбаларидан иқтибос олиб келтирган маълумотларига кўра афсонавий Ся сулоласи даврида мамлакатнинг шимолий қисмида «*йи ва тиек (ди)*» номи билан аталган чорвадор қабилалар яшаган[29. – Б. 34].

Зардуштийлик динининг муқаддас китоби Авестода илк чорвадор халқлар *турлар* номи билан тилга олинган. Унда турлар жанубида яшаган ўтроқ деҳқончилик аҳолисининг рақиби сифатида қайд этилган. Авестонинг Ардвисур Яшт (Обон алқови) қисмида Эрон саркардаси Тус Анахита маъбудасидан кўчманчи Канха (“баланд», “марданавор”) юртидаги Хашатросук танглигида (дарасида) ҳукмдор Ваесаки устидан ғалаба қилиб, кўчманчи турлар юрти Турон давлатини енгиш учун мадат сўраган ҳолати келтирилган. Манбада Франхросян (Шоҳномада Афросиёб) ҳукмдорлигидаги тур қабиласи Воркуша кўли атрофида яшаган[30. – Б. 32-34, 31. – Б.23]. XIX асрнинг 40-йилларида Амударёнинг қуйи оқими ҳудудида тадқиқот ишларини олиб борган С.П. Тостов Кангха Хоразм ҳудудида жойлашганлиги тўғрисида фикрни илгари сурган[32. – Б. 10]. Унинг илмий қарашлари кейинчалик бошқа тадқиқотчилар томонидан маъқуланмаган. Кўчманчи чорвадор аҳолининг миграцияси тўғрисидаги аниқ маълумотлар Геродотнинг

“Тарих” китобида баён қилинган. Унда Қора денгиз даштларига скифлар мил. авв. 720-йилда Ғарбий Туркистондан келиб жойлашиб, кейин Киаксар хукмронлик қилган мил. авв. 623-йилда Мидия подшолиги ерларини босиб олганлиги тарихдан маълум[33. – Б. 42].

Қадимги юнон-рим муаллифлари асарларида саклари билан биргаликда “скиф” қабиласининг номи келтирилган. Юнонлар кўчманчи ҳаёт тарзини юритган барча чорвадор халқларни скифлар, деб аталганлар. Геродот (тахм. мил. авв. 484-425 йй.) ўзининг “Тарих” китобида “сакларнинг кундалик турмуш тарзи ва урф-одатлари скифларникига ўхшаб кетади. “Аслида саклар скиф қабилаларидир. Форслар барча скифларни саклар деб атайдилар”, деб ёзган[33]. Р.Х. Сулейманов Беруний ва Қошғарий асарларида скифларни “искитлар”, номи билан аталиб, қадимги туркий халқлар бўлганликлари тўғрисидаги маълумотни келтирган[34– Б. 45, 35. – Б. 44-57].

Қадимги ёзма (Авесто, Шохнома) манбаларда қайд этилган маълумотларга асосланган Р.Х. Сулейманов ўтроқ деҳқон жамоалари Амударё юқори оқими ерлари, Эрон, Хуросон ҳудудларида яшаган, кўчманчи чорвадор турк қабилалари Сирдарё (Танаис, Яксарт) ҳавзаси ерларида яшанганлиги тўғрисидаги фикрни билдирган. Тадқиқодчи Сирдарё дашт кўчманчиларнинг чегараси бўлганлигини археологик жихатдан асосланганлигини қайд этган[36. – Б. 60]. Сўғдиёна эса кўчманчи чорвадор ва ўтроқ деҳқон жамоалари ўртасидаги рақобат ҳудудини ташкил этган.

ХУЛОСА

Кишилиқ жамияти тарихидан маълумки, инсоният доимо табиий ўзгаришлар сабабли бир жойдан иккинчи жойга кўчишга мажбур бўлган. Айниқса, бу жараён ер юзининг иқлим шароити оғир бўлган шимолий минтақаларда яшаган кўчманчи чорвадор аҳолининг ҳаётида кўпроқ содир бўлган.

Шимолий дашт ҳудудга хос чорвадор аҳолисининг энеолит ва илк бронза даврлари жанубий ўтроқ деҳқончилик ҳудудларига кўчиб келганлиги тўғрисида етарли археологик маълумотлар мавжуд эмас. Зарафшон воҳасидан топилган чорвадорларга тегишли кам сонли моддий манбалар орқали илк миграция тўғрисида аниқ бир илмий фикрни илгари қийин.

Мил. авв. II минг йилликда Евросиёнинг шимолий дашт ҳудудларида табиий иқлим ўзгариб, қурғоқчилик кучайган. Натижада кўчманчи аҳоли чорва моллари учун янги яйловлар излаб, Евросиё ҳудудлари бўйлаб тарқалган. Бир гуруҳи Африканинг шимолига, бошқа бир гуруҳлари Ўрта Осиё орқали Хитой ва Ҳиндистон ерларга бориб жойлашган. Ўрта Осиёнинг турли жойларида аниқланган археологик ёдгорликлар ва улардан топилган

моддий манбаларга кўра чорвадор аҳолининг жанубга миграцияси бир неча босқичда ва йўналишда содир бўлган.

Бронза даврида, аниқроғи ривожланган босқичининг охиридан бошлаб шимолӣ дашт чорвадорларининг жанубга кўчиши бошланган. Бронзанинг сўнгги босқичида чорвадор аҳолининг кўчиш жараёни кучайган. Уларнинг асосий қисми чорвачилик хўжалигини юритиш учун қулай бўлган ўтрок деҳқончилик воҳалари яқинидаги тоғ ва тоғ олди ҳудудларида маълум муддат тўхтаб, жанубга ўтиб кетган. Кам сонли қисми маҳаллий ҳудудларда ўтрокклашиб, кейинчалик деҳқон аҳолиси билан аралашиб кетган.

Ўрта Осиёнинг турли жойларидан топилган моддий манбаларга кўра ривожланган ва сўнгги бронза даври кўчманчи чорвадор аҳолиси миграциясининг камида учта босқичи тўғрисида хулоса қилиш мумкин. Зарафшон воҳасига келиб жойлашган аҳоли кўчманчи чорвадорларнинг нисбатан қадимгиси бўлса керак. Қуйи Амударё ҳудудига келиб, Тозабогёб маданиятининг шаклланишида иштироқ этган кўчманчи чорвадорлар Жанубий-шарқий Урал олди ҳудудида фаолият юритган Сруб-Андроново маданиятига мансуб аҳоли бўлганлиги археологик жиҳатдан асосланган. Кўчманчи чорвадор аҳолининг бошқа бир гуруҳи Жанубий Қозоғистондан ўтиб, жанубга кўчган. Улар Ўрта Осиёнинг жанубида ўзларининг моддий маданият ёдгорликларини қолдириб, Ҳиндистонга ўтиб кетган. Бошқа бир гуруҳи Фарғона водийсига кириб бориб, ўтроклашган. Эҳтимол мазкур йўналишда кўчган аҳолининг бир қисми Шарқий Туркистонга ўтиб кетган.

Сўнгги бронза даврининг охири ва илк темир даврларида Ўрта Осиёга кўчиб келган аҳоли миграциясининг ҳам уч босқичи тўғрисида фикр билдириш мумкин. Уларнинг асосий қисми Осиёнинг шарқидан ва бир гуруҳи ғарбдан, яъни Жануби-шарқий Урал бўйи ерларидан келган. Улар ёзма манбалар орқали скифлар ёки саклар, сарматлар ва турлар номи билан келтирилган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Аванесова Н. А. Культура пастушеских племен эпохи бронзы азиатской части СССР. Ташкент, 1991.
2. Потемкина Т. М. Украшения из могильника эпохи бронзы Дашти-Козы // Вестник археологии, антропологии и этнографии. Вып. 3. Тюмень, 2001.
3. Ситников С.М. Культура саргаринско-алексеевского населения лесостепного и степного Алтая. Барнаул 2015.
4. Григорьев С.А. Древние индоевропейцы. Челябинск: Цицеро, 2015.
5. Кузьмина Е.Е. Арии-путь на юг. М.-Спб: Летний сад, 2008.

6. Ван П. Взаимодействие культур бронзового и раннего железного века Южной Сибири, Синьцзяна и Северного Китая // Вестник НГУ. Серия: История, филология. 2018. Том 17, № 4: Востоковедение. Новосибирск: ИИЭ СО РАН.
7. Итина М.А. История степных племён Южного Приаралья. М.:Наука, 1977.
8. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. // МИА. №145. Л.: Наука, 1968.
9. Асқаров А.Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар Тошкент: Фан, 2023.
10. Кукушин И.А. Обряд кремация у андроновского (федоровского) населения семантический аспект // Российская археология. №4. М.: Наука, 2019.
11. Исаков А. Саразм (к вопросу становления раннеземледельческой культур: Зеравшанской долинь). Душанбе, 2020.
12. Аванесова Н.А., Джуракулова Д. Древнейшие номады Зеравшана. // Культура номадов Центральной Азии. Материалы международной конференции. Самарканд, ноябрь, 2007 г. Самарканд, 2008.
13. Аванесова Н.А. Зеравшанская группа памятников в контексте Бактрийско-Маргианского археологического комплекса. // Археология Узбекистана. №2. Самарканд, 2019.
14. Тошбоев Ф.Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. № 4/3. Хива, 2023.
15. Хасанов М. Бахмалсойдан топилган бронза даври топилмалари. «Евроосиё халқлари маданият мероси: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (1-қисм). Жиззах 2022.
16. Тошбоев Ф.Э. Изучение истории миграционных процессов, происходивших в бронзовом веке древней Уструшаны Международный научный форум «Наследие» (Новосибирск, 18 сентября – 18 ноября 2023 г.) Сборник научных статей. Новосибирск 2023.
17. Берсенева Н.А. Могильник Кулувчи VI и кремация в обществах эпохи бронзы Южного Урала. // Кулувчи VI – Могильник позднебронзового века Южном Заурале. Челябинск. 2020.
18. Кузьмина Е.Е. Классификация и периодизация памятников Андроновской культурной общности. – Актобе, 2008.
19. Аванесова Н.А. Бустон VI – некрополь огнепоклонников доурбанистической Бактрии. – Самарканд, 2013.

20. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. // МИА. № 26. -М.-Л.: Наука, 1952.
21. Воронец М.Е. Отчет археологической экспедиции Музея истории Академия наук УзССР о раскопах погребальных курганов первых веков н.э. возле ст. Вревская в 1947 г. // Тр. Музея история народов Узбекистана. Вып. I. — Ташкент, 1951.
22. Ibragimov R. Z. Toshkent vohasining qadimgi davr tarixiy rekonstruksiyasi (arxeologik materiallar asosida) T.f.f.D (PhD) dissertasiyasi afvtoreferati. Tashkent, 2024.
23. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культуры Ферганы. // МИА. №118. – М.-Л.: Наука, 1962.
24. Виноградова Н. М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы М.:ИВ РАН, 2004.
25. Жўрақулов М.Ж. Самарқанд воҳаси ибтидоий тарихи саҳифалари. // Ўзбекистон археологияси. 1 (2). Самарқанд, 2011. – Б. 20.
26. Сулейманов Р.Х., Мухаммадиев А.Г., Ойназаров Х.Г. Новые памятники раннего железного века в верховьях Шерабаддарьи // Вестник МИЦАИ. Вып. 35. Самарканд, 2023. С. 36-41.
27. Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана. Книга I. Урбанизация Казахстана в эпоху бронзы-раннем средневековье. - Алматы, 2012.– С.109-115.
28. Байпаков К.М., Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана (Учебное пособие для студентов высших учебных заведений). – Алматы: Қазақ университеті, 2006. – С. 88.
29. Ходжаев А. Из история древних тюрков. (сведения древнекитайских источников). – Алматы, 2011. – С. 34.
30. Авеста. Избранные гимны (перевод авестийского и комментарии И.М. Стеблен-Каменского – Душанбе: Ирфон. 1989. – С. 32-34;
31. Авесто. Яшт китоби. М. Исҳоқов таржимаси ва таҳрири. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 23.
32. Толстов С.П. Древний Хорезм (Опыт историко-археологического исследования) – М: МГУ, 1948. – С. 10.
33. Геродот. История в девяти книгах. // Пер. и прим. Г.А. Стратановского. Кн. VII. – Л., 1972. – С. 42.
34. Сулейманов Р.Х. Рол кочевников в истории Центральной Азии. // ИМКУ. Вып. 42. – Ташкент: Фан. 2022. – С. 45;
35. Сулейманов Р.Х. К вопросу о происхождении и роли кочевой цивилизации в Центральной Азии Евразийская степная цивилизация: человек и историко-культурная среда материалы V международного конгресса

археологии евразийских степей (г. Туркестан, 11–14 октября 2022 г.). Том 1. – Туркестан, 2022. – С. 44-57.

36. Suleimanov R.H. Traces of the Dahae and Sarmatian Cultural Legacy in Ancient Turan and Old Rus. // Археология, этнография и антропология Евразии Том 49 № 3. Новосибирск: ИАЭТ 2021. Р. 60.

Ибрагимов Р. З.

PhD., научный сотрудник
Национальный Центр археологии
ibragimovraxmon15@gmail.com

ИЗ ИСТОРИИ МИГРАЦИЯ СЕВЕРНЫХ СТЕПНЫХ СКотоводческих НАСЕЛЕНИИ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В ЭПОХУ ПАЛЕОМЕТАЛЛА

АННОТАЦИЯ

Известно, что в эпохе бронзы в северных степных зонах Евразии происходит процесс аридизация климата. В результате в условиях засушливого климата кочевого скотоводческого населения андроновской культуры были вынуждены переселиться к югу региона. В статье обобщены археологические памятники андроновской культуры эпохи бронзы, в частности, стоянки, погребальные сооружения, случайные находки обнаруженные на территории Средней Азии и на их основе проанализированы пути и этапы миграций.

Ключевые слова: Евразия, Средний Азия, миграция, бронзовый век, Андроновская культура, кочевые скотоводы.

Ibragimov R. Z.

PhD., researcher
National Center of archaeology
ibragimovraxmon15@gmail.com

FROM THE HISTORY OF MIGRATION OF NORTHERN STEPPE PASTORAL POPULATIONS TO CENTRAL ASIA IN THE PALEOMETAL EPOCH

ABSTRACT

It is known that during the Bronze Age, the northern steppe regions of Eurasia experienced a process of climate aridization. As a result, under the conditions of a more arid climate, the nomadic pastoralist population of the Andronovo culture was forced to migrate southward within the region. This article summarizes archaeological sites of the Andronovo culture from the Bronze Age, specifically

settlements, burial structures, and incidental finds discovered in Central Asia, and based on these, analyzes the routes and stages of migration.

Keywords: Keywords: Eurasia, Central Asia, migration, bronze age, Andronovo culture, nomadics.

Каримова Д. О.

PhD., Тарих илмий бўлими мудири
ЎзР ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи
dilafruzkarimova4@gmail.com

ЎЗБЕК АРХЕОЛОГ ОЛИМИ АҲМАДАЛИ АСҚАРОВ ИЖОДИДА БРОНЗА ДАВРИ ЎТРОҚ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада таниқли ўзбек археолог олими, академик аҳмадали Асқаров илмий фаолиятида бронза даври деҳқончилик маданияти жамоалари томонидан яратилган маданиятларнинг ўрганилиши ҳақида сўз боради. Олим томонидан ўрганилган ва тарихга кирган Сополли маданияти бронза даври тарихий жараёнларини ёритишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар: археология, олим, Аҳмадали Асқаров, бронза даври, ёдгорлик, деҳқончилик маданияти, сопол буюмлар, қабр, заргарлик, топилма.

КИРИШ

Мақоланинг мақсади дунё тан олган ўзбек археолог олими, академик Аҳмадали Асқаровнинг илмий фаолиятидаги етакчи йўналишлардан бири Жанубий Ўзбекистон - қадимги Бактрия ҳудудидаги бронза даври ёдгорликларини ўрганилиши, уларнинг қадимги Шарқ цивилизациясида тутган ўрни ва аҳамиятини очиқ беришдан иборат.

Тадқиқот методологияси. Археологик объектларни илмий жиҳатдан ўрганиш, ашёларни тадқиқ этиш методологияси илмий асосга эга бўлиб, кўплаб турли фанларнинг ёндашувларини ўз ичига олади. Ушбу методология муайян маданият, халқ ёки даврнинг ҳаёт тарзини, урф-одатларини ўрганишга қаратилган. Шу билан бирга анализ, ретроспектив услублар орқали маълумотлар таҳлили асосида тарихни қайтадан жонлантиришга эришилган. Бундан ташқари бир олим илмий фаолиятининг маълум босқичи илмий таҳлили асосида ёдгорлик ва илмий фаолият уйғунлашган. Археологик ёдгорликларни тадқиқ этишда қўлланиладиган асосий методологик ёндашувлардан фойдаланилган.

Тадқиқотнинг алоҳида аҳамияти, ўзбек археолог олими Аҳмадали Асқаровнинг Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида олиб борган археологик экспедициялар натижасида илк деҳқончилик маданияти ёдгорликларини тарих фанига киритиши билан боғлиқ.

Ушбу мақоладаги тадқиқот етук ўзбек олимларининг фаолияти, илмий йўналишларини илмий тадқиқот кесимида маълум бир қиррасини (Аҳмадали Асқаров мисолида) очишга хизмат қилади. А.Асқаров Жанубий Ўзбекистонда бронза даври ёдгорликларини фундаментал ўрганиш учун махсус экспедиция уюштириб, унинг дала-тадқиқот ишларида бевосита фаол иштирок этди ва доимий илмий-рахбари бўлиб қолди. Муаллиф 1969 йилдан эътиборан бир неча археологик ёдгорликларни топиб, уларни чуқур тадқиқ этди. Сополлитепа ёдгорлиги тўлиқ очиб ўрганилди. Бундай ҳолат археология фанида камдан-кам учрайди. Сополлитепа нафақат бой топилмалари билан, балки бошқа ёдгорликларни ўрганишда ҳам ўзига хос ноёб «эталон» ёдгорлик бўлиб хизмат қилди. Пшактепа, Кучуктепа, Жарқўтон, Бўстон каби қадимги шаҳар ва қишлоқ қолдиқлари, улар билан боғлиқ қабристонлар тизимли равишда ўрганилиб, Марказий Осиё археологиясида ўз ўрнини топди. Олимнинг Жанубий Ўзбекистон ёдгорликларида олиб борган узок йиллик давомли изланишлари натижаси 6 та илмий монография ва 100 дан ортиқ илмий рисола ва мақолаларда умумлаштирилди.

Ана шу асарларда чиқарилган муҳим илмий хулосалардан бири Шимолий Бактрияда қадимги Шарқ цивилизациясининг янги ўчоғи - ўтроқ деҳқончилик ва илк шаҳарсозлик маданиятининг “Сополли маданияти” номи остида фанга киритилиши бўлди. Бу маданиятни келиб чиқиши, унинг ривожланиш босқичлари изчил бешта хронологик босқичларга бўлиниб, улар бой фактик далиллар билан исботлаб берилди.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Сополли ёдгорликларини ўрганиш жараёнида топилган минглаб топилмалар Ўзбекистон халқлари тарихида янгидан-янги саҳифаларни очди. Жумладан, қадимги деҳқончилик маданияти деярли 1000 йилга, ипакчилик ва пахтачилик тарихи 2000 йилга қадимийлаштирилди. Ўзбекистонни ипак ва пахтанинг илк ватанларидан бири эканлиги исботланди. Ўзбек давлатчилигининг маҳаллий илдизлари очиб берилди. Биринчи жаҳон дини зардуштийликнинг пайдо бўлиши ва шаклланиши Жанубий Ўзбекистоннинг Жарқўтон археологик ёдгорлиги мисолида кўрсатиб берилди.

Узоқ йиллар давомида олиб борилган узлуксиз дала тадқиқотлари, машаққатли меҳнат, ижодий изланиш А.Асқаровнинг «Жанубий Ўзбекистонда бронза даври деҳқончилик маданияти» номли йирик асарини нашр этилиши билан ўз якунини топди.

Археолог олим Аҳмадали Асқаровнинг илмий фаолиятидаги етакчи йўналишлардан бири Жанубий Ўзбекистон бронза даври ёдгорликларини

ўрганилиши, уларнинг қадимги Шарқ цивилизациясида тутган ўрни ва аҳамиятини очиб берилишидир. Шу муносабат билан 1969-74 йилларда олим махсус экспедиция уюштириб, унинг фаол қатнашчиси ва доимий илмий-раҳбари бўлиб қолди [1, – Б. 20].

Ўзбекистон тупроғидаги бронза даври қабилалари бир хилда тараққий топган эмас. Бу босқичда Сурхондарё, Зарафшон воҳаси ва Хоразм ҳудудида энг қадимги маконлар топилган. Ҳар қайси ҳудуднинг маданий тараққиётида ўзига хос хусусиятлар бўлган. Бу маданиятлар деҳқончилик – уй чорвачилиги ва яйлов чорвачилик – деҳқончилик билан шуғулланган қабилаларга мансубдир. Улар бир-биридан ажралган ҳолда тараққий қилган эмаслар ва қабилалар ўртасида кенг маданий алоқалар бўлган.

XX асрнинг 70 - йилларидан бошлаб, Жанубий Ўзбекистон ҳудудида бронза даври ўтроқ деҳқончилик маданияти ёдгорликларининг очилиши Ўзбекистоннинг қадимги давр тарихига кўплаб янгиликларни олиб кирди. Жанубий Ўзбекистон ҳудудида қадимги Шарқ цивилизациясининг янги ўчоғи - маркази очилди.

Бронза даври қадимги Шарқ цивилизациясининг Бактрия марказини жаҳон илмий жамоатчилигига етказишда Аҳмадали Асқаровнинг хизмати катта бўлди. Олим Сополлитепа, Жарқўтон, Бўстон каби ёдгорликларда кенг археологик қазилмалар ўтказиб, Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мил.авв. II минг йилликда қадимги Шарқ цивилизациясининг таркибий қисми, унинг маҳаллий марказларидан бири эканлигини исботлади.

Академик Аҳмадали Асқаровнинг Жанубий Ўзбекистон ҳудудларида олиб борган археологик тадқиқотлари Қадимги Бактрия географик жиҳатдан учта деҳқончилик минтақасига бўлинганлигидан дарак беради: улар Шеробод, Шўрчи ва Бандихон қадимги деҳқончилик воҳалари бўлиб, уларнинг йириги Шеробод деҳқончилик марказидир. Шеробод минтақаси хронологик жиҳатдан бешта ривожланиш босқичига, маданий жиҳатдан эса иккига – Сополли ва Кучуктепа маданиятларига бўлинади [2, – С. 5].

Тадқиқотчи томонидан кенг кўламли археологик тадқиқот ишлари олиб борилган Сополлитепа маданияти илк бор 1968 йилда Л.И.Альбаум ва Козловский томонидан Сурхондарё вилояти Шеробод чўлида ташкил топган Гагарин туманининг “Советобод” совхози ҳудудидан топилган. Сополлитепада ўтказилган қазилмалар археологлар қўлига фавқулотда бой материалларни берди [3, – Б. 45].

Сополлитепа Амударёдан 2,5-3 км.лар чамаси шарқда, Кўхитонг дараларидан бири бўлган Қайнарбулоқ асосида вужудга келган Уланбулоқсойнинг ёқасида жойлашган. Уланбулоқсойнинг қуйи ҳавзасида

кадимги бободехқонларимизнинг қишлоғи қад кўтаради. Ана шу қишлоқ харобалари аҳоли орасида Сополлитепа деб юритилади [4, – Б. 69].

Сополлитепанинг дастлабки майдони 4 гектар бўлиб, 60 йилларнинг бошларида Шеробод чўлини ўзлаштириш муносабати билан ёдгорликнинг катта қисми бузиб ташланиб, пахта майдонига айлантирилган. Олим раҳбарлигидаги экспедиция аъзолари бу ёдгорликнинг сақланиб қолган марказий қисмида қазув ишларини олиб борадилар. “Сополлитепанинг сақланиб қолган қисми 3 гектар бўлиб, унинг марказий қисмида 82х82 метрли квадрат шаклида қалъа топилди. Қалъанинг чор атрофи уч қатор мудофаа деворлари билан ўралган. Унинг орасида 3 метрлик коридор жойлашган бўлиб, коридорнинг узунлиги чор томонда ҳам бир хил. Сополлитепа қалъа-қўрғонига ташқаридан қараганда 4 та дарвоза билан кириш мумкин. Бироқ шаҳарга кирадиган дарвоза битта бўлиб, жануб томондан кирилган. Қолгани душманга қарши тузоқ вазифасини ўтаган. Сополлитепа қалъа-қўрғони 8 та патриархал уруғ жамоасига – маҳаллаларга бўлинган бўлиб, уларни бир-биридан тор кўчалар ажратиб турган. Қалъа-қўрғоннинг марказида марказий йиғин ўтказадиган майдони бўлиб, ана шу майдон томон қалъа дарвозасидан йўл келган. Маҳаллалараро тор кўчалар ана шу бош йўл ва қалъа очиқ майдони билан бошланган” [5].

Бу ерда яшайдиганларнинг уйлари мудофаа девори ости бўйлаб жойлашган. Уларнинг уйлари кўп хонали бўлиб, сомон қўшилган хом ғиштдан қурилган. Ҳар бир маҳаллада 25-30 тагача жуфт оила хонадонлари жойлашган.

Қадимги Бактрия жамиятнинг илк босқичи Сополлитепа ёдгорлиги “Авесто”нинг “вис” кўринишини ифодалайди. Бу даврда зардуштийлик дини хали расман дин сифатида ўз ўрнини топмаган эди. Сополлитепа оташпарастлари ёдгорлигида жамиятнинг илк зардуштийлик билан боғлиқ барча элементлари таркиб топмаган эди. Шу боис, Сополлитепадан зардуштийликка оид саждагоҳ ёки патриархал оилага тегишли ибодатхона қурилмаси қолдиқлари топилмади. Аммо Сополлитепада зардуштийликнинг баъзи бир кўз илғамас излари бор, яъни кўп хонали турар-жойларнинг бирида оилавий алтарлар чуқурчаси сақланган бўлиб, унинг тагида эса оппоқ кул қолдиғи учрайди. Бу эса Сополлитепаликлар оташпарастлар эканлигидан далолат беради. Аммо, Сополлитепа жамиятининг баъзи бир жиҳатлари “Авесто” ижтимоий тузилмасига мос келади, яъни Сополлитепа қалъа-қўрғони Варни эслатади. Вар эса шаҳарсозлик маданияти тизимида протошаҳардир. Бу эса “Авесто” жамиятининг зардушт яшаган даврга қадар бўлган даврини, яъни протозардуштийлик даврини эслатади [6, – С. 8].

“Авесто” вари одатда уруғ жамоалари, аниқроғи бир неча катта патриархал оилалар (нманалар) қароргоҳи бўлган. Шундай экан, “Авесто”нинг қадимги ижтимоий таркиби ва “Авесто” жамиятининг иқтисодий асоси Сополлитепа 8 та катта патриархал оилалар – нманалардан ташкил топган Виснинг қароргоҳидир, яъни катта патриархал уруғлар жамоасининг моддий маданиятдаги аксидир [7, – С. 119].

Сополлитепада патриархал уруғчилик аънаналари тўла сақланган бўлиб, унинг патриархал катта оилалари тепасида нманапати, уларни бирлаштирган кишлоқ жамоаси тепасида эса уруғ оқсоқоли – сардори Виспати турган.

Сополлитепа аҳолиси ўтроқ деҳқончилик жамоаси бўлганлигидан уларда чорвадор жамоалар каби бошлиқ бўлмаган ва мулкӣ табақаланиш ўзининг дастлабки қадамларини босмоқда эди. Шунинг учун, Сополлитепа аҳолисининг таркибини ўрганиш чоғида ижтимоий табақалар ҳақида материаллар учрамайди [8, – С. 140].

Археологлар ҳар бир мавзени текшириб чиқиб, бу ерда жойлашган уй-жойларга таъриф бердилар. Олим топилган уй хоналарига таъриф берар экан, жумладан шундай дейди: – “ҳар бир оила кўп хонали уйларда яшаган. Уй хоналарининг бири ётоқхона, 2 чиси ошхона, 3 чиси омборхона, 4 чиси тўқимачилик станоклари жойлашган хоналардан иборат. Ҳар бир жамоанинг ўз катхудоти (жамоа оқсоқоли) бўлиб, у ҳар бир кварталнинг марказида яшаган. Катхудот ховлисида яна бир хона бўлиб, у қуёшга сиғиниш оташкадаси эди. Сополлитепа даврида яшаш хоналари ичида сандал, ховлига эса тандир қурилган. Хона омборхоналарининг полига сопол парчалари териб чиқилган” [5].

Сополлитепа аҳолисининг алоҳида қабристони бўлмаган. Ҳар бир оила ўзи яшаган уйнинг поли тагига, девори остига, остонага, ўчоқ ёнига қилинган чуқурчаларга кўмилган. Жамоа оқсоқоли ўзи яшаган уйнинг поли тагига кўмилган. Эркаклар асосан остона остига кўмилган бўлса, аёллар ўчоқли уйларга кўмилган.

Сополлитепада олиб борилган тадқиқотлар натижасида 158 та қабр очилган. Ўрганилган қабрларнинг 125 таси алоҳида, якка қабрлар бўлса, 13 та жамоавий кўмилган қабрлар жумласига киради. Шундан 104 таси ўсмир ёшлилар, 7 таси катта ёшлилар, 47 таси ўн ёшгача бўлган болаларнинг қабрлари ҳисобланади. Яна ўрганилган қабрларнинг 4 тасида ҳайвон кўмилган бўлса, 6 таси кенотаф, яъни майитсиз қабрлиги аниқланган [2, – С. 38]. Уларнинг ҳаммаси худди ҳозиргидек айвонли лаҳат кўринишидаги қабрларга қўйилган. Мозорларда бронзадан ишланган турли хил тақинчоқлар, ишлаб чиқариш меҳнат қуроллари, уруғ жамоаси диний-эътиқод билан боғлиқ бўлган тумор-муҳрлар, қимматбаҳо тошлардан ясалган

хилма-хил мунчоқлар, олтин мунчоқлар, кумуш ҳалқа ва билакузукларни учратиш мумкин. Эркаклар мозорларидан асосан чакмоқтошдан ишланган пайконлар, бронза ойболта, пичоқ, митти теша, болта ва бошқалар топилган. Аёллар қабридан эса, урчуқ тош, бронза сурмадонлари, сурматош, тўқимачилик бигизлари, ҳайвон суратлари ва бошқа шакллар билан безатилган бронза тўғнағичлар, дастали ва дастасиз жез ойналар, игна бигиз, митти куракча ва бошқалар қўйилган. Ҳар бир одам алоҳида тайёрланган идишларда овқатлар билан қўмилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, эркак киши қўмилган қабрларга нисбатан, аёл киши қўмилган қабрлар бир мунча бой бўлган. Уларнинг қабрида мухрни учратиш мумкин. Шундай экан, баъзан аёлларнинг ҳуқуқи баланд бўлганлигини, оила ва насл давомийлигини таъминловчи сифатида эркаклар олдида хурмати катта бўлганлигидан далолат беради [9, – С. 31].

“У даврда кафанга ўраш бўлмаган. Сополлитепаликлар катта ёшдаги кишилар ўлими муносабати билан унинг руҳига атаб, ҳайвон қурбонлик қилиш одати бўлган. Қурбонлик учун асосан қўй ёки эчки сўйилган. Уларнинг одатига кўра, қурбонлик қилинган ҳайвоннинг битта қўл кураги, 4-5 та қовурғаси, 2 та кейинги оёғи, каттароқ аёл ёки эркак бўлса, кўкрак қисмининг гўшти идишга солиниб, қабрга қўйилган. Қабрлардаги аёллар бўйнидаги мунчоқ ва ундаги ҳайвон суратлари ўлган кишини инсу-жинсдан кўриқлайди, деб ишонганлар”[5]. Агар, ўлган киши ёши улуғ, нуфузи баланд бўлса, унинг қўмиш маросимига оддий одамникига нисбатан кўпчилик қатнашган. Маросимга келганларнинг ҳаммаси идишларда овқат ва ичимлик (хаома) олиб келиб, қабрга қўйганлар.

Баъзи бир яхши сақланган мозорларда буғдой, арпа поясидан тўқилган саватчалар, теридан, ёғочдан ишланган идишлар, мармар тошдан йўнилган хурмачалар топилган. Мозорларга қўйилган буюмларнинг таркибига қараб, бу “дурадгор уста” мозори, бу “тўқимачи” мозори, бу “овчи” ёки “жангчи” мозори деб аташ мумкин [3, – Б. 49].

Дарҳақиқат бронза даври ўтроқ деҳқончилик жамияти таркиби “Авесто”да илгари сурилган ижтимоий тузилишларни акс эттиради. Бирок аҳолининг ижтимоий таркиби “Авесто”да чорва билан белгиланганлиги сабабли, бундай ҳолат ўтроқ деҳқончилик маданияти материалларида кузатилмайди, фақат баъзи бир қабрлардагина бронза даври жамиятида жамоанинг нуфузли кишилари, диний-дунёвий раҳнамолар мавжуд эканлигини кўрсатувчи баъзи бир ашёвий-далиллар учрайди, холос. Шу сабабли, Сополлитепада олиб борилган археологик тадқиқотларда жамиятнинг аниқ табақаларга бўлиниши кузатилмайди.

Сополлитепаликлар асосан суғорма деҳқончилик ва хонаки чорвачилик билан шуғулланганлар. Деҳқончиликда асосан дон, шу билан бирга ”ҒЎЗА” деб номланган пахтанинг қадимги нави ҳам экилган. Топилган уй-жойларнинг сомон билан шувалгани, қорайиб, куйган ҳолатда бизгача етиб келган дон қолдиқлари шундан далолат беради [10, – Б. 77]. Топилмалар орасида донни янчадиган, тозалайдиган, ун қиладиган асбобларнинг, яъни, тош ёрғучоқ ва тош кели-сопларнинг кўплиги ҳам доннинг бу хўжаликда бош ўрин эгаллаганлигидан дарак беради.

Сополлитепа маданияти уруғ жамоалари ҳаётида хунармандчилик муҳим аҳамият касб этган. Маданиятга тегишли ёдгорликни қазिश вақтида қўлга киритилган материалларга қараб, хунармандчиликнинг турли соҳалари ривож топганлигини айтиш мумкин. Бу борада кулолчилик алоҳида диққатга сазовордир. Сополлитепа кулоллари тажрибали эдилар. Улар ясаган сопол идишлар ўзининг хилма-хиллиги, сифати ва пиширилиши жиҳатдан ҳозирги замон чини саноати маҳсулотларидан қолишмайди [4, – Б. 72]. Бундан 3,5-4 минг йил олдин ишланган кулолчилик маҳсулотлари ўз шакли ва таркибини ўзгартирмай сақланиб қолганлиги ҳар кимни ҳам ўйлашга мажбур қилади. Аҳмадали Асқаров бошчилигидаги археологларнинг тинимсиз, машаққатли изланишлари туфайли, сопол идишларнинг барча турлари кулолчилик чарҳида ишланиб, икки ярусли хумдонларда пиширилганлиги аниқланди. Шунинг учун, улар хушбичим, нафис, чиннидек жарангдор, кўринишда санъат намунаси даражасида ишланган. Идишлар лойдан ташқари бронзадан, тошдан, ёғочдан ҳам ишланган. Айрим мазорларда лух ва арпапоядан тўқилган саватлар ҳам топилди [4, – Б. 72].

Сополлитепада хунармандчиликнинг яна бир тури, тўқимачилик ҳам ўзининг юксак ривожини топган. Ёдгорликка тегишли мазорларнинг бир нечтасида кийим қолдиқларининг топилиши, бу кийим қолдиғи лаборатория текширувидан ўтказилганда, уларнинг табиий пахта ва ипакдан ишланганлиги маълум бўлди. Бу буюк ихтиро эди. Чунки бу ўтмишда, аниқроғи бронза давридан бошлаб, бобокалонларимизнинг пахта билан шуғулланганликларидан далолат беради.

Яқингача Ўрта Осиёда, ўзбек ва тожиклар тарихида ипакчилик 2 минг йиллик тарихга эга, дейилар эди. Эндиликда Сополлитепа топилмалари бу қарашларга жиддий тузатишлар киритиб, Ўрта Осиёда, жумладан Ўзбекистонда ипакчилик тарихининг илдизлари бронза даврига бориб тақалиши исботланди [4, – Б. 73]. Юртимизда пахтачилик тарихи 1,5-2 минг йилдан ошмас эди. Сополлитепа ёдгорлигида олиб борилган изланишлар туфайли унинг тарихи ҳам 3,5 минг йилдан кам эмаслиги аниқланди. Мил.авв. III минг йилликнинг сўнгги чораги II минг йилликнинг биринчи

чораги оралиғида сунъий суғоришга асосланган ўтроқ деҳқончилик маданиятининг жадал ривожланиши, бронза ва бошқа меҳнат куроллари самарадорлигининг ортиб бориши иқтисодий барқарорликни вужудга келтирди. Бу эса кичик деҳқончилик воҳаларининг заминида протошаҳарнинг вужудга келишига имкон яратиб берди.

Шунингдек, илк шаҳарлар тарихи ҳақидаги тасаввурларимиз ҳам роса минг йилга қадимийлашди. Сополлитепа қишлоқ-қўрғони ўрганилиши натижасида Ўрта Осиёда ва Эрон халқлари ўтмиш тарихининг нодир ёзма манбаи ҳисобланган “Авесто”да таърифланган қадимги шаҳарларнинг археологик исботи қўлга киритилди. Энг муҳими, агар авваллари Турон замин ҳудудида илк шаҳарнинг пайдо бўлиш негизлари Эрон ҳудудларидан қидирилган бўлса, эндиликда, А.Асқаров тадқиқотлари туфайли Ўзбекистон илк шаҳарларининг келиб чиқиш негизи, моддий ва маданий асоси мамлакатимизнинг жанубий минтақаси эканлиги исботланди.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, 1969-74 йиллар давомида археолог-олим томонидан олиб борилган қазилма ишлари туфайли, Сополлитепа ёдгорлиги тўлиқ ўрганилди. Бу ишни бажариш тадқиқотчидан кунт, бардош, сабр-тоқат ва энг муҳими, чуқур назарий билимни талаб этар эди. Олим, ана шу талаб ва тамойилларга муносиб тадқиқотчи сифатида жаҳон мутахассислари орасида ўзини намойиш эта олди. Узоқ йиллар давомида олиб борилган узлуксиз дала тадқиқотлари, машаққатли меҳнат, ижодий изланишлари натижаси олим томонидан эълон қилинган бир нечта мақолаларда, 1973 йилда рус тилида нашр этилган “Сапаллитепа” ҳамда, 1977 йилда нашр этилган “Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана” номли асарларида ўз ифодасини топган.

Хуллас, тадқиқотчи томонидан Сополлитепа ёдгорлигида олиб борилган беш йиллик илмий изланишларининг самараси Ўзбекистон ва қўшни Тожикистон халқлари тарихига бой хазина бўлиб фанга кирди. Шунинг учун ҳам бу маконда олиб борилган тадқиқотларнинг якуни 1970 йилларнинг йирик илмий кашфиёти сифатида фан оламида муносиб жой эгаллади. Ёдгорликнинг хилма-хил археологик манбаларга бойлиги ва бу ерда аждодларимиз яратган юксак маданиятнинг ўзига хослиги туфайли “Сополлитепа маданияти” номи билан нафақат Ўзбекистон тарихи фанида балки, жаҳон тарихида ўзининг муносиб ўрнига эга бўлди. Изланишлар натижасида тадқиқотчи докторлик даражасини олишга асос яратди. Буларнинг барчаси олимнинг машаққатли меҳнати ва тинимсиз изланишлари самарасидир.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Академик Аҳмадали Асқаровнинг илмий-иждоий ва педагогик фаолияти. Тошкент, 2005. – С. 20.
2. Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана.– Т.: “Фан”, 1977. – С. 5.
3. Асқаров А. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. Самарқанд. , 1977. – Б. 45.
4. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. Т.:”Ўқитувчи” 1994. – С. 69.
5. Академик Аҳмадали Асқаров билан “Ўрта Осиёда қадимги давлатчилик ва унинг археологик белгилари” мавзусидаги иждоий суҳбат. Т.: 9 октябр. 2006.
6. А.Асқаров. Бронзовый век Южного Узбекистана (к проблеме развития локальных очагов древневосточных цивилизации). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. М. 1976. –с.8.
7. Асқаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993.-с.119.
8. Асқаров А. Сапаллитепа. –Т.: “фан”. 1973. –с.140.
9. Асқаров А.А, Буряков Ю.Ф, Квирквелия О.Р, Радилюковский В.В. Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. Т.: «Фан», 1988, -С.-31.
10. Қайюмов А. Академик Аҳмадали Асқаров. Т.: “Фан”, 2005. –Б.-77.

Каримова Д.О.

PhD., заведующий научным отделом истории
Государственный музей истории Узбекистана
dilafruzkarimova4@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет об изучении культур, созданных сообществами земледельческой культуры бронзового века в научной деятельности известного узбекского ученого-археолога, академика Ахмадали Аскарова. Культура Сапалли, изученная ученым и вошедшая в историю, служит важным источником информации об исторических процессах бронзового века.

Ключевые слова: археология, ученый, Ахмадали Аскаров, бронзовый век, памятник, земледельческая культура, керамика, могила, ювелирные украшения, находка.

Karimova D.O.

PhD., head of the scientific department of history
State museum of the history of Uzbekistan
dilafruzkarimova4@gmail.com

ABSTRACT

This article will focus on the study of cultures created by communities of agricultural culture of the Bronze Age in the scientific activity of the famous Uzbek scientist-archaeologist, academician Akhmadali Askarov. The Sapalli culture, studied by the scientist and entered into history, serves as an important source of information about the historical processes of the Bronze Age.

Key words: archaeology, scientist, Akhmadali Askarov, bronze Age, monument, agricultural culture, ceramics, grave, jewelry, find.

Курязова Л. Р.

«Ўзбекистон тарихи» кафедра изланувчиси
Ўзбекистон Миллий Университети
kuryazovalaylo7@gmail.com

ЎЗБЕКИСТОНДА ОДАМ САВДОСИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ БОРАСИДАГИ ХУЖЖАТЛАРНИНГ РАТИФИКАЦИЯ ҚИЛИНИШИ ТАРИХИДАН

АННОТАЦИЯ

Мақолада кенг кўламли адабиётлар, архив маълумотлари ва қонун ҳужжатлари асосида одам савдоси – кўп қиррали хавф ва инсон ҳуқуқларига қарши жиддий жиноят эканлиги, у одамлардан уларнинг ҳуқуқлари ва эркинлигини тортиб олиши, шахсий дахлсизлигига ҳамда уларнинг соғлигига бевосита хавф солиши ҳамда бутун жаҳонда уюшган жиноятчиликнинг ўсишига сабаб бўлаётганлиги ҳақида сўз боради. Ҳамда мақолада Ўзбекистонда одам савдосини олдини олиш борасидаги ҳужжатларнинг ратификация қилиниши тарихи таҳлил қилинган.

Ключевые слова: одам савдоси, ратификация, куллик, одам ўғирлаш, зўрлик, реабилитация маркази, ОИВ, ОИТС.

КИРИШ

Одам савдоси - куч билан таҳдид қилиш ёки куч ишлатиш ёхуд бошқа мажбурлаш шаклларида фойдаланиш, ўғирлаш, фирибгарлик, алдаш, ҳокимиятни суиистеъмол қилиш ёки вазиятнинг қалтислигидан фойдаланиш орқали ёхуд бошқа шахсни назорат қилувчи шахснинг розилигини олиш учун уни тўловлар ёки манфаатдор этиш эвазига оғдириб олиш орқали одамлардан фойдаланиш мақсадида уларни ёллаш, ташиш, топшириш, яшириш ёки қабул қилиш ҳисобланади. Мақолада одамлардан фойдаланиш бошқа шахсларнинг фоҳишалигидан фойдаланишни ёки улардан шахвоний фойдаланишнинг бошқа шакллари, мажбурий меҳнат ёки хизматларни, куллик ёки кулликка ўхшаш одатларни, эрксиз ҳолат ёхуд инсон аъзолари ёки тўқималарини ажратиб олиш тушунилиши қиёсий таҳлил, муаммоли-хронологик ва миқдорий таҳлил, тизимли таҳлил ҳамда оғзаки тарих (oral history) методлардан фойдаланилган.

Одам савдосига қарши курашиш соҳасига у ёки бу даражада дахлдор бўлган тадқиқотларни қуйидаги турларга бўлиб ўрганиш мумкин:

Биринчидан, республика миқёсида олиб борилган тадқиқот ишлари. Ўзбекистонлик тадқиқотчилар томонидан олиб борилган тадқиқотлар асосан инсон ҳуқуқлари, аёлларнинг ҳуқуқий мақоми ва трафиғи, аёллар ва болаларни ёллашга қарши курашга оид муаммолар доирасида ёзилган бўлиб, булар сарасига Г.А.Маткаримова, М.А.Тиллабоев, М.А.Хамидова, Э.Х.Холова, Ш.Х.Ҳамраевалар[1] нинг тадқиқотларини кўриб чиқиш мумкин. Олиб борилган тадқиқотлар эса асосан миграция, одам савдосига оид бўлиб, ушбу мавзунинг иқтисодий[2], ҳуқуқий[3] жиҳатларини тадқиқ этганлар.

Иккинчидан, хориж давлатларида олиб борилган тадқиқотлар. Мавзу доирасида хорижий давлат тадқиқотчилари[4] илмий ишларида одам савдосининг асосан ижтимоий-психологик, демографик, криминологик соҳалари атрофлича тадқиқ этилган. Одам савдоси оқибатида жабрланган аёллар ва болаларни ҳимоя қилишнинг халқаро-ҳуқуқий жиҳатлари ҳуқуқшунос олимлар Ш.Х.Ҳамраева ва Э.Х.Холовалар[5] томонидан олиб борилган тадқиқотларда ўрганилган бўлиб, одам савдоси жабрланувчиси ҳисобланувчи аёллар ва болаларни ҳимоя қилишда давлатлараро ҳамкорликнинг халқаро-ҳуқуқий асослари, минтақавий ташкилотларнинг ушбу жараёндаги иштирокига алоҳида урғу бериб ўтилган.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Одам савдоси қўлликнинг замонавий усули, қўл савдосининг янги кўри-ниши бўлиб, жиноятчилар, биринчи навбатда, хотин-қизлар ва болаларни мажбурий меҳнат ва жинсий қўллик қопқонига алдаб туширмоқдалар. Одам савдоси билан шуғулланувчи шахслар куч ишлатиш, фирибгарлик, мажбур-лаш ва бошқа жиноий воситалардан фойдаланган ҳолда, ҳимояга муҳтож, заиф ва тушқинликка тушган инсонларни дунёнинг бошқа давлатларига олиб кетадилар[6, 21 с]. Маълумотларга кўра Ўзбекистон фуқаролари ҳам фоҳишалик учун БАА, Таиланд, Туркия, Ҳиндистон, Исроил, Малайзия, Жанубий Корея, Япония ва Коста-Рика олиб чиқиб кетилди[7, 19 с]. Мажбурий меҳнат учун республика фуқаролари мажбурий меҳнат ёки хизмат кўрсатиш учун асосан Қозғистон ва Россияга олиб чиқиб кетилган[8, 3 с]. Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиқиб, бугунги кунда республикада қонун устуворлигини таъминлаш, одам савдосига қарши кураш борасидаги фаолият самарадорлигини ошириш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлари фаолиятини янада такомиллаштириш, жиноятларни аниқлаш, фош этиш ва тергов қилиш соҳасида самарадорликни ошириш, одам савдосига қарши кураш фаолиятини тартибга солувчи миллий ва халқаро нормалари ва уларни амалга ошириш билан боғлиқ ҳуқуқни қўллаш амалиётини чуқур ва танқидий ўрганиш, одам

савдосига қарши кураш долзарб масалалардан бири бўлиб қолди. Мустақилликнинг дастлабки йилларидан Ўзбекистонда одам савдосига қарши кураш борасида мақсадли сиёсат шакллантирилди ва фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқларига алоҳида диққат-эътибор қаратилди. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мамлакатда яшовчи барча инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини давлат томонидан ҳар қандай таҳдидлардан қўриқлаш муаммоси концептуал жихатдан ўз ечимини топди. Конституция ўзида барча миллий анъаналарни ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартлари тўла мужжассамлаштира олди. Ушбу Конституцияда инсон ва фуқаро ҳуқуқ ва эркинликлари шахсий, ижтимоий ва иқтисодий, сиёсий ҳамда бошқа ҳуқуқ туркумларига ажратилиб, алоҳида белгилаб берилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида яшаш ҳуқуқи ҳар биринсоннинг узвий ҳуқуқи эканлиги, инсон ҳаётига суиқасд қилиш энг оғир жиноят ҳисобланиши белгиланди. Ҳар кимнинг эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқига эга эканлиги ҳам мустаҳкамланди[9]. Конституциянинг 46-моддасида эса “Хотин-қизлар ва эркаклар тенг ҳуқуқлидир” деб белгиланди. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 135-моддасида «Одамлардан фойдаланиш учун уларни ёллаш», 137-моддасида «Одам ўғирлаш», 138-моддасида «Зўрлик ишлатиб ғайриқонуний равишда озодликдан маҳрум қилиш» белгилаб қўйилди.

Ўзбекистон инсон ҳуқуқлари, жумладан аёл ҳуқуқлари бўйича 60 га яқин халқаро ҳужжатларга қўшилди. Бундан ташқари, БМТ томонидан мазкур соҳада қабул қилинган асосий халқаро шартномалар иштирокчисига айланди. Хорижий давлатлар билан уюшган жиноятчиликнинг (шу жумладан, одам савдосининг) хавфли кўринишларига қарши кураш ҳақида шартнома ва келишувлар имзолади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1991 йил 30 сентябрдаги 366-ХП сонли Қарори билан “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси”га[10], Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 йил 9 декабрдаги 757-ХП-сонли Қарори билан “БМТнинг Бола ҳуқуқлари тўғрисида Конвенцияси”га[11], Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 31 августдаги 127-И-сонли Қарори билан “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида халқаро Пакт”га қўшилди[12]. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 6 майдаги 87-И-сонли Қарори билан “Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариغا барҳам бериш тўғрисида Конвенцияси”га[13], Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 30 августдаги 498-И-сонли Қарори билан “ХМТнинг Мажбурий меҳнатни тугатиш тўғрисида Конвенцияси”га[14], Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2003 йил 30 августдаги 536-П-сонли Қарори билан “БМТнинг

Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши Конвенцияси”га[15] кабиларга ҳам қўшилди. БМТнинг 2000 йил 15 ноябрда қабул қилинган “Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши” Конвенцияси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2003 йил 30 августдаги 536-II-сонли БМТнинг Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши Конвенциясини ратификация қилиш тўғрисида”ги қарори билан ратификация қилинди ва 2004 йил 8 январдан кучга кирди¹⁸. БМТ 1949 йил 2 декабрда қабул қилган “БМТнинг Одам савдосига ва учинчи шахслар томонидан танфурушликдан фойдаланишига қарши кураш тўғрисида Конвенцияси”га Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2003 йил 12 декабрдаги 576-II-сонли Қарори билан қўшилди[16], 2004 йил 27 майда кучга кирди.

Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси одам савдоси ва кулликка қарши БМТ Бош Ассамблеясининг 2000 йил 20 майда қабул қилган “Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияга доир, болалар савдоси, болалар фоҳиша-бозлиги ва болалар порнографиясига таалуқли Факультатив протокол” 2008 йилда, Халқаро меҳнат ташкилоти томонидан 1957 йил 25 июнда қабул қилган “Мажбурий меҳнатни тугатиш тўғрисида”ги конвенцияси 1997 йилда, шу ташкилот томонидан 1999 йил 17 июнда қабул қилган “Болалар меҳнати-нинг оғир шакллари таъқиқлаш ва йўқ қилишга доир шошилиш чоралар тўғрисида”ги Конвенциясини 2008 йилда ратификация қилди. Шу жихатдан Ўзбекистонда ҳам бу кабилар салбий ҳолатларни олдини олиш, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, ҳамда одам савдосига қарши курашиш ва унинг олдини олиш мақсадида бир қатор чора – тадбирлар белгиланди.

Шу билан бир қаторда, айти пайтда Республикада Одам савдосини олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича яна бир қатор ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар мавжуд бўлиб, улар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сон Қонуни билан тасдиқланган 1995 йил 1 апрелдан кучга кирган Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси; Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2013-XII-сон Қонун билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 6 январдаги 8-сон Қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет элга боришлари тартиби тўғрисидаги Низом”; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 12 ноябрдаги 505-сон Қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет эллардаги меҳнат фаолияти тартиби тўғрисида Низом”; Адлия вазирлиги ва Ички ишлар вазирлигининг

¹⁸<https://lex.uz/docs/1304566>

2007 йил 12 январдаги 2/2, 3-сон қарори билан тасдиқланган “Судлар, суд процесслари ва улар иштирокчиларининг хавфсизлигини таъминлаш тартиби тўғрисида Йўриқнома” ва ҳ.к.

Ўзбекистон Республикасида одам савдосига қарши кураш ва унинг олдини олиш учун самарали чораларни амалга ошириш мақсадида 2000 йил 15 ноябрда қабул қилинган БМТнинг трансмилий уюшган жиноятчиликка қарши Конвенциясини тўлдирувчи “Одам савдосининг, айниқса аёллар ва болалар савдосининг олдини олиш ҳамда унга чек қўйиш ва унинг учун жазолаш ҳақида”ги баённомаси[17] Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 8 июлдаги ЎРҚ-160-сонли Қонуни билан ратификация қилинди[18] ва 2008 йил 11 сентябрдан кучга кирди¹⁹. Бу баённомада назарда тутилган нормалардан келиб чиқиб, 2008 йил 17 апрелда Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-154-сон “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Қонунда одам савдосига қарши курашиш, одам савдоси, одам савдоси билан шуғулланувчи шахс каби тушунчаларга таъриф бериб ўтилди. Қонуннинг 4-моддасига асосан, одам савдосига қарши курашиш асосий принциплари бўлиб, қонунийлик, одам савдоси билан шуғулланувчи шахслар жавобгарлигининг муқаррарлиги, одам савдосидан жарланганларнинг камситилишига йўл қўймаслик, ижтимоий ҳамкорлик қилиб белгиланди[19]. Қонунга кўра одам савдосига қарши курашиш бўйича фаолиятни бевосита амалга оширувчи давлат органлари белгиланди, уларга Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги, Ўзбекистон Республикасининг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги киритилди.

2008 йил 8 июлда Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг «Одам савдосига қарши курашиш самарадорлигини ошириш чора - тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-911-сонли қарори қабул қилинди. Қарорда одам савдоси билан боғлиқ тушунчаларга изоҳ берилди; одам савдосига қарши курашишнинг асосий принциплари, бу соҳада давлат сиёсатининг асосий йўналишлари, одам савдосига қарши курашишни амалга оширувчи ҳамда унда иштирок этувчи органлар ва ташкилотлар; одам савдоси профилактикаси; одам савдосидан жабрланганларни идентификация қилиш ва уларни ҳимоя қилиш юзасидан давлат органларининг ҳамкорлиги; одам савдосидан жабрланганларни ҳимоя қилиш ва уларга ёрдам кўрсатиш; вояга етмаганлар

¹⁹<https://lex.uz/ru/docs/1463681>. Мурожат қилинган сана 25 февраль 2024 йил.

савдосига қарши курашишнинг ўзига хос хусусиятлари; одам савдосига қарши курашиш соҳасидаги халқаро ҳамкорлик масалалари ўз аксини топди.

“Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги Қонун қабул қилингандан сўнг одам савдоси жиноятларини содир этганлик учун жавобгарлик масалаларини такомиллаштириш мақсадида 2008 йил 16 сентябрда “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисидаги қонуни қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни қабул қилиниб, унга кўра Жиноят кодекси 135-моддасининг янги таҳрири “Одам савдоси” деб қайта номланиб[20], бир қатор қўшимча ва ўзгартишлар киритилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 5 ноябрдаги “Одам савдоси жабрдийдаларига ёрдам бериш бўйича Республика реабилитация марказини ташкил этиш тўғрисида”ги 240-сонли қарорлари асосида жабрланганларга тиббий, психологик, ижтимоий ва ҳуқуқий ёрдамлар кўрсатилиши бўйича миллий тизим белгиланди. Мазкур қарор асосида Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳузурида Одам савдоси жабрдийдаларга ёрдам бериш ва уларни ҳимоя қилиш бўйича 30 ўринга мўлжалланган Республика реабилитация маркази ташкил этилди. Марказ одам савдосидан жабрланганларга тиббий, психологик, ижтимоий, юридик ёрдам бериш, қулай яшаш ва шахсий гигиена шароитлари яратиб, уларни озик-овқат, дори воситалари ва тиббий буюмлар билан таъминлашни амалга ошириши белгиланди. Марказ хизма-тидан одам савдоси жабрланувчилари 30 кунга қадар ёки зарурият туғил-ганда 3 ой муддатгача фойдаланишлари мумкин қилиб белгиланди[21].

Ўзбекистон Республикасининг 2009 йил 16 апрелдаги “Иш берувчининг жавобгарлигини мажбурий суғурталаш тўғрисида”ги Қонунида ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 24 июндаги 177-сон қарори билан тасдиқланган Иш берувчининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш Қоидалари Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг меҳнат хавфсизлигини таъминлашга, ўз меҳнат вазифаларини бажариш билан боғлиқ олган зарарларини ўз вақтида қопланишига тўла хизмат қилди.

Юқорида қабул қилинган меъёрий – ҳужжатларда белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2010 йил 3 ноябрдаги 311-сонли ва 2011 йил 13 апрелдаги 110-сонли буйруқлари қабул қилинди[22]. Мазкур буйруқларга асосан доимий ишчи гуруҳ тузилди, одам савдосидан жабр кўрганлар тўғрисидаги ҳисоботларнинг шакллари ва топшириш муддатлари, шунингдек одам

савдосидан жабр кўрганларни тиббий кўрикдан ўтказиш ва тарғибот-ташвиқот ишларини амалга ошириш вазифалари юклатилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми эса 2009 йил 24 ноябрда «Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 12-сон қарорини қабул қилди. Унда одам савдоси одамнинг бир шахс томонидан бошқасига пул, бошқа моддий қимматликлар (мулк), мулкый характердаги хизматлар, мулкый ёки пул шаклидаги қарздан воз кечиш ва ҳ.к.лар сифатидаги ҳақ эвазига берилиши тўғрисида ёзма ёки оғзаки битим тузилиши назарда тутилди[23]. Олиш-сотиш тариқасидаги одам савдосидан фарқли равишда, Жиноят кодексининг 135-моддасида назарда тутилган бошқа барча ҳоллар (ёллаш, ташиш, топшириш, яшириш, қабул қилиш)да жиноий жавобгарлик юзага келишининг зарур шарти одамни эксплуатация қилишга қаратилган мақсад мавжудлиги ҳисобланди. «Одамни эксплуатация қилиш» тушунчасига Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарорида «одамни эксплуатация қилиш – бошқа шахслар фоҳишабозлигидан фойдаланиш ёки бошқа кўринишдаги шахвоний эксплуатацияни, мажбурий меҳнат ёки хизматлар, қуллик ёки қулликка ўхшаш одатлар, эрксизлик ҳолати ёки одам аъзолари ёки тўқималари олинишини англатади» дея шарҳ берилди [24, 149 б.].

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 49-моддасида меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун ва 491-моддасида вояга етмаган шахсларнинг меҳнатидан фойдаланишга йўл қўймаслик тўғрисидаги талабларни бузганлик учун маъмурий жавобгарлик назарда тутилди. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекснинг 49-моддасида меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун ва 49¹ моддасида вояга етмаган шахсларнинг меҳнатидан фойдаланишга йўл қўймаслик тўғрисидаги талабларни бузганлик учун маъмурий жавобгарлик кўзда тутилди[25].

Ҳозирги даврда гендер тенглиги даражаси ҳар қандай жамиятнинг асосий меозонига айланиб қолди. Аёлларни ижтимоий ҳаётнинг ҳар қандай соҳаларида эркаклар билан тенг имкониятлар ва шартлар асосида иштирок этишлари мумкинлиги тобора ҳақиқатга айланиб бормокда. Хотин-қизларнинг сиёсий ҳуқуқлари; сайловлардаги иштироқи, парламентда ўз ўринларига эга бўлишлари, бошқарув ва ҳокимият идораларида хизмат қилишлари кабилар ўзининг ишончли кафолатларига эга бўлди. Осиё ва Африка давлатларидаги хотин-қизларнинг ижтимоий-маиший аҳволини яхшилаш, уларни турли хасталиклардан, айниқса ўлимга олиб боровчи юқумли касалликлардан (масалан, ОИТС) муҳофаза қилишга нуфузли халқаро ташкилот-

лар ва “донор-авлатлар” томонидан жуда катта миқдорда маблағлар ажратилмоқда. Хотин-қизларнинг таълим олиши, ўз хоҳиши билан никоҳ туза олиши ва оилада турли тазйиқлардан ҳимоя қилиниши ҳам долзарб вазифага айланиб қолди. Ўзбекистонда ҳам одам савдоси келиб чиқишининг асосий сабабларидан бири бўлган меҳнат миграцияси жараёнини бошқаришнинг асосий жиҳатларидан бири меҳнат мигрантлари саломатлигини муҳофаза қилиш ва айниқса, ОИВ инфекциясининг тарқалишини олдини олиш масаласи долзарб бўлди. Ўзбекистон Республикасининг ОИВ инфекцияси тарқалишининг олдини олиш тўғрисидаги қонун ҳужжатлари Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамасининг бир неча қонунларидан, шунингдек, ОИВ инфекцияси профилактикаси масалаларидан иборат бўлиб, идоравий норматив ҳужжатлар, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг норматив ҳужжатлари билан тартибга солинди²⁰.

²⁰1991 йил Ўзбекистон Республикасининг «ОИТС касаллигининг олдини олиш тўғрисида»ги Қонуни.; 1992 йил ВМҚ «ОИТС касаллиги профилактикасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги.; 1997 йил ВМҚ «Ижтимоий аҳамиятга молик касалликлар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида»ги.; 1999 йил Ўзбекистон Республикасининг «Одамда иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган касалликларнинг олдини олиш тўғрисида»ги Қонуни (ОИВ-инфекцияси).; 2000 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 214-сонли «ОИВ/ОИТС бўйича санитария қоидалари ва экспертиза нормалари».; 2000 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «Ишга киришда профилактик тиббий кўрикдан ўтиш тўғрисида»ги 300-сонли буйруғи.; 2002 йил Ўзбекистон Республикасининг «Қон донорлиги ва унинг таркибий қисмлари тўғрисида»ги Қонуни.; 2003 йил «Ўзбекистон Республикасида 2003-2006 йилларда ОИВ/ОИТС эпидемияси тарқалишига қарши курашиш бўйича стратегик дастури» 2003 йил 27 май 3-Республика Фавкулудда эпидемияга қарши Комиссиясининг Қарорига илова.; 2003 йил ВМҚ «Турмуш қурган шахсларнинг тиббий кўрикдан ўтказиш тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш тўғрисида»ги.; 2004 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Ўзбекистон Республикасида ОИВ/ОИТС бўйича профилактик чора-тадбирларни такомиллаштириш тўғрисида»ги 240-сонли буйруғи. «ОИВ инфекциясининг олдини олиш бўйича ДСЭНМ вазифалари бўйича кўрсатмалар».; 2007 йил Ўзбекистон Республикаси ВМ қошидаги Республика Фавкулудда эпидемияга қарши кураш комиссиясининг «Ўзбекистон Республикасида 2007-2011 йилларда ОИВ-инфекцияси тарқалишига қарши курашиш стратегик дастури» қарорига илова.; 2007 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «Ўзбекистон Республикасида ОИВ инфекцияси билан боғлиқ профилактик тадбирларни такомиллаштириш ва тиббий-ижтимоий ёрдамни ташкил этиш тўғрисида»ги 480-сонли буйруғи.; 2007 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлигининг даволаш-профилактика муассасаларида санитария-гигиена, эпидемияга қарши ва дезинфекция режимларига риоя қилиш тўғрисида»ги 600-сонли буйруғи.; 2008 йил Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида ОИВ инфекцияси тарқалишига қарши курашиш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-1023-сонли қарори.; «ОИТСга қарши кураш марказларининг ташкилий тузилмаси ва фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2009 йил 1-сон ВМҚ 2009 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 74-сонли «Соғлиқни сақлаш вазирлиги тизимидаги туғруққа ёрдам берувчи муассасаларда ОИВнинг онадан болага ўтишининг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги буйруғи.; 2012 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «Ўзбекистон Республикасида ОИВ инфекцияси бўйича профилактика тадбирларини такомиллаштириш ва тиббий ёрдамни ташкил этиш тўғрисида»ги 80-сонли буйруғи.; 2012 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «ОИВ инфекцияси бўйича ЖССТнинг мослаштирилган миллий протоколларини жорий этиш тўғрисида»ги 88-сонли буйруғи.; 2013 йил Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-353-сонли «Одамда иммун танқислиги вируси (ОИВ инфекцияси) келтириб чиқарадиган касалликларнинг тарқалишига қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуни.; 2013-2017-йилларда Ўзбекистонда ОИВ инфекцияси тарқалишига қарши курашиш бўйича миллий стратегик дастур.; 2014 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 200-сонли «Ишонч хоналарида ОИВга экспресс-тестингни жорий этиш бўйича миллий протоколни тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи.; 2015 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «ОИВ бўйича миллий клиник протоколларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 81-сонли буйруғи.; 2015 йил Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг «ОИВга қарши

2013 йил 23 сентябрда «Одамда иммунитет танқислиги вируси (ОИВ инфекцияси) оқибатида келиб чиққан касалликнинг тарқалишига қарши курашиш тўғрисида»ги Қонун қабул қилинди. У ОИВ билан касалланган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда халқаро стандартлар киритилган асосий ҳужжат бўлди. ОИВга қарши кураш тўғрисидаги қонун ОИВ/ОИТС ҳақида асосий тушунчаларни, шунингдек, давлат томонидан тартибга солувчи нормаларини ҳамда вирус тарқалишига қарши чораларни ўз ичига олади. Қонуннинг алоҳида боби ОИВ билан касалланганларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятларига, шунингдек, уларни ижтимоий ҳимоя қилишга бағишланди. Қонунда мамлакатнинг барча даволаш-профилактика муассасаларида ихтиёрий, мажбурий ёки мажбурлаш тартибда ўтказилиши мумкин бўлган ОИВга тиббий кўрикдан ўтиш тартиби билан тартибга солинди[26].

Бироқ, тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, Ўзбекистон ҳукумати одам савдосини бутунлай бартараф қилишга оид минимал стандартлар талабларига ҳам тўлиқ жавоб бермади[27, 170 б], бироқ бунга эришиш учун тинмай саъй-ҳаракат қилди. Ҳукумат COVID-19 пандемиясининг одам савдосига қарши курашиш потенциалига таъсирини ҳисобга олиб, ўтган даврларда саъй-ҳаракатларнинг умумий тарзда ўсди ва бу Ўзбекистон 2-даражагача кўтарилди [27, 171 б]. Бу ҳаракатлар қаторида одам савдоси қурбонларини ҳимоя қилишнинг такомиллаштирилган прото-колларини ўз ичига олувчи одам савдосига қарши курашиш тўғрисидаги янги қонун қабул қилиниши, жиноят кодексига мажбурий болалар меҳнатини биринчи жиноят сифатида аниқ жиноят деб белгилаш мақсадида тузатишлар киритилгани, аввалги йилларга нисбатан кўпроқ жабрланганлар аниқлангани, ўтган йилларга нисбатан одам савдоси иштирокчилари иши тергов қилингани кабилар кирди.

Одам савдосига қарши курашиш бўйича Республика Идоралараро комиссияси томонидан 2016 йил 8 феврал куни ижрога йўналтирилган “Одам савдоси — давр муаммоси” номли тарғибот лойиҳаси юзасидан ишлаб чиқилган чора-тадбирлар режаси Хотин-қизлар кўмитасига, вилоятлар ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси хотин-қизлар кўмитасига ижро учун юборилди.

Бу чора-тадбирлар режасининг 9-банди ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон хотин-қизлар кўмитасининг ҳудудий бўлимлари томонидан маҳаллаларда аҳоли, айниқса, хотин-қизлар ва уюшмаган ёшлар ўртасида

курашиш ва Ўзбекистон Республикасида тиббий хизмат кўрсатиш бўйича профилактик чора-тадбирларни такомиллаштириш тўғрисида» ги 123-сонли буйруғи.; 2018 йил 22 июнь ПҚ-3800-сон «Одамда иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган касалликнинг тарқалишига қарши курашиш ва шифохона ичидаги инфекцияларнинг олдини олиш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарор. ва б.

узоқ муддатга хорижий давлатларга чиқиб кетишнинг салбий оқибатларини тушунтиришга қаратилган профилактика тадбирлари манизилли режалар асосида тизимли равишда ташкил этилди, бу борада бир қатор давра суҳбатлари²¹, семинар трненинглари²², конференциялар²³ ўтказилди.

ҲУЛОСА

Furthermore, many children are teenagers during this period. Teenage stubbornness is common for them, so the usual controls and rules in foster care seem oppressive to them. They claim that they live in heavier and stricter conditions than their peers living in this society [25. P. 5-14]. This situation also leads to many conflicts between them. Unfortunately, most children take many disadvantages by this situation. As one of the main tasks of the social carer is to work closely with the unaccompanied minor to find out his needs, interests, and future dreams and formulate the right strategy for the child, the carer could not work properly with children in the "lodger" module because of a complicated relationship.

Another critical issue is to what extent children's cultural identity plays a role in foster care adjustment, which was studied by Ni Raghallaigh et al. [14. P. 263-277]. The researcher studied two types of foster care children. The child and the carer belong to the same culture in the first group, while the second has a cross-cultural environment. Of course, the presence of representatives of his culture around the child gave him a unique comfort in adapting to a new environment. The unity of the language, worldview, and the mutual proximity of concepts have given the child a sense of his homeland and confidence. Furthermore, there are no misunderstandings between the child and the carer through fasting, eating halal meat, and similar cultural peculiarities. As Kohli et al. [14. P. 263-277] stated, food is the first refuge for asylum seekers during an uncertain situation. However, culture and religion are not the only significant means of establishing successful relations. It is possible to establish good relations even without having a common culture. According to research conducted with cross-cultural foster carers, children do not think that the same culture and language are crucial for them. They contend that living here with caregivers from a different culture eliminates the necessity for one's original language and allows for fast learning of the local language and culture [14. P. 263-277]. As Sirriyeh [25. P. 5-14] mentioned, the advantages of foster care are quick adaptation to a new culture, stability, individual care and emotional support.

Another important issue in this topic is whether the time provided by foster care is sufficient for the entire mental and physical recovery of unaccompanied minors. Unfortunately, they leave foster care without being sufficiently prepared

for an independent life. Groark et al. [7. P. 421-442] stated that the majority of unaccompanied children arriving in the UK are 14-17 years old. Wade also confirmed that the majority of unaccompanied children arriving in the UK are in their mid-teenagers [34. P. 2424-2430]. Mentally and physically injured children spend only 1-2 years in foster care and leave the placement when they turn 18. Once they find kind and supportive carers, they are forced to move to direct provision, which is a completely alien place. This process is another mental pressure for the children. As Lustig et al. [7. P. 421-442] note the separation of children from foster care worsens their mental health. This is because children who have found their happiness and peace in foster care are anxiously waiting for the age of 18, fearing that the care regulation laws will change against them [19. P. 66-81]. The transition from the teenage period to adulthood is very delicate, and children are thirsty for love and attention. It is crucial for young people to feel the confidence to live independently and the support of their relatives while confidently stepping into an independent life. However, after the children turn 18, in most cases, the relationship with the foster carers is completely ceased, and the children lose their supporters [16. P.163-170]. As a result, young people who have just started an independent life lose their way and fail without receiving valuable advice from anyone. This process is consistent with attachment theory. According to the theory, young children find affection lacking from their parents in foster care workers and become firmly attached to them [29. P. 422-434]. Care and support are important for young people during the transition to adulthood, and many unaccompanied minors become attached to foster care workers and forced to go to direct provision before they are fully ready for independent life. As Ni Raghallaigh et al. [15. P.386-404] pointed out, sending children who are developing in foster care both educationally and mentally to direct provision after turning 18 years old leads to facing a difficult situation.

Leaving foster care is another stressful stage of unaccompanied children in their life. Mike Stein studied young people leaving care. He explained in detail in which cases children can build a successful future or fail and divided them into groups of moving on, survivors, and victims based on their successes and failures [30. P. 273-279]. The study revealed children's experience in care, traumatic processes, differences, and shortcomings compared to ordinary young children. The transition stage of children in care to adulthood happens instantly. The average youth does not transfer to adulthood as soon as they turn 18. They go to university, where they increase their knowledge and experience, create a foundation for their future careers, and gather ambitious friends around them through social networking. However, unaccompanied minors have no such possibilities [30]. It affects their psyche and leads to stress. As Portnoy et al. [17.P. 636-647] noted,

they have many mental problems and traumas compared to average youth. As for the three categories mentioned above of care leavers, care leavers who have successfully transferred to adulthood are categorized as moving on. Despite being in foster care, moving on children have good relationships both with their family and foster care personnel. They leave foster care later rather than other children because of their excellent behaviour, and most of them aim to continue their education at universities. As a result, they are more likely to build stable future lives and careers. As Groark et al. [7. P. 421- 442] stated, education is salvation for children in foster care because they reshape their self-confidence and carefully plan their future lives by acquiring knowledge. As for the survivors category, they face several problems when they start independent life, but they cope with these problems and adapt. The main thing is that their independent life will be successful even if it is a little late. The victim category is fundamentally different from the above categories, and in many cases, the independent life they started was unsuccessful. Children in this category have complex traumatic memories of their past without a good relationship with their families and mistrust of care workers and friends around them. This way of life affects their education and reduces these minors' school performance. Once ordinary children are depressed, they lower their stress levels and get out of problematic situations by sharing it with their friends. However, children in the victims category prefer to live in isolation because they do not trust the people around them, and this causes their stress levels to increase. Unfortunately, the majority of unaccompanied minors belong to the category of victims. Most of them are almost entirely disconnected from their families and live in isolation in a different culture, and these processes create many additional problems during their independent lives. As a solution to this problem, unaccompanied minors who fall into the victim category should be given the opportunity to stay in foster care even after turning 18. Another reason for this is the unhealthy environment in direct provision. Many young people live there uncertain of their future, waiting for the status the government will give them. In other words, they experience a waithood period [15. P. 386-404]. In direct provision, some people are waiting for their migrant status for 8-10 years. This environment has a terrible effect on vulnerable children.

CONCLUSION

In conclusion, their countries' political and economic crises and wars force children to go on complicated and dangerous journeys alone. Most of them choose the UK as not their final destination but come to this country because of the impossibility and lack of other options. New challenges and struggles in life cover them from their early days in the UK. One of the main problems is that asylum-

seeker unaccompanied children in the UK face many problems in determining their migration status due to child conception, which varies in different countries. Another problem is that many children who come to the UK are in their teenage period and, therefore, spend an average of 2 years in foster care before they turn 18, which is not enough time for them to rehabilitate from mental and physical disorders fully. They are being released from foster care to independent life when they are not fully ready. As a result, many unaccompanied children are putting their futures in disrepute without being able to bear the pressure of an independent life. By observing their teenage and early adulthood period in the UK, it is clear that care for unaccompanied children initially has a much simpler content in the early days in the UK. This care means family affection and love, which their parents could not give them. It is important to them, and they feel happy through this recognition. In Hannot's terms, this love is called emotional recognition. However, as children grow up and reach early adulthood, emotional recognition is not enough for them to feel happy. Now, they want to have their rights in the new society and the same opportunities as their counterparts, and they feel content using these opportunities. This love is legal recognition as Hannot cited. So, as unaccompanied children grow up and adapt to the new environment, their care transfers to a new level which the meaning of care changes based on their needs. In other words, care is a relative concept for unaccompanied children which changes throughout the period.

LIST OF SOURCE AND REFERENCES

1. BBC News. (2022, April 13). *"What is the UK's plan to send asylum seekers to Rwanda?"* BBC News. Available at: <https://www.bbc.co.uk/news/explainers-61782866> Last accessed: 20 May 2024
2. Lewis, C. (2022). *WHY DO REFUGEES LEAVE FRANCE FOR THE UK?* Oasis. Available at: <https://www.oasiscardiff.org/blog/why-do-refugees-leave-france-for-the>. Last accessed: 20 May 2024
3. Crawley, H. (2013). 'Asexual, Apolitical Beings': The Interpretation of Children's Identities and Experiences in the UK Asylum System. In *Transnational Migration and Childhood* (pp. 13-26). Routledge.
4. Crawley, H. 2006. *Child First, Migrant Second: Ensuring that Every Child Matters*, London: ILPA.
5. Fazel, M., Wheeler, J., & Danesh, J. (2005). Prevalence of serious mental disorder in 7000 refugees resettled in western countries: A systematic review. *Lancet*, 365, 1309–1314.

6. Geenen, S., & Powers, L. E. (2007). "Tomorrow is another problem": The experiences of youth in foster care during their transition into adulthood. *Children and Youth Services Review*, 29(8), 1085-1101.
7. Groark, C., Sclare, I., & Raval, H. (2011). Understanding the experiences and emotional needs of unaccompanied asylum-seeking adolescents in the UK. *Clinical child psychology and psychiatry*, 16(3), 421-442.
8. Hek, R. (2007). Using foster placements for the care and resettlement of unaccompanied children. *Working with unaccompanied asylum seeking children: Issues for policy and practice*, 109-124.
9. Howe, D. (1995). *Attachment theory for social work practice*. London: Macmillan.
10. Kohli, R., Connolly, H. & Warman, A. (2010) Food and its meaning for asylum seeking children and young people in foster care. *Children's Geographies*, 8 (3), 233–245.
11. Kohli, R.K.S. 2005. The sound of silence: listening to what unaccompanied asylum-seeking children say and do not say. *British Journal of Social Work*, 36 (5): 707 – 21.
12. Lustig, S. L., Kia-Keating, M., Knight, W. G., Geltman, P., Ellis, H., Kinzie, J. D., Keane, T., & Saxe, G. N. (2004). Review of child and adolescent refugee mental health. *American Academy of Child and Adolescent Psychiatry*, 43(1), 24–36
13. Melzac, S. (1999). Work with refugees from political violence. In M. Lanyado and A. Horne (eds), *The Handbook of Child and Adolescent psychotherapy*. London: Routledge.
14. Ni Raghallaigh, M., & Sirriyeh, A. (2015). The negotiation of culture in foster care placements for separated refugee and asylum seeking young people in Ireland and England. *Childhood*, 22(2), 263-277.
15. Ní Raghallaigh, M., & Thornton, L. (2017). Vulnerable childhood, vulnerable adulthood: Direct provision as aftercare for aged-out separated children seeking asylum in Ireland. *Critical social policy*, 37(3), 386-404.
16. Paulsen, V., & Thomas, N. (2018). The transition to adulthood from care as a struggle for recognition. *Child & family social work*, 23(2), 163-170.
17. Portnoy, S., & Ward, A. (2020). Unaccompanied asylum-seeking children and young people—Understanding their journeys towards improved physical and emotional health. *Clinical child psychology and psychiatry*, 25(3), 636-647.
18. Refugee Council. (2024). *The truth about asylum*. Available at: https://www.refugeecouncil.org.uk/information/refugee-asylum-facts/the-truth-about-asylum/?gad_source=1&gclid=Cj0KCQjwxqayBhDFARIsAANWRnTDEjuSbi

M9UAttQMmLauFryfG_ceftlPyU-_pmYG8YiOdQmNQYQEaAqYvEALw_wcB
Last accessed 20 May 2024

19. Rosen, R., & Crafter, S. (2018). Media representations of separated child migrants: From dubs to doubt. *Migration and Society*, 1(1), 66-81.

20. Rosen, R., Crafter, S., & Meetoo, V. (2017). A warm welcome? Unaccompanied migrant children in networks of care and asylum.

21. Rosen, R., Crafter, S., & Meetoo, V. (2021). An absent presence: Separated child migrants' caring practices and the fortified neoliberal state. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 47(7), 1649-1666.

22. Rousseau, C. (1995). The mental health of refugee children. *Transcultural Psychiatric Research Review*, 32, 229–331.

23. School for Policy Studies, Bristol, 2023 *Missing unaccompanied asylum-seeking children in the UK*. Available at: <https://policystudies.blogs.bristol.ac.uk/2023/11/16/missing-unaccompanied-asylum-seeking-children-in-the-uk/>. Last accessed 20 May 2024

24. Sinclair, I. (2005). *Foster children: Where they go and how they get on*. Jessica Kingsley Publishers.

25. Sirriyeh, A. (2013). Hosting strangers: Hospitality and family practices in fostering unaccompanied refugee young people. *Child & Family Social Work*, 18(1), 5-14.

26. Smith, A.-M. 2009. “ The children of Loxicha: participation beyond the UNCRC rhetoric? ”. In *Children, Politics and Communication: Participation at the Margins*, Edited by: Thomas, N. 49 – 68. Bristol: The Policy Press.

27. Smyth J (2010) HSE Director criticises care for children seeking asylum. *Irish Times*. 8 February.

28. Stanley, K. (2001). *Cold comfort. Young Separated Refugees in England*. London: Save the Children.

29. Stein, M. (2006). Young people aging out of care: The poverty of theory. *Children and youth services review*, 28(4), 422-434

30. Stein, M. (2006a). Research review: Young people leaving care. *Child & family social work*, 11(3), 273-279.

31. Thomas S., Thomas S., Nafees B., Bhugra D. (2004). ‘I was running away from death’: The pre-flight experiences of unaccompanied asylum seeking children in the UK. *Child: Care, Health and Development*, 30(2), 113–122. Crossref. PubMed.

32. Thomas, N. (2012). Love, rights and solidarity: Studying children's participation using Honneth's theory of recognition. *Childhood*, 19(4), 453–466.

33. UK Refugee Council. (2019). Refugee Council information: Children in the asylum system. <https://www.refugeecouncil.org.uk/wp-content/uploads/2019/06/Children-in-the-Asylum-System-May-2019.pdf>

34. Wade, J. (2011). Preparation and transition planning for unaccompanied asylum-seeking and refugee young people: A review of evidence in England. Children and Youth Services Review, 33(12), 2424-2430.

Улугбеков О. О.

Преподаватель кафедры «Археологии и этнологии»

Национальный университет Узбекистана

oybekulugbekov23@gmail.com

МИГРАЦИЯ ДЕТЕЙ-БЕЖЕНЦЕВ С ВОСТОКА НА ЗАПАД: ЗНАЧЕНИЕ ЗАБОТЫ О НЕСОПРОВОЖДАЕМЫХ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ.

АННОТАЦИЯ

В современном мире количество несовершеннолетних соискателей убежища, прибывающих без сопровождения, неуклонно растёт по различным причинам. Они покидают свои страны, спасаясь от небезопасных условий жизни, и направляются в развитые и мирные государства в поисках защиты. Великобритания является одним из таких пунктов назначения. В данной работе рассматриваются причины, по которым несовершеннолетние без сопровождения выбирают Великобританию, а также трудности, с которыми они сталкиваются в принимающей стране. Особое внимание уделяется подходу к организации их проживания в приемных семьях как ключевому фактору их благополучия. Анализируется, достаточно ли периода проживания в приемных семьях для преодоления пережитых психических и физических травм, а также рассматриваются специфические проблемы, возникающие при переходе во взрослую жизнь. В контексте этих вопросов исследуется значение заботы для несовершеннолетних без сопровождения и трансформация этого понятия по мере их взросления. В качестве теоретической основы используется концепция признания Акселя Хоннета.

Ключевые слова: соискатель убежища, несовершеннолетние, травма, миграция, приемная семья.

Улугбеков О.О.

«Археология ва этнология» кафедра ўқитувчиси
Ўзбекистон Миллий университети
oybekulugbekov23@gmail.com

ШАРҚДАН ҒАРБГА ҚОЧҚИН БОЛАЛАРНИНГ МИГРАЦИЯСИ: ВОЯГА ЕТМАГАН ЁЛҒИЗ БОЛАЛАРГА ҒАМХЎРЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ

АННОТАЦИЯ

Бугунги кунда дунё бўйлаб турли сабабларга кўра ёлғиз бошпана изловчи вояга етмаган болалар сони ортиб бормоқда. Улар ўз мамлакатларидаги хавфли ҳаётдан қочиб, ўз ҳаётларини сақлаб қолиш учун ривожланган, тинч мамлакатларга йўл олишади. Буюк Британия ҳам бундай йўналишлардан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада ёлғиз болалар нима учун Буюк Британияга келиши ва у ерда қандай қийинчиликларга дуч бўлишини ўрганамиз. Хусусан, ёлғиз болаларга қараш учун оила тизимидаги ёндашув уларнинг бахти учун қанчалик муҳим эканлиги, улар бошидан кечирган руҳий ва жисмоний жароҳатлардан даволаниш учун янги оилада яшаш муддати етарлими ёки йўқми, шунингдек, вояга етиш жараёнидаги ўзига хос муаммоларни кўриб чиқамиз. Ушбу масалалар асосида биз қарамлик ёлғиз болалар учун нимани англатишини ва улар улғайган сари қарамликнинг мазмуни қандай ўзгаришини таҳлил қиламиз. Ушбу саволларга жавоб топиш учун биз Хоннетнинг “тан олиниш” назариясидан фойдаланамиз.

Калит сўзлар: бошпана изловчи, вояга етмаганлар, травма, миграция, ҳомийлик қилувчи оила.

Ulashova S. U.

PhD., dotsent

Alfraganus universiteti

sevinch.ulashova@bk.ru

MANBALARDA DUVAXON VA QAYDUXON FAOLIYATIGA DOIR MA'LUMOTLAR

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Chig'atoy ulusining o'ninchi xoni Duvaxon va ulusni siyosiy jihatdan o'z ta'sirida ushlab turgan O'qtoyning nabirasi Qayduxon faoliyati tahlil qilingan. Chig'atoylar va O'qtoylar ittifoqining ahamiyati, tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlari, Duvaxonning Yuan imperiyasi, Elxoniylar davlati va Oltin O'rda hukmdorlari bilan o'zaro munosabatlari yoritib berilgan. Mavzuni yoritishda mo'g'ullar davri aks etgan tarixiy manbalar (Rashididdin, Vassaf, Qoshoniy, Natanziy, Mirxond va boshqalarning asarlari) asos qilib olingan.

Kalit so'zlar: Duvaxon, Qayduxon, Chig'atoy ulusi, O'qtoylar, Yuan, Chopar, Movarounnahr, musulmon manbalari, "Yuan shi", mustaqillik.

KIRISH

Baroqxonning ikkinchi o'g'li Duvaxon Chig'atoy ulusining o'ninchi hukmdori bo'lib, o'zidan avvalgi ulus xoni Buka Temurxon kabi O'qtoy qoonning nabirasi Qayduxonning tasdiqlovi bilan hokimiyatga keladi. U Chig'atoy xonlari orasida hokimiyatni uzoq yillar boshqargan va davlatni to'la mustaqillikka olib chiqqan hukmdordir. Manbalarda Duvaxon hukmronligi davri Qayduxon tarixi bilan birga eslatiladi. Rasman Qaydu davlatiga tobe hisoblangan Chig'atoy ulusining mazkur davri Baroqxon vafotidan keyin ulusga yetkazilgan vayronagarchiliklar, talon-taroj va qirg'inlar bartaraf etilib, qayta tiklanish va rivojlanishga o'tish davri bo'ldi.

Duvaxonning tabiatan ziyrak va mohir siyosatchi ekani u olib borgan tashqi siyosatda ham ko'rinadi. XIII asr so'nggi choraklarida Qayduxon Markaziy Osiyoda o'z nazoratini to'la o'rnatib bo'lgani natijasida Baroqxondan keyingi har bir Chig'atoy xoni uning tasdiqlovi bilan hokimiyatga keladigan bo'ldi. Bu holat Qayduxonning Chig'atoy ulusining ichki va tashqi ishlarida ham faol aralashganini ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Manbalar va tadqiqotlarda Duvaxonning hokimiyatga kelish sanasi va bunga olib borgan tarixiy jarayonlar to'g'risida turli qarashlar va ma'lumotlar keltiriladi. Shunga ko'ra, Duvaxon otasi Baroqxon vafotidan keyin boshqa aka-ukalari bilan birgalikda Qayduxonga qarshi kurashib, bir necha bor isyon ko'targan Chig'atoylardan edi. Ayrim manbalarda Qayduxon va Baroqxon o'g'illari

o'rtasidagi murosaga faqatgina Duvaxonning hokimiyatga chiqarilishi bilan erishilgani aytiladi. Shunga ko'ra, Duvaxonning xonlikka ko'tarilishi ikki o'rtadagi kelishuvning asosiy sharti bo'lgan, deyish mumkin.

Duvaxonning hokimiyatga kelish sanasi ham manbalar va tadqiqotlarda turlicha (1277, 1281, 1282 va boshqa yillar) ifodalanadi. Jumladan, biz avvalroq olib borgan tadqiqotimizda Rashididdinning "Jome at-tavorix" asariga tayanib, Duvaxonning 1281-1307-yillarda hukmronlik qilganini yozgan edik [22. B. 89.]. Ammo, mavzuga doir boshqa manbalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Duvaxon Buka Temurxon hokimiyati yakunlangach, boshqaruvga kelgan. Mo'g'ullar davri forsiy manbalarida ham, Temuriylar davri forsiy manbalarida ham Buka Temurxondan (ayrim manbalarda To'qa Temurxon) keyingi Chig'atoy hukmdori Duvaxon ekani yakdillik bilan ta'kidlanadi [17. B. 298; 21. B. 312.]. Shu asosda aytish mumkinki, Duvaxon 1277-yilda Buka Temurxon hokimiyati yakunlangach, ulusga tasdiqlangan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Mavzuga doir manbalar – Rashididdin, Vassaf, Qoshoniy, Natanziy, Mirxond va boshqalarning arabiy va forsiy tilli asarlari bo'lib, ularda Duvaxon va Qayduxonning faoliyatiga doir kam bo'lishiga qaramasdan, qimmatli qaydlar mavjud. Manbalardagi mavzuga aloqador uzuq-yuluq shakldagi ma'lumotlar asosan boshqa uluslar tarixi bilan bog'liq jarayonlarda uchraydi. Mazkur tarixiy ma'lumotlar bugungi kunda kam o'rganilgan tarixiy davr Chig'atoy ulusi tarixini qisman tiklashga yordam beradi.

Duvaxon hokimiyatining dastlabki yillaridanoq Qayduxon va uning davlati bilan Chig'atoy ulusi munosabatlarini tartibga solishga harakat qiladi. Bu davrda vayronaga aylangan shaharlar qayta tiklanib, yangi shaharlarga asos solindi. Jumladan, Andijon shahrining bunyod etilishi tarixiy manbalarda Duvaxon nomi bilan bog'lanadi [23. B. 192.].

Chig'atoy ulusining Qayduxon oliy hokimiyatiga bo'ysungan davri, xususan, Duvaxon hukmronligi yillarida ulus hududi to'g'risida manbalarda turlicha ma'lumotlar eslatiladi. Ulug' qoon Xubilayxon saroyiga safar uyushtirgan sayyoh Marko Poloning ta'kidlashicha, Xubilayxonning g'arbiy chegarasi Xo'tan shahrigacha cho'zilgan, g'arbdagi Sharqiy Turkiston, Qoshg'ar, Yorkent, Oqsuv, Qoraxo'cha kabi shaharlar esa Qayduxon nazorati ostida Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan [10. B. 32-27.]. Marko Polo Chig'atoy hududi uchun umumiy "Buyuk Turkiya" nomini qo'llagan [4. B. 50.].

Ma'lumki, Xubilay qoon 1294 yil vafotigacha Qayduxon va Duvaxon ittifoqiga qarshi jiddiy hujumlarni amalga oshirgan edi. Duvaxon bu davrda davlat sarhadlarini qo'riqlash bilan birga yangi hududlarni ham egallab, Chig'atoy ulusi

tarkibiga kiritgan. Xususan, u Xuroson chegarasini qo‘riqlab, hatto G‘aznagacha bo‘lgan barcha hududlarni ulus tarkibiga qo‘shib oladi va Hindistonga qarshi harbiy yurishlar uyushtiradi.

Duvaxon davrida Chig‘atoy ulusining tashqi siyosati asosan Qayduxon bilan ittifoqchilikda mintaqada o‘z nufuzini oshirish va sarhadlarini kengaytirish, Yuan imperiyasi bilan ittifoq manfaatlari uchun kurashlarda, Elxoniylardan Abaqaxon davrida Movarounnahrqa qilingan bosqin uchun javob qaytarish va Oltin O‘rdadan 1269-yilgi Talas qurultoyi qarorlariga binoan berilgan Movarounnahrdagi ulushlarini qaytarib olish kabi masalalar yuzasidan faol kechadi. Aslida, Duvaxongacha Chig‘atoy hukmdorlari orasida Olg‘uxon va Baroqxongina faoliyatlari davomida faol tashqi siyosat olib borgan xonlar edi. Duvaxon Qayduxonning tasdiqlovi bilan hokimiyatga kelgan va rasman unga bo‘ysunsa-da, amalda u faoliyatining dastlabki bosqichlaridanoq mustaqil siyosat yuritishga harakat qiladi. Shuningdek, Qayduxon Nikbayxon va Buka Temurxonga qilgan munosabatini Duvaxonga nisbatan qo‘llay olmaydi. Negaki, Duvaxon kuchli lashkarboshi bo‘lish bilan birga mohir siyosatchi ham edi. Shuning uchun ham Qayduxon Yuan imperiyasiga qarshi qaratilgan yurishlarida Duvaxonni o‘ziga bo‘ysunuvchi xon sifatida emas, mustaqil ittifoqchi sifatida ko‘rganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu davr tarixi aks etgan manbalardagi ma‘lumotlarda Duvaxon nomi doimo Qayduxon nomi bilan birga tilga olinadi. Ularning tashqi siyosatda amalga oshirgan faoliyatini quyida tahlil qilamiz.

Duvaxonning xonlikka tayinlanishi O‘qtoy va Chig‘atoy xonadonlari o‘rtasidagi yigirma yildan ortiq hamkorlik davri bo‘ldi. Bu davrda Duvaxon Qayduxonning o‘ng qo‘li bo‘lib, uning harbiy yurishlarida asosiy ittifoqchisiga aylandi. Shuningdek, bu davrda Movarounnahrqa barqarorlik qaytadi.

Qayduxon 1270-yillarning o‘rtalaridayoq butun O‘rta Osiyoda o‘z mavqeini mustahkamlab olgan edi. Buni 1276-yilda Xubilayga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan shahzodalarning Qayduxondan yordam so‘rab, murojaat qilganidan ham ko‘rish mumkin. Qayduxonning O‘rta Osiyo hududida barpo etgan davlati va uning xonlik tojini kiyishi qachon sodir bo‘lgani manbalar va tadqiqotlarda turlicha ifodalanadi. Ularda bu voqeaning asosan 1269-yilgi Talas qurultoyida, 1270-yil va 1271-yil sodir bo‘lgani haqida fikrlar keltirilgan. Bizningcha, Talas qurultoyidan keyin Qayduxonni mintaqada mustahkamlanib olishi va o‘zi barpo qilgan davlatning xoni deb e‘lon qilishi uchun bir necha yil kerak bo‘lgan. Shunga ko‘ra, Qayduxon davlati 1271-yilda barpo etilgan deyish mumkin. Manbalarda bu davlatning qat‘iy chegaralari aniq belgilanmagan. Mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, uning davlati sarhadlari Amudaryogacha va undan g‘arbga qadar yetib borgan. 1290-yillardan Qayduxon va Duvaxon ittifoqi g‘arbiy hududlarni ham nazorat qila boshlagan.

Sharqiy chegara Mo'g'uliston, Oltoy tog'lari bo'ylab joylashgan. Qayduxon va Duvaxon shu yerdan sharqqa hujumlarni amalga oshirgan. Bir qancha musulmon manbalarining da'volaridan farqli o'laroq, Qayduxon va Duvaxon qo'shini Yuan imperiyasi poytaxti Daduga hech qachon yetib bormagani xitoy manbalarida keltiriladi [3. B. 48-51.]. Ittifoqchilarning qo'shinlari bostirib kirgan eng sharqiy hudud sobiq poytaxt Qoraqurum bo'lgan.

1280-yillarning oxiridan janubiy chegara Tarim havzasidagi Qoshg'ar va Xo'tan hududlari orqali o'tib, janubi-sharqiy chegarasi keyinchalik Beshbaliq va Qora Qo'choga qadar cho'ziladi. 1290-yillarda Duvaxon janubiy chegarani G'azna va Hindiston yo'nalishida kengaytiradi. Shimoliy chegara Irtish daryosining baland irmoqlari yaqinida va Balxash ko'li bo'yida, Talas va Sayram shaharlaridan biroz shimolda, Oq O'rda chegarasiga qo'shilganga o'xshaydi. Jamol Qarshiy Qayduxon davlatining bir qismi sifatida tilga olgan eng shimoliy shahar Movarounnahrning shimolidagi Jand shahri hisoblanadi [19. B. 156-157.].

Chig'atoy ulusi hududining aksariyat qismi Xubilay qoon Olg'uxonga ajratgan hududlar Turkiston va Movarounnahr shuningdek, unga tutash o'lkalariga to'g'ri keladi. Hududning O'qtoy va Chig'atoy uluslari hududlari o'rtasida bo'linishi haqida manbalarda hech qanday aniq dalil kuzatilmaydi, ularning barchasi rasman Qayduxonga bo'ysungan. Qayduxon hokimiyatni egallash va Chig'atoy ulusini o'z ta'siriga olish jarayonida mo'g'ul imperiyasida yuzaga kelgan siyosiy vaziyatdan unumli foydalangan. U dastlab Berkaxon va Olg'uxon, keyinroq Baroqxon va Abaqaxon o'rtasidagi raqobatlaridan ustalik bilan foydalandi. Shuningdek, mo'g'ul imperiyasi poytaxtining Qoraqorundan Shangduga ko'chirilgani va mo'g'ul uluslari ichidagi turli vorislik kurashlari ham uning mintaqada ustida nazoratni qo'lga olishiga yordam bergan edi.

1284-yilda Xubilay qoon Qayduxon va Duvaxon ittifoqchiligini jazolash uchun shahzoda Yaqudu (Yahudu) boshchiligida qo'shin yuboradi. Jazo qo'shini Qayduxonning ayg'oqchilarini tutib, ulardan ittifoqchilarning harbiy kuch-qudrati, joylashgan o'rni va boshqalar haqida ma'lumotlar oladi va ittifoqchilarni mag'lub etadi. Biroq, bu mag'lubiyat ularning vaqtinchalik muvaffaqiyatsizligi bo'lib, 1285 yildan boshlab Qayduxon va Duvaxon o'z faoliyatini kengaytira boshlaydi. Jumladan, 1285 yilda Duvaxon Uyg'ur o'lkasidagi Xubilay qoon harbiy qismini boshqargan shahzodalar, Chig'atoy shahzodasi Ajiki va Xubilay qoonning o'g'li Ayachi (Auluchi) ustidan g'alaba qozonadi [3. B. 45-47.]. Bu haqda Rashiddinning yozishicha, Duvaxon qo'shinlari Olg'uxonning o'g'illari Ajiki va Chubayni jangda mag'lub etgan. Bu paytda Olg'uxonning o'g'illari va boshqa Chig'atoy shahzodalari Qayduxon bilan o'zaro kurashlardan so'ng Xubilay qoon tomoniga o'tib, Yuan qo'shini safida xizmat qilayotgan edi. Keyinroq, Duvaxon va Baroqxonning o'g'li Buzma (Busiba) bilan birga Qora Qo'choni olti oy qamal

qiladi. Chorasiz qolgan Uygʻur Iduqut qizini shahar devoridan pastga tushirib, Duvaxonga berganidan keyingina qamal tugatiladi [14. B. 536-537; 15. B. 301-302.].

1286 yilda Duvaxon va Qayduxon Beshbaliqqa qarshi katta hujum uyushtirib, Yuan qoʻshinlarini magʻlubiyatga uchratadilar va qoʻmondon Qi Gongzhini asir oladilar [1. B. 255; 9. B. 72; 16. B. 112.]. Shu tariqa Duvaxon va Qayduxon mintaqa ustidan nazoratni mustahkamlaydilar.

1280-yillardagi Qayduxon va Duvaxonning harbiy faoliyatiga chek qoʻyish maqsadida Xubilay qoon tomonidan iqtisodiy boʻgʻish siyosati amalga oshiriladi. Ammo, bu siyosat natija bermay, qoon ittifoqchilarning Uygʻur oʻlkasi va Tarim havzasining daromadlarini oʻzlashtirishiga toʻsqinlik qila olmaydi. Shuningdek, bu hududni mustahkamlash va rivojlantirish uchun oʻzi katta sarmoya kiritishga majbur boʻladi.

Manbalarda 1288 yildan boshlab Yuan qoʻshinlarining Oʻrta Osiyodan chekinishi haqida bir qancha maʼlumotlar bor. Xitoy manbasi “Yuan shi”da 1288 yilning qishida Xoʻtan va Qoshgʻardagi mustamlakalardan 1050 nafar hunarmand mamlakatning ichki hududlariga, Gansu va Shensiga qaytganligi haqida xabar beriladi [9. B. 73.]. Keyingi bir necha yil ichida “Yuan shi”da Xoʻtan, Qoshgʻar va Beshbaliq haqida juda kam eslatiladi. Bu holat hududni qoon qoʻshinlari tomonidan tashlab ketilganligini koʻrsatadi. Rashididdin yozishicha, bu paytda Qayduxon va qoonlik oʻrtasidagi chegara Qora Qoʻchodan oʻtgan [14. B. 502; 15. B. 286.]. Bu esa Qayduxon ittifoqchisi Duvaxon bilan birga butun Markaziy Osiyoni egallab olayotganini koʻrsatadi.

“Jome at-tavorix”da keltirilishicha, 1294 yil Xubilay qoon vafotidan keyin qoonlikka koʻtarilgan nabirasi Oʻljaytu Temur qoon (1294-1307) davrida ham Qayduxon va Duvaxon ittifoqi bilan oʻzaro keskin munosabatlar saqlanib qolgan. Yangi qoon tashqi siyosatdagi asosiy eʼtiborini Qayduxon va Duvaxon harbiy ittifoqiga qaratib, ularga qarshi bir necha bor qoʻshin tortadi.

Rashididdin bu davrda chegaradagi vaziyat haqida quyidagicha tavsif beradi: “Qayduxon va Duvaxon chegaralari bilan qoon chegaralari oʻrtasida sahro boʻylab qirq kunlik yoʻl bor. Har ikki tomonning qoʻshini va aygʻoqchilari chegarada joylashib, oʻz hududlarini himoya qiladi va qoʻriqlaydi. Qoonning oʻsha yoʻnalishdagi chegarasi bir oylik yoʻl davomida sharqqa qarab choʻzilgan va aholi istiqomat qiladigan joylarda qoʻshinlar va aygʻoqchilar boʻlgan” [15. B. 286-288]. Yuan hududlarini Qayduxon va Duvaxon tomonidan asta-sekin qoʻshib olinishi Oʻljoytu Temur qoon hayotligida ham davom etdi va 1304-yilga kelib Qora Qoʻcho Duvaxon mulkining ajralmas qismiga aylandi.

1297-yilda Qayduxon va Duvaxon qoʻshinlari Yuan imperiyasining Yomuqur va Dorduka boshchiligidagi chegara qoʻshinlari bilan boʻlgan janglarda bir necha

bor chekinishga majbur bo'ladilar. Janglar Yenisey va Irtish oralig'idagi Barin hududida, qoon va Oq O'rda hududlari chegarasidan janubda sodir bo'ladi. Oq O'rda xoni Bayon chegaralaridagi janglar tufayli O'ljaytu Temur qoonga Qayduxon va Duvaxonga qarshi Oq O'rda, Yuan, Elxonlik va Badaxshon hukmdorlaridan iborat mo'g'ul ittifoqini tuzishni taklif qiladi. Rashididdinning yozishicha, 1298/1299 yilda O'ljaytu Temur qoon onasining maslahati bilan Bayon taklifini rad etib, olis O'rta Osiyoga katta kuch ajratgandan ko'ra, Xitoyda o'z mavqeini mustahkamlashni ma'qul ko'radi [14. B. 611-612; 15. B. 329.].

Duvaxonning navbatdagi hujumi paytida asir olingan O'ljaytu Temur qoonning qaynisi Korguzning o'limi Yuan imperiyasi uchun katta zarba bo'ldi. Qoon bunga o'xshash voqealar takrorlanmasligi uchun keskin choralar ko'rishni buyuradi. 1299-yilda chegarani himoya qilishda beparvolik qilgan Kokochuning o'rniga Qayshanni mas'ul qilib qo'yadi. Oradan ko'p o'tmay O'ljaytu Temur qoon Qayduxon va Duvaxonga qarshi keng ko'lamli hujumni rejalashtiradi. U shahzodalarga barcha kuchlarini birlashtirib, Qayduxon va Duvaxonga qarshi kurash uchun katta qo'shin yig'ishni buyuradi [3. B. 51-52.]. Biroq, Rashididdin yozganidek, Qayduxon va Duvaxonga qarshi so'nggi hujum uluslar ittifoqi bilan birga amalga oshirilishi haqidagi Yuan bayonoti Xitoy yoki boshqa musulmon manbalarida tasdiqlanmagan. Shunga ko'ra aytish mumkinki, bunda ittifoq qo'shini emas, faqat Yuan kuchlari Qayduxon va Duvaxon ittifoqiga qarshi kurashgan. "Yuan shi", Rashididdin, Vassaf, Mirxond jang tashabbusi qoon tomonidan qo'yilganligini aniq tasvirlaydi.

1300 yilda Qayduxon va Duvaxonga qarshi Yuan hujumi boshlanadi. Qayduxon chekinishga majbur bo'lib, Duvaxonga qo'shimcha kuch olib kelishi uchun odam yuboradi. Duvaxon esa lashkarlari charchagani va yaralangani, chorvasi zaif bo'lgani uchun borishdan bosh tortadi. Duvaxon Chingizxon avlodlari bir-birini o'ldirayotgani uchun urushni to'xtatib, sulh tuzgan ma'qul, deb ham ta'kidlaydi [3. B. 52-53.]. Bunga javoban Qayduxon Duvaxonga darhol yetib kelishni buyuradi. Uning o'zi qoon qo'shinlariga qarshi yo'lga chiqadi. Vassafning yozishicha, Qayduxon hijriy 700 yil boshlarida (milodiy 1300-yil oxirlarida) qoon qo'shinini qaytarish uchun yo'lga chiqadi [2. B. 265.]. Ikki o'rtadagi hal qiluvchi jang 1301-yil kuzida bo'lib o'tadi. Qayduxon Oltoyning janubida, Mo'g'ulistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan Tiejangu tog'ida qarorgoh quradi. Yuan qo'shinlariga nisbatan o'zining son jihatdan kamligini anglagan Qayduxon Duvaxondan qo'shimcha kuch kelishini kutadi. Mirxondning yozishicha, Yuan qo'shini Qayduxon qo'shiniga nisbatan 100:1 nisbatda bo'lgan [11. B. 216.]. Mirxond tomonidan berilgan miqdor bo'rttirilgan bo'lsa ham, jangga barcha Yuan qo'shining safarbar qilinganini tushunish mumkin.

Manbalarda Qayduxon qo'shini haqida Vassafning unga qirq bir shahzoda hamroh bo'lganini tavsiflovchi ma'lumotidan boshqa qaydlar uchramaydi. Yuan qo'shinlari Qayduxon qo'shimcha kuch kutayotganini bilib, 1301 yil 3 sentyabrda unga hujum qiladi. Manbalarda ushbu jangdayoq Yuan qo'shinlari g'alabaga erishgani aytiladi. Mirxondning yozishicha, uch kunlik jangda Qayduxon yaralanadi va harbiy hiyla ishlatibgina omon qoladi [11. B. 216.].

Ikki kundan keyin Duvaxon yetib kelgach, Qayduxon Qora Qadada qoon qo'shiniga qarshi jang boshlaydi. Mirxond jang Irtish qirg'og'ida bo'lganini [11. B. 216.], yozadi. Bu safar qoon qo'shini mag'lub bo'ladi. Ammo, Qayshan va sarkarda Yochikar (Yuechichaer) dushman tomonga bostirib kirib, Qayduxonning harbiy ta'minotini bir qismini qo'lga kiritadi. Asir olingan shahzodalarni qutqargan sarkardalar old va orqa tomondan hujum qilib, vaziyatni saqlab qoladi. Yana bir urush jabhasi Tiejianguning g'arbiy qismida joylashgan Vuertuda davom etadi. Bu yerdagi janglarda Duvaxon yaralanib, mag'lub bo'ladi [11. B. 216; 15. B. 188, 329.]. Yakuniy jang ertasi kuni bo'lib, Vassaf va Mirxond bu jangda Qayduxon va Duvaxon g'alaba qozonganini aniq ko'rsatadi. Mirxondning yozishicha, Yuan qo'shini Qoraqurunga qochib, ittifoqchilar qo'shini ularni ta'qib qila olmasligi uchun orqalaridagi yaylovlarni yoqib yuborishadi. Rashididdin esa Qayduxon jangda mag'lub bo'lganini ta'kidlaydi [14. B. 9; 15. B. 24; 20. B. 326.]. "Yuan shi"da ham bu fikr quvvatlanib, O'ljoytu Temur qoon jangda qatnashgan shahzodalarga sovg'alar tarqatgani aytiladi [5. B. 516; 6. B. 329.]. Yuqoridagi noaniqlikning sababi shundaki, Qayduxon jangdan ko'p o'tmay vafot etadi. Bu esa qoonlikni o'ttiz yildan buyon bezovta qilib kelayotgan havfning tugallanishi edi. Uning o'limidan bir-ikki yil o'tgach, O'rta Osiyo hukmdorlari va Yuan sulolasi o'rtasidagi uzoq davom etgan qarama-qarshilikka barham berish maqsadida Duvaxon qoon bilan sulh imzolaydi.

Qayduxonning Chig'atoy ulusi va butun O'rta Osiyodagi ta'siri uning avlodlari tomonidan to'la saqlab qolinmadi. Qoshoniyning aytishicha, u o'limidan bir oz avval kenja o'g'li O'rusni o'zining vorisi qilib tayinlagan [13. B. 32.]. Vassaf Qayduxon o'limi arafasida o'g'li O'rus bilan bo'lgan suhbatda Chig'atoy xoni Duvaxonning maslahatiga quloq solishni buyurganini [18. B. 450-451; 2. B. 266.] yozadi. Muarrix Duvaxonni Qayduxon oilasida ko'p iltifotlarga ega bo'lgan eng tajribali va jasur shahzoda deb ta'riflaydi. Haqiqatda, Qayduxon vorisining taxtga o'tqazishda Duvaxon katta rol o'ynaydi.

Jamol Qarshiyning ma'lumotlariga ko'ra, Duvaxon O'rusni emas, Qayduning to'ng'ich o'g'li Choparni xonlikka ko'taradi [7. B. 138.]. Vassaf bunga sabab 1277-yilda Duvaxonni Chig'atoy ulusining xoni etib tayinlashni Chopar yosh bo'lishiga qaramay, otasi Qayduxonga maslahat bergani bilan izohlaydi. Qoshoniy Duvaxon Choparni "zaif va ahmoq" bo'lgani uchun ulusga boshliq qilib tayinlaydi

va u orqali Qaydu davlatini nazorat qilish osonroq deb o'ylaydi [13. B. 32-33.], deydi. Bu fikrni Rashiddin Choparni "o'ta ozg'in va yomon odam" deb ta'riflashi, hamda Qayduxonning boshqa o'g'illaridan farqli o'laroq, uning hayoti davomida Chopar haqida hech narsa eshitilmagani ham tasdiqlaydi. Duvaxonning Chopar taxtga o'tirganidan keyin unga nisbatan nafrat bilan munosabatda bo'lgani va Choparning o'zini tutishi bunga yana bir dalildir.

Duvaxon Qayduxonning xohishiga qarshi Choparni taxtga o'tqazib, uning davlatida bo'linish yaratishga muvaffaq bo'ladi. Rashiddinning yozishicha, bir necha shahzodalar Chopar taxtini egallash uchun kurash olib borgan. Jumladan, Qayduning o'g'li O'rus, qizi Qutulun va Guyugning o'g'li Xoquning o'g'li (nabirasi) Tugma ham taxtga da'vogarlardan edi.

Jamol Qarshiy XIV asr boshlarida Duvaxon va Chopar hukmronligini tasvirlar ekan, Chopar hokimiyatining "asosiy tayanchi" va "mehribon oqsoqol"i Duvaxonga qarzdor bo'lganligini aniq ko'rsatadi [19. B. 138.]. Voqealar rivojidan esa, 1304/1305-yil oxirida Qayduning o'g'li O'rus va boshqa o'g'illar, shuningdek, Tugma ham Chopar boshqaruvini qabul qilganliklari aniq. Bunga sabab, ular Chopar taxtga o'tirganidan ko'p o'tmay, Yuan hukumati bilan tinchlik o'rnatishga harakat qilgan Duvaxonga qarshi kurashishdan umumiy manfaatdor edilar.

Xitoy va forsiy manbalarida tinchlik tashabbusi Duvaxondan chiqqani yakdillik bilan tasdiqlanadi [18. B. 450-451; 19. B. 138; 13. B. 32-33.]. Qoshoniyning fikricha, Duvaxon chegara qo'mondonlaridan biri Ananda bilan bog'lanib qoon bilan tinchlik o'rnatish istagini ma'lum qiladi. Xitoy manbalarida Duvaxonga nikoh orqali aloqador bo'lgan Yochikar bilan aloqa o'rnatgani aytiladi [9. B. 33-34.]. Bu sarkarda kim bo'lishidan qat'i nazar, taklifga tezda rozi bo'lib, bu haqda O'ljoytu Temur qoonga xabar beradi.

Qoshoniyning ta'kidlashicha, dastlab Chopar Duvaxonning qoonga murojaatidan xabari bo'lmagan. Duvaxon esa bu haqda O'ljoytu Temur qoondan Turkistonni boshqarish huquqini olganidan keyingina unga xabar qilgan. Shundan so'ng, Duvaxon "do'stlik va adolat yo'lida" Chopardan Qayduxon qo'shib olgan Movarounnahr va Xuroson hududlarini tashlab chiqishni talab qiladi va unga O'qtoyxon mulki bo'lgan Qoraqurumni zabt etishini taklif etadi [13. B. 33-34.]. Vassafning ta'kidlashicha, Chopar taxtga o'tirgandan so'ng, Duvaxon unga sulh tuzish niyatida ekanligini bildirganda, Chopar Duvaxonning xohishidan chetga chiqqanligini aytgan [18. B. 453.].

"Yuan shi"da 1303 yil kuzida Chopar va Ariq Bukaning o'gli Malik Temur urushni to'xtatish uchun qoonga elchi yuborgani keltiriladi. 1304 yil oxirida Chopar va Duvaxon yana bir elchi yuborib, qoonga taslim bo'lishlarini bildiradilar. "Yuan shi"da Duvaxon, Chopar va Malik Temur tomonidan 1305-yilda xatolik bilan o'tkazilgan kengash tasvirlangan va unda uch kishi sulh tuzishga qaror qilgan

[3. B. 69-71.]. Bularning barchasi Chopar tinchlikka tayyorgarlik ko'rishda nisbatan erta bosqichda qatnashganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyodagi mo'g'ul xonzodalari taslim bo'lgach, mo'g'ul davlatlari o'rtasida jahon tinchlik shartnomasi imzolangan [13. B. 31.]. Qoshoniyni yozishicha, 1304-yil 19-sentabrda Elxon O'ljaytuxon saroyiga tinchlik bitimi imzolanganini tasdiqlagan ayg'oqchilar yetib kelishgan. Vassaf ham imzolangan tinchlik kelishuvining mo'g'ullar o'rtasidagi umumjahon miqyosini tavsiflaydi [2. B. 277; 18. B. 475-477.]. "Yuan shi"da esa mo'g'ul uluslari o'rtasidagi umumjahon tinchlik shartnomasi haqida hech qanday eslatma uchramaydi.

Mo'g'ullarning tinchlik shartnomasi imzolangandan bir fursat o'tib, O'rta Osiyoda O'qtoylar va Chig'atoylar xonadoni o'rtasida qator janglar boshlanib ketadi. Bunga, Duvaxonning O'qtoylar xonadonidan Movarounnahrni tark etishini so'raganiga qarshi tomonning rozi bo'lmagani sabab bo'ladi.

Duvaxon O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi kuchlar tartibini o'zgartirishga tayyor edi. Aslida, Duvaxon Qayduxon tirikligidayoq ko'p o'rinlarda uning qoon bilan o'zaro kurashlariga hayrixoh bo'lmagan. Shuning uchun ham so'nggi janglar oldidan Qayduxonning urushga chorloviga chorvasi oriqligini sabab qilib ko'rsatib, qo'shin olib borishdan bosh tortadi. Ammo, Qayduxonning qattiq talabi oqibatida 1301-yilda qo'shimcha kuch bilan jangga kelib qo'shiladi.

Forsiy va xitoy manbalarida Duvaxonning qoonga murojaat qilishiga hal qiluvchi sabab Chingizxon oilasida birlik zarurati deb tushuntiriladi. Duvaxon Mo'g'ul imperiyasining chegaralarini kengaytirishni davom ettirish istagini quvvatlaydi. Negaki, bu davrda mo'g'ul imperiyasi hududining kengayishi ichki urushlar tufayli to'xtab qolgan edi. U Chig'atoylar va O'qtoylar ittifoqi Hindistonga bostirib kirishini taklif qiladi. Chunki, Duvaxonning Hindistonga avvalgi bostirib kirishi muvaffaqiyatsiz yakunlangan edi. Duvaxon tomonidan tinchlik uchun ilgari surilgan yana bir sabab, imperiya chegaralarida karvon savdosini jonlantirish zarurati bo'lgan. Vassafning yozishicha, Elxon O'ljaytuxonga tinchlik bitimi haqida xabar bergan ayg'oqchilar tavsifida ham bitimining shu jihati ta'kidlanadi [2. B. 277; 18. B. 475-477.]. Yana bir katta va asosiy sabab, Duvaxon o'z qo'shinini va umuman Chig'atoy ulusi aholisini rasman va amalda Qaydu davlati ta'siridan ozod qilishni istar edi. Shuningdek, XIV asrning boshlarida Duvaxon o'ziga qarshi barcha mo'g'ul uluslarining ittifoqi xavfiga duch kelgan edi. Qayduxon hayotligida bunday ittifoqdan ular qo'rqishar edi, albatta. Qayduxon vafotidan keyin va 1301 yilgi jangda ularga yetkazilgan zararlardan so'ng O'rta Osiyo xonzodalari bunday ittifoqqa dosh berishi qiyin edi. Duvaxon mo'g'ullar imperiyasining boshqa bo'limlari (Elxoniylar, Oltin O'rda, Oq O'rda va Yuan) o'rtasidagi nizolarni ham hal qiladigan imperiya bo'ylab tinchlik o'rnatish zaruratini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Qayduning o'limi va

Duvaxonning O'rta Osiyoda "Aqo" (Akaliq, Og'alik) lavozimida bo'lishi Duvaxonga O'qtoy xonadoni nazoratidan qutulish uchun imkoniyat yaratadi. Uning obro'-e'tiboriga qaramay, voqealar rivoji shuni ko'rsatadiki, Duvaxon Qayduxon qo'shinini yengish uchun Yuan qo'shinlarining yordamiga muhtoj edi.

Duvaxon O'rta Osiyoda o'z mustaqil hukmronligini tiklash uchun Yuan imperiyasi orqali qonuniylikni qo'lga kiritishi mumkin deb hisoblaydi. Chunki, Qayduxon davlati hududining katta qismi Chingizxon tomonidan (Uyg'ur o'lkasi chegarasidan Amudaryogacha) yoki Xubilay qoon (1263 yilda Olg'uga va'da qilinganidek, Oltoydan Amudaryogacha) tomonidan Chig'atoy ulusi uchun ajratilgan hududda tashkil topgan edi. Shu sababli, Duvaxonning tinchlik taklifiga 1224 yil Chingizxon o'g'illariga taqsimlagan mulk huquqlari ta'kidlangan va taklif qilingan tinchlik "har kim o'zining bor narsadan mamnun bo'ladigan vaziyat" deb ta'riflangan. Shunga ko'ra, har bir xonzoda Chingizxon davrida o'ziga ajratilgan hududlarni o'zida saqlab qolishi kerak edi.

